Shuningdek, iqtisod fanlari doktori J.Karimqulov tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, "Erkin iqtisodiy hududlar deganda, muayyan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda kengaytirilgan mustaqillikka, boshqaruvning maxsus rejimi va investorlar iqtisodiy faoliyati uchun preferensial sharoitlarga ega bo'lgan hududni tushunish mumkin. Ushbu umumiy ta'rif, jahon amaliyotida uchraydigan turli xil va shakllardagi erkin iqtisodiy hududlar va ularga berilgan ta'riflarni bitta umumiy qatorda joylashtirish imkonini beradi"⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rganish jarayonida erkin iqtisodiy zonalar bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ayni paytda mamlakatimizdagi 23 ta erkin iqtisodiy zona jami 17,1 ming gektar yer maydoniga ega bo'lib, shundan 3,9 ming gektarida qiymati 5,4 milliard dollarga teng 904 ta investitsiya loyihasi joylashtirilgan. 4,8 ming gektarga yaqin maydon foydalanmasdan qolmoqda, bu esa mazkur maydonda yangi investitsiya loyihalari joylashtirish, sanoat quvvatlari va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish mumkinligini anglatadi.⁷

Joriy yil erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 1,1 milliard dollar bo'lgan 332 ta loyiha, kichik sanoat zonalarida umumiy qiymati 9,4 trillion so'm bo'lgan 1 ming 845 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Natijada 35 ming 384 ta yangi ish o'рни yaratiladi. Bu loyihalar, asosan, iqtisodiyotimizning o'sish nuqtasi hisoblangan elektrotexnika, charm-poyabzal, qurilish materiallari, neft-gaz, farmatsevtika, turizm, issiqxona xo'jaliklari, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish sanoati yo'nalishlarida amalga oshiriladi. Ushbu vazifalarning bajarilishi natijasida yil yakuni bilan 400 million dollarlik mahsulot eksport qilish, 350 million dollarlik import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Bu, o'z navbatida, davlat budjetiga qo'shimcha 2 trillion so'mdan ortiq mablag'ni yo'naltirishga imkon beradi.⁸

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan. 24.01.2020. Manba: www.prezident.uz

2 Данько Т.Л. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве// ИНФРА-М.-1998. С:168.

3 The Economic Times <https://economictimes.indiatimes.com/news/economy/policy/what-is-special-economic-zone/articleshow/1164460.cms>

4 Special economic zones as a tool for economic development Matthieu DeClerq, Anshu Vats, Stephen Clements <https://www.oliver-wyman.com/content/dam/oliver-wyman/ME/banners/Special%20Economic%20Zonesdigitalrev.pdf>

5 Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2010. 180-bet

6 Karimqulov J.I. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. TMI. 2019-yil. 24 b.

7 Manba: <https://uzbekembassy.com>

8 Manba: <https://uzbekembassy.com>



Sohani yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevralda "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonunning maqsadi – maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat ko'rsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.⁹

Mazkur qonunda keltirilgan asosiy tushunchalar quyidagi jadvalda berilgan:

1-jadval: Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatidagi asosiy tushunchalar¹⁰

№	Tushuncha	Tushunchaga ta'rif
1.	maxsus iqtisodiy zona	tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud;
2.	maxsus huquqiy rejim	maxsus iqtisodiy zonalar hududida investitsiya faoliyatini va boshqa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun alohida shart-sharoitlarni belgilaydigan huquqiy normalar majmui;
3.	maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilarining reyestri	maxsus iqtisodiy zonaning ishtirokchilari va investitsiya loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning axborot bazasi;
4.	maxsus iqtisodiy zonaning bosh rejasi	maxsus iqtisodiy zonaning ma'muriy kengashi yoki maxsus sanoat zonasini boshqaruvchi kompaniya tomonidan tasdiqlangan loyiha hujjati bo'lib, uning asosida maxsus iqtisodiy zona hududini rejalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va shaharsozlik jihatidan o'zlashtirishning boshqa turlari amalga oshiriladi.


Yuqoridagi qonunga asosan mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat ko'rsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish va tartibga solish davlat tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu vakolatlar bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va bir qator davlat organlariga berilgan.

Ta'kidlash kerakki, maxsus iqtisodiy zonani rivojlantirish borasida tuzilgan alohida dastur quyidagilarni o'z ichiga olgan holda amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish;
- muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini ta'minlash;
- maxsus iqtisodiy zonaning faoliyat bo'yicha va sohaviy ixtisoslashuviga muvofiq chet el investitsiyalarini hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari kompleksini tashkillashtirish;

Hozirgi kunda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi maxsus iqtisodiy zonani rivojlantirish dasturini moliyaviy ta'minlash zonaning o'z resurslari, xususiylar, manbalar, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining, xalqaro moliya institutlari va chet el hukumat moliya tashkilotlarining mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirish belgilangan.¹¹

Maxsus iqtisodiy zonalar ham, o'z navbatida, bir necha turlarga bo'linganligi sababli ularni quyidagi rasm orqali maxsus iqtisodiy zonalarini tasniflashini ko'rishimiz mumkin:



1-rasm: O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarining taniflashi¹²

9 Manba: O'zbekiston Respublikasining 17.02.2020-yildagi O'RQ-604-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/4737511>

10 Elektron resurslar orqali muallif tomonidan tuzildi. Manba: <https://lex.uz/docs/4737511>

11 Manba: O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/4737511>


12 Elektron resurslar orqali muallif tomonidan tuzildi. Manba: <https://lex.uz/docs/4737511>



Maxsus ilmiy-texnologik zona – innovatsiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlarida ilmiy tashkilotlar va ilmiy faoliyat sohasidagi boshqa tashkilotlar (texnologik parklar, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari, innovatsion klasterlar, ventchur fondlari, biznes-inkubatorlar va boshqalar) to'plangan hudud.¹³

Dunyo tajribasidan ma'lumki, yuqorida keltirib o'tilgan zonalar ichida maxsus ilmiy-texnologik zona (texnopark, texnopolis)lar bugungi kunda istiqboli yorqin bo'lgan sohalardan hisoblanadi.

Maxsus ilmiy-texnologik zonalar ham o'z navbatida bir qancha turlarga tasniflanib ketadi. Quyidagi rasm orqali Maxsus ilmiy-texnologik zonalarining tasniflanishini ko'rishimiz mumkin. (2-rasm)



2-rasm: Maxsus ilmiy-texnologik zonalarining tasniflanishi¹⁴

Bu borada bugungi kunga qadar O'zbekistonda alohida texnopark va texnopolislar yuqorida qayd etilgan qonun qabul qilinishiga qadar tashkil etilmagan edi. Shu sababli raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan texnoparklarni tashkil etish borasida bir qator xatti-harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish ularning salohiyatini yuksaltirish, izlanuvchanlik, innovatsion g'oyalarini va eng muhimi amaliy ko'nikmalarini shakllantirish asosida raqamli iqtisodiyot elementlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-maydagi "Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 313-son qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra quyidagilar asosiy vazifalar etib tayinlandi:

- hududlarda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasining faoliyatini rivojlantirish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar va Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari bilan hamkorlikda yoshlarni intellektual, ilmiy, ijodiy salohiyatini oshirish;
- hududlarda yoshlarning tahliliy fikrlash, ularni ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga keng jalb etish, iqtidorli, tashabbuskor yoshlarning o'z intellektual salohiyatini namoyon qilishi va ijtimoiy moslashuvi uchun zarur sharoitlar yaratish;
- yoshlarning "startup" loyihalarini rivojlantirish va ularni amalga oshirish uchun yagona maydon tashkil etish orqali hududlarning innovatsion salohiyatini oshirish;
- zamonaviy talablarga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash, shuningdek, hududlarni sifatli, yuqori texnologiyali mahsulotlar va xizmatlar bilan ta'minlash maqsadida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish;
- iqtidorli yoshlarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari, universitetlari, texnoparklari va ishlab chiqarish tashkilotlarida malaka oshirishlariga ko'maklashish;
- yetakchi kompaniyalar vakillari, malakali mutaxassislar va ekspertlar ishtirokida treninglar va master-klasslarni, shuningdek, yoshlarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va ishlab chiqaruvchilar bilan

¹³ Manba: O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi O'RQ-604-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/4737511>

¹⁴ Elektron resurslar orqali muallif tomonidan tuzildi.



innovatsion-korporativ aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida ilmiy-texnik konferensiya, seminar, o'quv kurslari va treninglar tashkil etish;

- iqtidorli yoshlar tomonidan taklif etilgan dolzarb yo'nalishlar bo'yicha loyihalarni saralash hamda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi¹⁵ tomonidan mavzuga oid grantlar berish yuzasidan e'lon qilib boriladigan tanlovlarga yo'naltirish;
- ilmiy-texnik, innovatsion hamda "startup" loyihalarini amaliyotga joriy etish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining ilmiy xodimlari, professor-o'qituvchi va talabalarini jalb qilish.¹⁶

2020–2023-yillarda respublika hududlarida raqamli texnologiyalarni keng tadbqiq etishni ko'zda tutuvchi Yoshlar texnoparklarini bosqichma-bosqich tashkil etish rejalashtirilgani bugun o'z samrasini bermoqda (2-jadvalda).

2-jadval: 2020–2023-yillarda respublika hududlarida Yoshlar texnoparklarini bosqichma-bosqich tashkil etish reja jadvali¹⁷

№	Hudud nomi	Joylashish joyi	Amalga oshirish muddati
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus sh.	2020-yil
2.	Andijon viloyati	Andijon sh.	
3.	Samarqand viloyati	Samarqand sh.	
4.	Navoiy viloyati	Navoiy sh.	2021-yil
5.	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo tum.	
6.	Toshkent viloyati	Ohangaron sh.	
7.	Buxoro viloyati	Olot tum.	2022-yil
8.	Namangan viloyati	Namangan sh.	
9.	Farg'ona viloyati	Farg'ona sh.	
10.	Xorazm viloyati	Urganch sh.	2023-yil
11.	Jizzax viloyati	Jizzax sh.	
12.	Surxondaryo viloyati	Termiz sh.	
13.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi sh.	

Hozirda yuqoridagi jadval asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri, Andijon viloyati Andijon shahri, Samarqand viloyati Samarqand shahrida yuqori texnologiyali, innovatsion yoshlar texnoparklari barpo etilgan bo'lib, samarali faoliyat yuritib kelmoqda va boshqa hududlarda ham tash qilish islohotlari olib borilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda har bir oliy ta'lim muassasi qoshida texnopark va texnopolislarni tashkil etish maxsus ilmiy-texnologik zonalar faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda iqtidorli va imkoniyati cheklangan talabalarda ko'nikma hosil qilish, yetuk kadr bo'lib yetishishi uchun ham yuqori samara berishi mumkin.

Yana bir tomondan esa, oliy ta'lim muassaslarini yakunlovchi bitiruvchi talabalarni ish ta'minlanish borasida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd qilinishi mumkin. Qolaversa, bunday imkoniyat nazariy bilim olayotgan yoshlarga o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkonini yaratib beradi.

¹⁵ Muallif izohi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

¹⁶ Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 22.05.2020-yildagi 313-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/4823544>.

¹⁷ Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 22.05.2020-yildagi 313-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/4823544>.



Yuqoridagi tajribalardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda EIZlarni rivojlantirish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish o'zining ijobiy samarsini berishi mumkin:

- Respublikamizdagi amaldagi EIZlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy-huquqiy jarayonlarni soddalashtirish lozim. Ushbu yo'nalishda raqamli texnologiyalarni tizimga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu yo'nalishda Hindistonda kichik sanoat hududlarining nodavlat shaklda tashkil etilish jarayonidan foydalanish o'zining ijobiy samarasini berishi mumkin;
- Mavjud faoliyat yuritib kelayotgan EIZlarga, xususan, farmatsevtika sohasi uchun xorijiy investitsiyalarni yanada ko'proq jalb qilish uchun mazkur soha bo'yicha yirik transmilliy kompaniyalar uchun "Alohida imtiyozlar paketi" taklif etish EIZlarning investitsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 17.02.2020-yildagi O'RQ-604-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/4737511>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan. 24.01.2020. Manba: www.prezident.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.05.2020-yildagi "Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 313-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4823544>
4. Данько Т.Л. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве// ИНФРА-М.-1998. С:168.
5. The Economic Times <https://economictimes.indiatimes.com/news/economy/policy/what-is-special-economic-zone/articleshows/1164460.cms>
6. Special economic zones as a tool for economic development Matthieu DeClerq, Anshu Vats, Stephen Clements <https://www.oliverwyman.com/content/dam/oliver-ymann/ME/banners/Special%20Economic%20Zonesdigitalrev.pdf>
7. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2010. 180-bet.
8. Karimqulov J.I. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. TMI. 2019-yil. 24 b.
9. <https://uzbekembassy.com>



YURIDIK SHAXSLAR FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

D.J.Babajanov

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi PhD**

Annotatsiya: Mazkur maqola foyda solig'i bilan bog'liq soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga bag'ishlangan. Foyda solig'i davlat uchun muhim daromad manbai bo'lib, samarali soliq ma'muriyatchiligi byudjet daromadlarini samarali yig'ish va soliq to'lovchilar tomonidan rioya etilishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu tahlil jarayonni soddalashtirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay muhit yaratish maqsadida takomillashtirilishi mumkin bo'lgan soliq ma'muriyatchiligining turli jihatlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: soliq, foyda solig'i, soliq tushumlari, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi. soliq munosatlari, soliq siyosati, davlat byudjeti, soliq ma'muriyatchiligi, soliq yuki.

Аннотация: Данная статья посвящена совершенствованию налогового администрирования по налогу на прибыль. Подоходный налог является важным источником доходов правительства, и эффективное налоговое администрирование имеет важное значение для обеспечения эффективного сбора доходов и соблюдения требований налогоплательщиками. В этом анализе рассматриваются различные аспекты налогового администрирования, которые можно улучшить, чтобы упростить процесс, сократить уклонение от уплаты налогов и создать более благоприятную для бизнеса среду.

Ключевые слова: налог, налог на прибыль, налоговые поступления, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка. налоговые отношения, налоговая политика, государственный бюджет, налоговое администрирование, налоговое бремя.

Abstract: This article is devoted to improving tax administration for income tax. Income tax is an important source of government revenue and effective tax administration is essential to ensure efficient revenue collection and taxpayer compliance. This analysis looks at various aspects of tax administration that can be improved to simplify the process, reduce tax evasion and create a more business-friendly environment.

Key words: tax, income tax, tax revenues, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax benefits, tax rate. tax relations, tax policy, state budget, tax administration, tax burden.

KIRISH

Jahonda tobora keskinlashib borayotgan global raqobat sharoitida mamlakatlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etib, bu soliq-byudjet tizimining samaradorligini ta'minlash, mahalliy byudjetlarning barqarorligi va ularning daromadlar bazasini mustahkamlashning dolzarbligini oshirmoqda. "Foydani soliqqa tortish bevosita soliqqa tortish amal qilishining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, ya'ni soliqlarning fiskal funksiyasini bajarish maqsadida xo'jalik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish ro'y beradi. Uzoq yillar davomida foyda solig'i byudjet soliq daromadlarining ahamiyatli qismini shakllantirib, tashkilotlarning rivojlantirishida muhim tartibga soluvchi rolni o'ynaydi". Jahon iqtisodiyotida huquqiy jihatdan shakllantirilgan korporativ soliq stavkalari korporatsiyalar duch keladigan asosiy soliq stavkasi hisoblanib, bu yuridiksiyalarni hisobga olgan holda va vaqt o'tishi bilan korporatsiyalar uchun standart soliq stavkalarini taqqoslash uchun qo'llanilishi mumkinligini anglatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda turli mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy maqsadi kamroq xarajat qilgan holda maksimal foyda olishga harakat qilishdir. Shu bilan birga, korxona to'lov intizomi mustahkam bo'lsa, byudjetga o'z vaqtida soliqlarni to'lab har bir jarimalardan qochishga intiladi va soliqlarni o'z vaqtida byudjetga to'laydi. Foyda tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarining so'nggi moliyaviy natijasi bo'lishi bilan birga, respublika va mahalliy byudjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi.



Narxlar barqaror bo'lganda foyda dinamikasining o'sishi korxonaning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi. Foyda hajmining o'sishi korxonaning moliyaviy qudrati, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish fondini tashkil etish hamda ishchi-xizmatchilarni moddiy rag'batlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Abdurkarimov (2005) foydani murakkab iqtisodiy kategoriyalardan biri sifatida e'tirof etib, u asosan qo'shimcha qiymat yaratish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi deb ta'kidlaydi.

Alieva (2011) foydani tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to'lov, ya'ni aynan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni mohirona birlashtirishi, korxona boshqarish bo'yicha noodatiy qarorlar qabul qilishi, mahsulotlarning innovatsion turlarini joriy qilishi, ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirishi uchun, shuningdek iqtisodiy risk uchun mukofot sifatida e'tirof etadi. Nemis iqtisodchisi E.F. Sheffle foydani investitsiya qilingan kapital qaytimi sifatida talqin etgan.

Milyakov (1999) foydani korxona byudjetini shakllantirishning muhim manbasi va bu manba hisobidan ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish amalga oshirilishini aytib o'tadi. Ko'pchilik singari Mardiasmo (2013) ham, foyda solig'ini foyda bilan bog'laydi. U foyda solig'i qonunchilikda ko'rsatilgan subyektiv shartlar va ob'ektiv talablarga rioya qilingandagi soliq to'lovchilardan olinadi deb fikr keltiradi.

Toshmurodov (2004) korxonalar foyda solig'ining mohiyati foydaning bir qismini majburiy to'lov sifatida davlat byudjetiga markazlashtirilishida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan – foyda solig'i tushunchasiga quyidagi taklif shakllantirildi: – foyda solig'i deganda korxona, tashkilot va birlashmalarda yaratilgan qo'shimgan qiymatning bir qismi foydani qonun doirasida belgilangan chegaralarda majburiy to'lov sifatida davlat byudjeti ixtioriga o'tkazilishi bilan bog'liq pul munosabatlari tushuniladi.

A.Fedorov. (2010) fikricha, "ma'muriy yukni kamaytiradigan va yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faolligini rag'batlantiradigan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etgan, amaldagi soliq imtiyozlarini sezilarli darajada kengaytiradigan va to'ldiradigan hamda o'z investitsiya manbalarini ko'paytiradigan yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faoliyatini soliq orqali rag'batlantirish usullari va uslublarini ishlab chiqqan, ularning samaradorligini baholagan".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada soliqqa tortish bo'yicha qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takkomillashtirishga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Foydani soliqqa tortish bo'yicha xorijiy tajribani miqdoriy va sifat mezonlari bo'yicha qiyosiy tahlil qilish O'zbekiston soliq siyosatida muhim hisoblanadi va foydani soliqqa tortishni takomillashtirishning bir qator yo'nalishlarini aniqlashga imkon berdi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston soliq tizimi ma'lum darajada boshqa mamlakatlarning soliqqa tortish tizimlarining hosilasi bo'lib, bu quyidagi umumiy fikrlar mavjudligi bilan tasdiqlanadi: - O'zbekistonda 15% foyda solig'i stavkasi o'rtacha Yevropa darajasiga (27%) solishtirish mumkin - foyda solig'i bazasi barcha manbalardan olinadigan yalpi daromad va belgilangan ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq - soliqqa tortiladigan daromadlarni hisoblashda har xil turdagi soliq imtiyozlarining mavjudligi, shu jumladan, o'xshash turdagi imtiyozlar (tezashtirilgan amortizatsiya, investitsiya solig'i krediti va boshqalar).

Foyda solig'ini takomillashtirishning ichki konsepsiyasining asosi 1990-2000-yillarda keng tarqalgan edi. Xorijda soliq solinadigan bazani kengaytirish bilan birga soliq stavkasini pasaytirish amaliyoti mavjud bo'lib, bu O'zbekistonda ham investitsiyalar va bir qator boshqa soliq imtiyozlarini bekor qilgan holda soliq stavkasini pasaytirish shakliga ega bo'ldi.

Xorijiy mamlakatlarda va O'zbekistonda foyda solig'ini tartibga solish vositalarini sifat va miqdoriy mezonlar bo'yicha qiyosiy tahlil qilish uchun har bir mamlakatning soliq tizimi va ularning asosiy soliq vositalarini ko'rib chiqish zarur. Sifat mezonlari bo'yicha soliq tizimining progressivligida soliqlarning daromadlarga muvofiq soliq to'lovchilar o'rtasida qanday taqsimlanishini o'rganadi. Xorijiy mamlakatlarda progressiv soliqqa tortish tizimi tez-tez qo'llaniladi, unda daromad oshishi bilan soliq stavkasi oshadi. O'zbekistonda ham progressiv soliqqa tortish bor, lekin stavkalar ayrim xorijiy mamlakatlarga qaraganda past bo'lishi mumkin.

Mazkur jadvalda Soliq stavkalarini tahlili bo'yicha esa soliq stavkalari darajasi taxmin qilinadi va xorijiy mamlakatlarda stavkalar ancha yuqori bo'lishi mumkin, ayniqsa boylar va korporatsiyalar uchun. O'zbekistonda stavkalar ham yuqori bo'lishi mumkin, ammo ular soliq to'lovchilar toifasiga bog'liq bo'lib, jismoniy shaxslar uchun 12 %, yuridik shaxslar uchun 15 %. Soliq muhiti bo'yicha soliq tizimining qulayligi va shaffofligi darajasi, shuningdek, har xil faoliyat turlari uchun soliq imtiyozlari va imtiyozlarning mavjudligi hisobga olinadi.



1-jadval. Sifat va miqdoriy mezonlar bo'yicha xorijiy mamlakatlarda va O'zbekistonda foydani soliq bilan tartibga solish vositalarini qiyosiy tahlil qilish¹

Mezonlar	O'zbekiston	Rossiya	AQSH	Kanada	Germaniya	Buyuk Britaniya	Fransiya	Ispaniya	Avstriya	Xitoy
Sifat mezonlari										
Progressiv foyda solig'i shkalasining mavjudligi			+		+	+				
Qo'shimcha foyda solig'ini qo'llanilishi			+	+	+					
Hududiy hokimiyat organlariga foydani soliqqa tortishni tartibga solish uchun kengroq huquqlar berilganligi			+	+						
Keng miqyosdagi ilmiy-tadqiqot ishlar uchun imtiyozlar	+	+	+	+			+		+	
Tezlashtirilgan amortizatsiya stavkalarini qo'llash	+	+	+	+	+	+	+	+		+
Kapital qo'yimalarga imtiyozlar					+			+		+
Kichik biznesni rag'batlantirish	+			+	+			+	+	
Eng kam foyda solig'ini mavjudligi									+	
Miqdor mezonlari										
Foyda solig'i stavkalari	15%	24%	18-46%	24,5-38%	45%	10-30%	10-42%	35%	25%	33%
Foyda solig'ini davlat budjetidagi ulushi	20%	21%	7%	5,5%	15%	7,7%	30%	8%	15%	19%

Xorijiy mamlakatlarda odatda soliq tizimining yanada rivojlangan infratuzilmasi va soliqlarni optimallashtirish uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston ham soliq muhitini yaxshilash choralari ko'rmoqda, ammo xorijiy davlatlar bilan taqqoslaganda u kam rivojlangan bo'lishi mumkin.

Miqdoriy mezonlar bo'yicha tahlil qilganimizda, umumiy soliq stavkasi bo'yicha korxonalar va jismoniy shaxslarga soliq yukining umumiy darajasi baholanadi. Bu yerda barcha to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlar, shuningdek, ijtimoiy badallar hisobga olinadi. Xorijiy mamlakatlarda umumiy soliq stavkasi, ayniqsa korporatsiyalar uchun ancha yuqori bo'lishi mumkin. O'zbekistonda umumiy soliq stavkasi ham o'rtacha darajadan yuqori bo'lishi mumkin. Foyda solig'i stavkasi bo'yicha korxonalar uchun foyda solig'i darajasi taxmin qilinadi va xorijiy mamlakatlarda foyda solig'i stavkasi har xil bo'lishi mumkin va turli omillarga, shu jumladan, korxona va sanoat hajmiga bog'liq. O'zbekistonda foyda solig'i stavkasi 15 %ni tashkil etmoqda. Investitsiyalarni

¹ Банхаева Ф.Х. Сравнительный анализ налоговых систем и его значение для совершенствования и реформирования налогового законодательства // Налоговый вестник. - 2001. - No2,3, Буздалина О.Б. Потребительская кооперация в условиях глобализации мировой экономики // Налоговый вестник. - 2002. - No12, Грибкова Н.Б. Опыт налогового регулирования в зарубежных странах и возможность его использования в России // Налоговая политика и практика. - 2005г. - No7. - С. 16-23, Попова Л.В., Маслова И.А., Земляков Ю.Д., Маслов Б.Г., Дрожжина И.А., Салихова В.Ю. Налоговые системы зарубежных стран // «Бухгалтерский учет в издательстве и полиграфии». - 2007. - N 10 и др.



soliqqa tortish yuzasidan investitsiyalardan olingan foyda solig'i baholanadi. Xorijiy mamlakatlarda dividendlar va kapital daromadlarni soliqqa tortish tizimi, ayniqsa xorijiy investorlar uchun bo'lishi mumkin. O'zbekistonda investitsiyalarga soliq solish foyda manbayi va soliq rejimiga qarab ham ahamiyatli bo'lishi mumkin. Umuman olganda, xorijiy davlatlar va O'zbekistonda foyda solig'ini tartibga solish vositalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq tizimlarining ayrim jihatlari o'xshash bo'lishi mumkin bo'lsa-da, soliq stavkalari va soliqlarni optimallashtirish shartlarida hali ham sezilarli farqlar mavjud.

Soliq stavkalarini pasaytirish va imtiyozlarni bekor qilish orqali soliqqa tortish bazasini kengaytirish tendensiyasi ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar soliq siyosatiga xos bo'lgan yana bir jarayon hisoblanadi. Bunda rag'batlantiruvchi ta'sirni maqsadli yo'naltirish muhim va soliq stavkani kamaytirish bilan birga amalga oshirishni taqozo etadi. Ilmiy-tadqiqot, kichik biznes, xorijiy investitsiyalarni jalb etish kabi sohalarni rivojlantirish maqsadida alohida soliq rejimlari yaratilib, turli imtiyozlar berilmoqda. Bu darajada kamaytiradigan ko'plab imtiyozlar birlashtirilmoqda. Ikkinchi holda, o'rta va past soliq stavkalari maqsadli imtiyozlardan cheklangan va o'rtacha foydalanish bilan birlashtiriladi.

Shu bilan birga chegirilmaydigan xarajatlar bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilganda, ularning turi Xitoyda 8 ta, Armanistonda 4 ta, Ozarbayjonda 7 ta, Gruziyada 7 ta, Singapurda 16 ta, Indoneziyada 9 ta, Germaniyada 4 ta va Ispaniyada 6 tani ekani ma'lum bo'ldi. Soliq kodeksining 317-moddasiga asosan chegirilmaydigan xarajatlar turi 36 tani tashkil qiladi, bu xorijiy davlatlarnikiga solishtirganda 4-5 barobarga ko'pdir. Shu sababli chegirilmaydigan xarajatlar turi, iqtisodiy mohiyati aniq korxonalar misolida hamda jamlanma shaklda shuningdek, xorijiy tajriba misolida o'rganilganda aniqlashtiruvchi xulosalarga erishdik.

Qayd etilgan holatlar bo'yicha kiritilgan bo'nak to'lovlari qanday tartibda hisoblanganligi o'rganilganda, avans to'lovni asossiz kamaytirilganlik holatlari isbotlanmasdan Soliq kodeksining 340-moddasida har bir chorak uchun bo'nak to'lovlarni hisoblash tartibidan kelib chiqib kiritilganligi ma'lum qilindi. Shu bilan birga mazkur masala bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilganda 1-ilovadagi tahlil natijalariga erishildi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hech bir mamlakatda soliq organlariga soliq to'lovchilar tomonidan taqdim qilingan avans ma'lumotnomaga asossiz o'zgartirish kiritish huquqi berilmagan. O'rganilgan mamlakatlarning bittasida (Angola) avans to'lovi yiliga bir marta, ikkitasida yiliga 2 marta (Yaponiya va Italiya), beshtasida choraklik (Turkiya, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon va Vetnam), ikkitasida korxona xususiyatiga qarab oylik yoki choraklik va to'rttasida oylik (Rossiya, Qozog'iston, Indoneziya va Argentina) avans to'lovlari amalga oshiriladi.

2020-yilda O'zbekistonda tamaki ishlab chiqaruvchi korxonaning rentabelligi 76,5 foizni, 2021-yilda 77,2 foizni, 2022-yilda 64 foizni tashkil etdi. Xorijiy tajriba, qoida tariqasida, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun foyda solig'ining oshirilgan stavkalarini qo'llashni nazarda tutadi. Misol uchun, Buyuk Britaniyada ushbu toifadagi soliq to'lovchilar uchun foyda solig'i stavkasi 25%, Yaponiyada – 23,2%, Janubiy Koreyada – 24%, Rossiya va Qozog'istonda – 20% qilib belgilangan.

Transmilliy raqamli korporatsiyalar (Facebook, Amazon, Google va boshqalar) O'zbekistonda jismoniy shaxslarga elektron xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromaddan soliq to'lamaydi. Shu bilan birga, 2020-yildan boshlab bunday korporatsiyalar uchun O'zbekistonda QQS to'lash majburiyati yuklandi. Taklif sifatida O'zbekistonda jismoniy shaxslarga elektron xizmatlar ko'rsatishdan daromad oladigan transmilliy raqamli korporatsiyalar (Facebook, Amazon, Google va boshqalar) uchun 5 foizlik daromad solig'ini joriy etish maqsadga muvofiq. Natijada har bir shaxs olingan daromadidan soliq to'lashi lozimligi tamoyili ta'minlanadi, budjet tushumlari oshadi. Xorijiy tajriba o'rganilganda, shunga o'xshash soliq Fransiya, Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Vengriya, Turkiyada amal qiladi. Bu stavka o'rtacha 2% dan 7,5% gacha tashkil etadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi ekspert Yuliy Yusupov raqobatbardosh muhitni yaratish bo'yicha islohotlarni mamlakatimizda amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlardan biri sifatida qayd etib, raqobat – bozor iqtisodiyotining dvigateli ekanligi, rivojlangan raqobat muhiti yaratilmas ekan oldinga harakatlanish mumkin emasligini qayd etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish vazifalari belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan Farmon va qarorlarga asosan bir xil soliq solish obyektlariga ega bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni birlashtirish soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan biri sifatida belgilandi. Bu borada, korxonalar foydasini soliqqa tortish borasida amalga oshirilgan islohotlarni alohida qayd etish lozim.

Bunda foydadan olinadigan soliq yukini kamaytirish, qo'shimcha soliq turlarini qisqartirish, foyda solig'ini hisoblab chiqarishni soddalashtirish va soliq stavkalarini optimallashtirishga e'tibor berildi.

2-jadval. 2021–2023-yillarda korporativ daromad solig'i stavkasining muhim o'zgarishlari²

T/r	Davlat nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	AQSh	28%	21%	21%
2	Kanada	15%	15%	15%
3	Braziliya	25%	22,5%	20%
4	Argentina	25%	25%	25%
5	Urugvay	25%	25%	25%
6	Germaniya	15%	15,825%	15,825%
7	Italiya	24%	24%	24%
8	Buyuk Britaniya	19% (kichik korxonalar uchun) 25% (daromadi 250 ming funt. sterlingdan oshganlari uchun)	19%	25%
9	Shvesariya	14,93%	14,93%	14,93%
10	Fransiya	28,4%	25,8%	25%
11	Rossiya	20%	20%	20%
12	Singapur	17%	17%	17%
13	Avstraliya	26%	26%	25% (kich-o'rta uchun) 30%
14	Turkiya	20%	23%	
15	Janubiy Koreya	25%	10-25% (prog)	9-24% (prog)

Dunyoning barcha yirik mintaqalarida, jumladan, eng yirik iqtisodiyotlarda pasayish kuzatildi. Qo'shma Shtatlarda 2017-yilgi soliqlarni qisqartirish va ish o'rinlari to'g'risidagi qonun mamlakatning qonuniy korporativ daromad solig'i stavkasini dunyodagi eng yuqori soliq stavkalaridan o'rta soliq stavkalariga yaqinlashtirdi³. Osiyo va Yevropa mamlakatlarida korporativ daromad solig'i stavkalari boshqa mintaqalardagi mamlakatlarga qaraganda pastroq bo'lib, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda korporativ daromad solig'i stavkalari dunyo bo'ylab o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori.

Bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda korporativ soliq stavkalari 20 foizdan 30 foizgachani tashkil qiladi. 2021, 2022 va 2023-yillarda Amerika, Yevropa va Osiyo qit'alaridan rivojlangan 5 tadan mamlakatlar stavkalarini tahlil qiladigan bo'lsak korporativ soliq stavkasida muhim o'zgarishlar bo'lmagan. 8 ta mamlakat (Kanada, Germaniya, Italiya, Turkiya, Rossiya, Singapur, Argentina va Urugvay)da stavka deyarli o'zgarmagan, 4 ta mamlakat (AQSh, Braziliya, Fransiya, Janubiy Koreya)da stavka kamaygan va qolgan 2 ta Buyuk Britaniya va Avstraliya mamlakatida stavka 19 foizdan 30 foizgacha oshgan.

Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda chet el tashkilotlarini savdo, sanoat va boshqa tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlarni soliqqa tortishning eng keng tarqalgan asoslari soliq qonunchiligida biznes instituti (doimiy muassasa) tashkil etilishi bilan bog'liq. Doimiy muassasa institutidan foydalanish, ushbu tashkilotlar rezident bo'lgan har ikkala davlatning va ular faoliyat ko'rsatadigan davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda, xorijiy tashkilotlar uchun muvozanatli soliq rejimini o'rnatishga imkon beradi. Doimiy muassasaning asosiy maqsadlaridan biri bu faoliyat ko'rsatadigan mamlakatda soliq solinadigan xorijiy tashkilotning daromadlarini aniqlashdir⁴.

Bu xorijiy tashkilotning soliqqa tortiladigan daromadi kompaniyaning umumiy daromadining ma'lum bir ulushi sifatida yoki shartli ravishda mustaqil biznes bo'linmasining foydasi sifatida aniqlanishi mumkin. Har bir mamlakatda kompaniyaning umumiy foydasida foyda ulushini aniqlashning o'ziga xos usullari mavjud. Foyda kompaniyaning umumiy savdosidagi ulushiga qarab hisoblanishi mumkin ya'ni:

bo'linma ishchilari soni va kompaniya xodimlarining umumiy soniga nisbati bo'yicha;

2 Korporativ daromad soliqlarining qonuniy stavkalari OECDdan olingan, "ИИ.1-жадвал. Қонуний корпоратив даромад солиғи ставкаси", 2022 йил май ойида янгиланган, https://stats.oecd.org/index.aspx?DataSetCode=Table_1, PwC, "Жаҳон бўйлаб солиқ хулосалари – корпоратив солиқлар", 2022, <https://taxsummaries.pwc.com/>. Блумберг Тах, "Мамлакат йўриқномалари – Корпоратив солиқ ставкалари", 2022 йил ноябр, https://www.bloomberglaw.com/product/tax/toc_view_menu/3380.

3 Kari Jahnsen va Kayl Pomerleau, „Dunyo bo'ylab korporativ daromad solig'i stavkalari, 2017-yil, „Soliq jamg'armasi, 2017-yil 7-sentyabr, <https://taxfoundation.org/corporate-income-tax-rates-around-the-dunyo-2017/>.

4 <https://oak.uz/pages/5789-Rajapov-Shuxrat-Zaripbaevichning-falsafa-doktori-PhD-dissertatsiyasi-himoyasi-haqida-e'lon>



ma'lum bir mamlakat hududida joylashgan kompaniya aktivlari ulushiga mos ravishda va boshqalar.

Ko'pchilik mamlakatlarda soliqqa tortish hatto xorijiy kompaniyalarning notijorat tashkilotlarida ham qo'llaniladi. Bunday hollarda soliq summasi, odatda, ushbu idorani, byuroni va boshqalarni saqlash xarajatlari 5-8 foiziga asoslanadi.

Investitsion foyda (passiv daromad) uchun „daromad manbayi“ mezoni qo'llaniladi. Agar tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlar nuqtayi nazaridan, daromad keltiradigan faoliyatni amalga oshirishning tabiati va usullari ularni soliqqa tortish nuqtayi nazaridan hal qiluvchi bo'lsa, unda ularning manbayi joylashgan joy passiv daromadlar uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi - ma'lum bir mamlakat ichida yoki undan tashqarida passiv daromadlar va asosiy daromad o'rtasidagi asosiy farq bu tijorat foydasi hisoblanib, bu shundan iboratki, ular doimiy yoki oldindan to'lanadigan to'lovlar xususiyatiga ega bo'lib, tomonlar kelishgan davrda to'lanadi va belgilangan stavka bo'yicha (20–30%) amalga oshirilgan har bir to'lov uchun manbadan soliqqa tortiladi.

Shu bilan birga, soliq budjetga soliq agenti tomonidan daromad oluvchining hisobidan to'lanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda rezident tashkilotlarning xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortilishini bartaraf etish uchun quyidagi usullar aniqlangan:

- boshqa mamlakatda olingan ma'lum bir daromadni (masalan, iqtisodiy faoliyatdan olinadigan foyda) soliq bazasidan chiqarib tashlash (ozod qilish usuli) (1);

- boshqa mamlakatda olingan daromatlarni soliq solinadigan bazaga kiritish, keyinchalik ushbu mamlakatda to'lanadigan daromad solig'i summasidan to'langan xorijiy soliqlarni chegirib tashlash (hisobga olish usuli, soliqni hisobga olish) (2);

- korxonaning soliq solinadigan bazasini aniqlashda chet elda to'langan soliqlarni chegirib tashlanadigan xarajatlarga kiritish (chegirma usuli) (3).

$$\text{Tax} = P_R \times p_{\text{tax}}, \quad 1)$$

$$\text{Tax} = [P_R + P_s] \times p_{\text{tax}} - \text{Tax}_s \quad (2)$$

$$\text{Tax} = [P_R + P_s - \text{Tax}_s] \times p_{\text{tax}} \quad (3)$$

Bu yerda,

Tax – soliq summasi, rezidentlik davlatidagi to'lovi,

P_R – foyda, rezidentlik davlati tomonidan olingan foyda,

P_s – foyda, chet mamlakatlari manbalaridan olingan foyda,

p_{tax} – rezidentlik davlatidagi soliq stavkasi,

Tax_s – soliq summasi, chet davlatlari manbalaridan to'langan soliq summasi.

Davlatning ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning muayyan usulini tanlashi uning soliq siyosatining maqsadlari „soliq betarafligi“ tushunchasiga bog'liq. Xalqaro biznesni soliqqa tortishda bunday soliq qoidalarini yaratish, ular chet elda iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi, shu bilan soliq nuqtayi nazaridan tijorat qarorlarining betarafligini ta'minlaydi. Ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari mos ravishda import, eksport va milliy betaraflikni ta'minlaydi. Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish muammosi soliqlardan qochish va soliq to'lashdan bo'yin tovlash muammosi bilan chambarchas bog'liqdir.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlashda ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmini qo'llash uchun davlatlar o'rtasida chora-tadbirlar ko'rmoqda, shu jumladan, soliq qonunchiligida transfert narxlarini tartibga soluvchi qoidalar, ortiqcha kapitallashuv va imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklashlar shular jumlasiga kiradi. Soliqqa tortishning hududiy tizimi va soliqlarni kreditlash tizimi alohida mamlakatlarning qonunchiligi darajasida ikki yoqlama soliqqa tortish muammosini hal qilishga imkon beradi. Ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risidagi xalqaro shartnomalar davlatlararo darajadagi ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosini hal etishga yordam beradi. Xalqaro amaliyotda bunday shartnomalar, odatda, chet el manbalaridan olinadigan daromatlarni soliqqa tortishdan ozod qilish bilan bir qatorda, soliqqa tortishda cheklovlar ham mavjud.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish mumkinki, mamlakatimizda korxonalar foydasini soliqqa tortishni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida, foyda solig'i stavkasini tabaqalashtirish, bunda kichik biznes subyektlari, qishloq xo'jaligi korxonalari va notijorat tashkilotlariga uning nisbatan pastroq stavkasini va rentabellik darajasi yuqori faoliyat turlariga, aksincha yuqoriroq stavkasini joriy qilish lozim. Shu bilan birga, foydani soliqqa tortishning xalqaro andozalarida, soliqning tartibga solish salohiyatini amalga oshirish tashkilotlarning soliq yukini kamaytirishga emas, balki makroiqtisodiy o'sishga va xo'jalik yurituvchi subyektlarning uzoq muddatli rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Buning uchun amortizatsiya siyosati, investitsion soliq imtiyozlari, chegirmalar va boshqalar kabi soliqni tartibga solish mexanizmlari yuqori samaradorlikda namoyon qilishi kerak.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Foyda solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish tahlili bo'yicha takliflar Aniqlikni oshirish va noaniqlikni kamaytirish uchun foyda solig'i qonunlari va qoidalarining murakkab qoidalarini ko'rib chiqing va soddalashtiring. Keraksiz byurokratik tartib-qoidalarni bartaraf etish va soliq to'lash va hisobot berish talablarini soddalashtirish. Soliq to'lovchilarni foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar va rioya qilish tartib-qoidalarini haqida xabardorlik va tushunishni oshirish uchun kompleks ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Soliq to'lashdan bo'yin tovlashni aniqlash va oldini olish, soliqlarning adolatli va adolatli yig'ilishini ta'minlash uchun muntazam soliq tekshiruvlari va tekshiruvlarini o'tkazish. Soliq deklarasiyasini oson va tezroq topshirish hamda qog'ozbozlikni qisqartirish uchun elektron soliq to'lovi va to'lov tizimlarini joriy etish.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Mardiasmo D. (2013) Taxation, Publisher Andi, Revision Edition, – p. 55.
2. Maxmudova, N. J. (2020). Theoretical foundations of risk management in large corporate structures. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 83-88.
3. Tashmuradov T. (2004) Soliq nazariyasi va tizimi. Darslik. –T.: Bilim,. -320 b.
4. Абдукаримов Б. (2005) ва бошқ. Корхона иқтисодиёти. – Т.: Фан, , 220 б.
5. Алиева С.С. (2011) Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. (на примере предприятий Самаркандской области). Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, – с. 26.
6. Мануйленко В.В., Садовская Т.А. Экономическая сущность, виды и функции прибыли хозяйствующего субъекта: современный аспект //Финансовая аналитика: проблемы и решения. – 2012. – №. 33. – с. 26.
7. Миляков Н.В. (1999) Налоги и налогообложение. Курс лекций. – М.: ИНФРА-М,. – с. 348.
8. Федоров Андрей Николаевич. Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Нижний Новгород 2010.
9. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.



MAMLAKATIMIZDA PILLACHILIK BIZNESINI RIVOJLANTIRISH ORQALI MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH VA UNI QAYTA ISHLASH HOLATINING TAHLILI

Turgunov Odilbek Maripovich

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, hududlar kesimida 2016–2023-yillarda qishloq xo'jaligida yetishtirilgan ipak qurti, pillani qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar, pilla mavsumida ajratilgan ish o'rinlari soni kabi ko'rsatkichlar amaliy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur tahlillar asosida pillachilik biznesini rivojlantirish imkoniyatlari va kelgusidagi istiqbollari bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil biznes, yashil makon, pillachilik, diversifikatsiyalash, barqarorlik, tutzor, yakka qator tut daraxtlari.

Abstract: In this article, the conditions created for the development of the cocooning business in our country, indicators such as silkworms grown in agriculture in 2016–2023, cocoon processing enterprises, and the number of jobs allocated during the cocooning season are analyzed in a practical way. On the basis of these analyses, scientific and practical proposals have been developed on the possibilities and future perspectives of the cocooning business development.

Key words: green business, green space, cocooning, diversification, sustainability, mulberry, single row mulberry trees.

Аннотация: В данной статье на практике проанализированы условия, созданные для развития коконоводческого бизнеса в нашей стране, такие показатели, как поголовье шелкопряда в сельском хозяйстве в 2016–2023 годах, предприятия по переработке коконов, количество рабочих мест, выделяемых в сезон коконоводства. На основе этих анализов разработаны научно-практические предложения о возможностях и перспективах развития коконоводческого бизнеса.

Ключевые слова: зеленый бизнес, зеленые насаждения, коконирование, диверсификация, устойчивость, шелко-вица, однорядные шелковичные деревья.

KIRISH

Pilla yetishtirish va ipakni qayta ishlashni o'z ichiga oluvchi sanoat tarmog'i dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlarida mavjud bo'lib, yuqori bandlik salohiyatiga ega hamda daromadli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ipak tolasi va undan olinadigan mahsulotlar o'zining nafisligi, nozikligi va ekologik toza tabiati tufayli bozorda ehtiyoji yuqori bo'lgan mahsulotlar sirasiga kiradi.

Sanoat usulida qayta ishlangan ipak tolalarining to'qimachilik sanoati, tibbiyot va informatika kabi murakkab sohalarda keng qo'llaniladi. Shu sababli ipakka bo'lgan talab har doim bozorda yuqori bo'lsa-da, mavjud talabni qondirish imkoniyatlari doimiy ravishda ishlab chiqarish yoki iqtisodiy raqobatbardoshlik darajasida turli to'siqlar bilan ta'sirlanadi, jumladan, ipak tolasi o'rnini bosivchi sintetik tolalarni arzon narxlarda ishlab chiqarish va arzon tabiiy tolalar (masalan paxta) bilan o'rnini qoplash fikrimizning isbotidir. Ipakchilik sohasida O'zbekiston jahondagi yetakchi mamlakatlar sifatida uni rivojlantirish uchun uzoq tarixiy bosqichlardan o'tgan bo'lib, aholi-sining uzoq yillik va an'anaviy avloddan avlodga o'tishi bilan saqlanib va rivojlanib kelayotgan sohadir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda pillachilikni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga makro darajada ta'sir ko'rsatish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Klayna-Rozenberg, R.Rosvell, Akio Morita, Fumio Kodama, MDH mamlakatlari olimlaridan A. Y.Ivanitskaya, A.Panfilova, S.A.Samal, A. Ye.Tyulinlar tomonidan pillachilik iqtisodiyotining ilmiy-nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda pillachilik iqtisodiyotining tizimini o'rganish bo'yicha N.Q.Yo'ldoshev, G.A. Xamdamova, A.J.Toshboyev, I.S.Ochilovlar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Bundan tashqari, respublikamizda ipakchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha Sh.O'roqov, B.Q. Sharipov, O.Jumayev kabi olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rganish jarayonida mamlakatimizda pillachilikni rivojlantirish bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston uchun ipakchilik tarmog'ining asosiy xususiyati uzoq yillik tarixga ega ekanligi bilan bir qatorda "Atlas" brendining xalqaro brend darajasiga ko'tarilgani va kiyim sanoatida "Prette-porte" brendlari qatorida turishidir.

O'zbekiston ipakchilik sanoati so'nggi yillarda ma'lum bir pasayish siklini o'tadi, jumladan, tutzorlarning qisqarib ketishi va tut plantatsiyalarining yetarlicha shakllantirilmashligi, tutzorlarni parvarish qilishda yo'l qo'yilgan xatoliklar, xo'jalik yuritish shakllarining noto'g'ri tanlanishi, mahsulot yetkazib berish, uni qayta ishlash yo'nalishlarining bir-biridan ajratilishi ishlab chiqarishning pasayishiga va ipak xom ashyosining qimmatlashuviga, natijada esa bozor talabini to'liq qondira olmaslikka sabab bo'ldi.

Bir qator tizimli muammolar sabab O'zbekistonning Yevropa va AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarning bozoriga kirib borishida, o'zining ipak mahsulotlarini sotishida qiyinchiliklarga duch keldi. Rivojlangan mamlakatlar ipak mahsulotlari importi, asosan, Xitoy va Hindiston mamlakatlardan amalga oshirilayotganligi bois, O'zbekistonning eng daromadli mamlakatlarga ipakli mahsulotlar eksportida ulushi pastligicha qolmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor maqsadi aholining hayot darajasini yuksaltirish, kambag'allikni qisqartirish, yangi va doimiy ish o'rinlarini ochishdir. O'zbekiston Respublikasidagi 12 ta viloyat (Andijon, Buxoro, Farg'ona, Jizzax, Namangan, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent viloyati, Xorazm) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida 2016–2023-yillar (6 yil davomida) oralg'ida yetishtirilgan ipak miqdori (dona quti) tahlil qilindi (1- va 2-jadvallar).

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi hududlarida 2016–2019-yillarda yetishtirilgan ipak miqdori (dona quti)

№	Hududlar nomi	Yetishtirilgan quti ipak, dona						
		2016	2017	2017–2016-yilga nisbatan, foizda	2018	2018–2017-yilga nisbatan, foizda	2019	2019–2018-yilga nisbatan, foizda
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	9466,4	9819,9	103,7	10207,8	104,0	10700	104,8
2	Andijon	43044,9	44791,7	104,1	46320,3	103,4	48100	103,8
3	Buxoro	34189,4	34922,8	102,1	35599,2	101,9	36400	102,2
4	Farg'ona	27379,4	28790,1	105,2	30210	104,9	31800	105,3
5	Jizzax	10434,6	10550,7	101,1	10646,5	100,9	10700	100,5
6	Namangan	26919,5	27082,0	100,6	27163,5	100,3	27300	100,5
7	Navoiy	14088,0	14553,8	103,3	14973	102,9	15500	103,5
8	Qashqadaryo	33037,8	34024,5	103,0	34825,5	102,4	35500	101,9
9	Samarqand	46954,0	47524,3	101,2	47907,6	100,8	48100	100,4
10	Surxondaryo	27054,7	27245,4	100,7	27300	100,2	27300	100,0
11	Sirdaryo	7706,6	7768,8	100,8	7800	100,4	7800	100,0
12	Toshkent viloyati	22523	22688	100,7	22890	100,9	21800	95,2
13	Xorazm	25523,5	26614,7	104,3	27666	104,0	29000	104,8
	Jami	328322	336377	102,5	343509	102,1	350000	101,9



2016-yilda O'zbekiston Respublikasida jami yetishtirilgan ipak miqdori 328322 dona qutini tashkil qilgan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 94466,4 tonna ipak yetishtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich Respublikada yetishtirilgan ipak miqdorining 2,9%ini tashkil qiladi. Ushbu yilda Respublika hududida ipak yetish-tirish bo'yicha Samarqand viloyatidan keying o'rinda Andijon viloyati yetakchilik qilgan (43044,9) va ushbu ko'rsatgich jami yetishtirilgan ipak miqdorining 13,1%ini tashkil qiladi. Qolaversa, Buxoro viloyatida 34189,4 dona quti, Farg'ona viloyatida 27379,4 dona quti, Jizzax viloyatida 10434,6 dona quti, Namangan viloyatida 26919,5 dona quti, Navoiy viloyatida 14088tonna, Qashqadaryo viloyatida 33037,8 dona quti, Samarqand viloyatida 46954 dona quti, Surxandaryo viloyatida 27054,7 dona quti, Sirdaryo viloyatida 7706,6 dona quti, Toshkent viloyatida 22523 dona quti, Xorazm viloyatida 25523,5 dona quti ipak yetishtirilgan. 2017-yilga kelib Respublikada 336376,77 dona quti ipak yetishtirilgan bo'lib va bundan 2016-yilga nisbatan 2,5ga ortganini ko'rishimiz mumkin.

2017-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida 9819,9 dona quti ipak yetishtirilgan (o'tgan yilga nisbatan 3,7%ga ortgan). Andijon viloyatida ham o'tgan yilga nisbatan qariyb 4,1%ga ko'proq ipak yetishtirilgan. Andijon viloyatida 2017-yilda yetishtirilgan ipak miqdori 44791,7 dona quti tashkil qildi va bu ko'rsatgich 2016-yilga nisbatan 4,1%ga ko'proq. Qolaversa, Buxoro viloyatida 2017-yilda 2016-yilga nisbatan 2,1%ga, Farg'ona viloyatida 5,2%ga, Jizzax viloyatida 1,1%ga, Namangan viloyatida 0,6%ga, Navoiy viloyatida 3,3%ga, Qashqadaryo viloyatida 3%ga, Samarqand viloyatida 1,2%ga, Surxondaryo viloyatida 0,7%ga, Sirdaryo viloyatida 0,8%ga Toshkent viloyatida 0,7%ga, Xorazm viloyatida 4,3%ga ko'proq pilla yetishtirilgan.

Respublika hududida 2018-yilda jami 343509 dona quti ipak yetishtirilgan bo'lib shundan eng ko'p ulush Andijon hamda Samarqand viloyatlariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasida 10207,8 dona quti, Buxoro viloyatida 35599,2 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 1,9%ga oshgan), Farg'ona viloyatida 30210 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 4,9%ga oshgan), Jizzax viloyatida jami yetishtirilgan pilla miqdori 2018-yilda 10646,5 dona qutini tashkil qilgan (o'tgan yilga nisbatan 0,9%ga o'sgan), Namangan viloyatida 27163,5 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 0,3%ga oshgan), Surxondaryo viloyatida 27300, Sirdaryo viloyatida 7800 dona quti, Toshkent viloyatida 22890 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 0,9%ga o'sgan), Xorazm viloyatida 27666 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 4,0%ga o'sgan).

2019-yilda O'zbekiston Respublikasida jami yetishtirilgan ipak miqdori 350000 dona quti tashkil qilgan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 10700 dona quti ipak yetishtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich Respublikada yetishtirilgan ipak miqdorining 3%ini tashkil qiladi. Ushbu yilda Respublika hududida ipak yetish-tirish bo'yicha Andijon hamda Samarqand viloyatlari o'rtasida o'zaro tenglik yuzaga keldi (48100 dona quti), va ushbu ko'rsatgich jami yetishtirilgan ipak miqdorining 13,7%ini tashkil qiladi. Qolaversa, Buxoro viloyatida 36400 dona quti, Farg'ona viloyatida 31800 dona quti, Jizzax viloyatida 10700 dona quti tonna, Namangan viloyatida 27300 dona quti, Navoiy viloyatida 15500 dona quti, Qashqadaryo viloyatida 35500 dona quti, Samarqand viloyatida 48100 dona quti, Surxandaryo viloyatida 27300 dona quti, Sirdaryo viloyatida 7800 dona quti, Toshkent viloyatida 21800 dona quti, Xorazm viloyatida 29000 dona quti ipak yetishtirilgan. 2019-yilda 2018-yilga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasida 4,8%ga o'sgan, Andijon viloyatida 3,8%ga, Buxoro viloyatida 2,2%ga, Farg'ona viloyatida 5,3%ga, Jizzax viloyatida 0,5%ga, Namangan viloyatida 0,5%ga, Qashqadaryo viloyatida 1,9%ga, Xorazm viloyatida 4,8%ga oshgan.

2020-yilda Respublikamizning quyidagi viloyatlarida pilla miqdori sezilarli darajada oshgan: Andijon viloyatida 49400 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 2,7 %ga ortgan), Farg'ona viloyatida 35455 dona quti (2019-yilga nisbatan 11,5%ga ortgan), Jizzax viloyatida 12727 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 18,9%ga ortgan), Navoiy viloyatida 16183 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 4,4 %ga ortgan), Qashqadaryo viloyatida 36364 dona quti (o'gan yilga nisbatan 2,4 %ga ortgan), Samarqand viloyatida 49350 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 2,6%ga kamaygan), Surxondaryo viloyatida 29090 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 6,6 %ga ortgan), Xorazm viloyatida 32000 dona quti (o'tgan yilga nisbatan 10,3%ga ortgan). Umuman olganda Respublika hududidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda 12 ta viloyatda yetishtirilgan pilla miqdori o'tgan yili yetishtirilgan pilla miqdoridan 9%ga ortgan (2-jadval).

2021-yilda O'zbekiston Respublikasida jami yetishtirilgan ipak miqdori 415293,9 dona quti tashkil qilgan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 14763,3 dona quti ipak yetishtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich Respublikada yetishtirilgan ipak miqdorining 3,55%ini tashkil qiladi. Ushbu yilda Respublika hududida ipak yetishtirish bo'yicha Samarqand viloyatidan keying o'rinda Andijon viloyati yetakchilik qilgan (50931,4 tonna), va ushbu ko'rsatgich jami yetishtirilgan ipak miqdorining 12,3%ini tashkil qiladi. Qolaversa, Buxoro viloyatida 44040 dona quti, Farg'ona viloyatida 38929,6 dona quti, Jizzax viloyatida 14572,4 dona quti, Namangan viloyatida 36864 dona quti, Navoiy viloyatida 17008,3 dona quti, Qashqadaryo viloyatida 37200,4 dona quti, Samarqand viloyatida 50633,1 dona quti, Surxandaryo viloyatida 30864,5 dona quti, Sirdaryo viloyatida 12164,2 dona quti, Toshkent viloyatida 30266,7 dona quti, Xorazm viloyatida 37056 dona quti ipak yetishtirilgan.



2-jadval: O'zbekiston Respublikasi hududlarida 2020–2023-yillarda yetishtirilgan ipak miqdori (dona quti)

№	Hududlar nomi	Yetishtirilgan quti ipak, dona							
		2020	2020– 2019-yilga nisbatan, foizda	2021	2021– 2021-yilga nisbatan, foizda	2022	2022– 2021-yilga nisbatan, foizda	2023	2023– 2022-yilga nisbatan, foizda
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	12727	118,9	14763,3	116,0	15545,8	105,3	16447,4	105,8
2	Andijon	49400	102,7	50931,4	103,1	52153,8	102,4	53509,8	102,6
3	Buxoro	40000	109,9	44040,0	110,1	46506,2	105,6	49157,1	105,7
4	Farg'ona	35455	111,5	38929,6	109,8	40720,4	104,6	42634,2	104,7
5	Jizzax	12727	118,9	14572,4	114,5	15432,2	105,9	16373,6	106,1
6	Namangan	32000	117,2	36864,0	115,2	39518,2	107,2	42640,1	107,9
7	Navoiy	16183	104,4	17008,3	105,1	17467,6	102,7	18026,5	103,2
8	Qashqadaryo	36364	102,4	37200,4	102,3	37907,2	101,9	38892,8	102,6
9	Samarqand	49350	102,6	50633,1	102,6	51797,7	102,3	53299,8	102,9
10	Surxondaryo	29090	106,6	30864,5	106,1	32346	104,8	34060,3	105,3
11	Sirdaryo	10550	135,3	12164,2	115,3	13088,6	107,6	14135,7	108
12	Toshkent viloyati	25980	119,2	30266,7	116,5	32899,9	108,7	35926,7	109,2
13	Xorazm	32000	110,3	37056,0	115,8	39427,6	106,4	41675	105,7
	Jami	381826	109,1	415293,87	108,8	434811	104,7	456779	105,1

2022-yilda O'zbekiston Respublikasi hududida jami yetishtirilgan ipak miqdori 434811 dona quti tashkil qilgan. Jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasida 15545,8 dona quti ipak yetishtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich Respublikada yetishtirilgan ipak miqdorining 3,6 %ini tashkil qiladi. Ushbu yilda ham Respublika hududida ipak yetishtirish bo'yicha Samarqand viloyatidan keyingi o'rinda Andijon viloyati yetakchilik qilgan (51797,7 dona quti), va ushbu ko'rsatkich jami yetishtirilgan ipak miqdorining %ini tashkil qiladi. Qolaversa, Buxoro viloyatida 46506,2 dona quti, Farg'ona viloyatida 40720,4 dona quti, Jizzax viloyatida 15432,2 dona quti, Samarqand viloyatida 51797,7 dona quti, Surxondaryo viloyatida 32346 dona quti, Sirdaryo viloyatida 13088,6 dona quti, Toshkent viloyatida 32899,9 dona quti, Xorazm viloyatida 39427,6 dona quti ipak yetishtirilgan. 2022-yilda 2021-yilga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasida 5,3%ga o'sgan, Andijon viloyatida 2,4%ga, Buxoro viloyatida 5,6%ga, Farg'ona viloyatida 4,6%ga, Jizzax viloyatida 5,9%ga, Namangan viloyatida 7,2%ga, Qashqadaryo viloyatida 1,9%ga, Surxondaryo viloyatida 4,8%ga, Toshkent viloyatida 8,7%ga, Xorazm viloyatida 6,4%ga oshgan. Jadvalni tahlil qilar ekanmiz yildan yilga Respublikada yetishtirilayotgan pilla miqdorining sezilarli darajada o'sib borayotganiga guvoh bo'lamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda pillachilik biznesining rivojlanishi avvalo, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy budjet daromadlarini kengaytirish, qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yangi turdagi mahsulotlar yaratilishi, bo'sh turgan yer va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan maksimal ishga solish, eksport salohiyatini oshirish, yashil makon umummilliy harakati maqsadlariga erishish imkoniyatlarini beradi.

Haqiqatan ham mamlakatimizning ipakchilik sanoati salohiyati nihoyatda yuqori. Bor kuch va imkoniyatlarni safarbar qilsak, qanchadan-qancha ish o'rinlari ochiladi. Yurtimizda olib borilayotgan shiddatli islohotlardan ko'zlangan maqsad ham shu – qaysi soha bo'lmasin, uni odamlar uchun muhim daromad manbaiga, iqtisoditimiz tayanchiga aylantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2020–2023-yil statistik byulletini.
2. Артикова С. Формирование и повышение эффективности регионального подкомплекса шелк АПК в Узбекистана в условиях перехода рыночным отношениям. и.ф.д., дисс. – Т., 1991.
3. O'roqov SH. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pillachilik tarmog'i rivojlanish istibollarini belgilash. i.f.n.diss. –T., 2005. – 14 b.
4. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2000. – с. 185. 5. <https://www.uzbekipaksanoat.uz>
6. N.Ahmedov. S.Navruzov "Ipak qurti urug'chiligi" – Toshkent "Vorishnashriyot" 2014. B.198.

ETNOGRAFIK TURIZMNI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJIRIBASI

orcid.org/0009-0006-1866-4456

I. Axmedov

I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmni rivojlantirishda etnografik turizmning tashkil etishning xorij tajribasidan foydalanish bilan bog'liq muammolar o'rganilgan. Etnografik turizmning o'ziga xos xususiyatlari, shakllari va turli xorij mamlakatlarida uni tashkil etishning tajribasi tahlil etilgan. Tuproqqal'a yodgorligining turizm jozibadorligi aniqlangan. Ushbu yodgorlik hududida etnografik turizm muzeyini tashkil etish asoslangan.

Kalit so'zlar: turizm, etno turizm, jozibadorlik, etnografik muzey, Tuproqqal'a yodgorligi.

Abstract: This article discusses the problems associated with the use of foreign experience in organizing ethnographic tourism in tourism development. The features, forms of ethnographic tourism and the experience of its organization in different foreign countries are analyzed. The tourist attractiveness of the Toprak-kala monument has been determined. It is justified to create a museum of ethnographic tourism on the territory of this monument.

Key words: tourism, ethnographic tourism, attractions, ethnographic museum, Toprak-kala settlement.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, связанные с использованием зарубежного опыта организации этнографического туризма в развитии туризма. Анализируются особенности, формы этнографического туризма и опыт его организации в разных зарубежных странах. Определена туристическая привлекательность памятника Топрак-кала. Обоснованно создание на территории этого памятника музей этнографического туризма.

Ключевые слова: туризм, этнографический туризм, достопримечательности, этнографический музей, городище Топрак-кала.

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekistonda etnografik turizm eng ommabop turizm turlaridan biridir. Mamlakatimizga kelayotgan sayyohlarning aksariyati mamlakat bilan tanishish maqsadida keladi. Albatta, turizm sanoati resurslari har bir davlatning milliy boyligi bo'lib, davlat mulki hisoblanadi. Biroq, ularning ba'zilar jahon ahamiyatiga molik obyektlar bo'lib, YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu ro'yxatga O'zbekistonning 4 ta shahri va 31 dan ortiq tarixiy maskanlari kiritilgan. O'zbekistonda 7000 dan ortiq tarixiy va go'zal tabiat-iqlim yodgorliklari mavjud. Ammo bugungi kunda ushbu turistik resurslarning faqat 1/3 qismi turizm uchun mavjud ^[1].

Sayyohlarni mamlakatimizga yuksak ma'naviyat va buyuk tarix o'ziga jalb qiladi. O'zbekiston xalqi qadimdan to hozirgi kungacha boy tarixga, ma'naviy qadriyatlarga, milliy urf-odatlariga ega bo'lib, ular asrlar davomida saqlanib, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Unda millatning orzu-umidlari, xalq yashayotgan tabiiy, geografik va ijtimoiy muhit, xalqning iste'dodi, mahorati, qobiliyati, etnik, etnogenezi va etnik o'ziga xosligi o'z ifodasini topgan. O'zbekiston ziyorat va tarixiy turizmdan tashqari, etnografik turizm uchun boy moddiy va nomoddiy resurslarga ega mamlakatdir.

"Etnografiya" atamasining ma'nosi – bu xalqlar va etnik guruhlarining madaniy rivojlanishidagi farqlarni o'rganish va tushuntirish, madaniyatning paydo bo'lishi va tanazzulga uchrashining sabablari va mexanizmlarini, xalqlar o'rtasidagi irqiy tafovutlarning sabablarini, etnik va ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarning o'rnatilishini aniqlashdir.

"Etnografik turizm" atamasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Etnografik turizm – turistlarning ma'lum bir etnik guruh madaniyatini, uning shakllanish bosqichlarini, etnogenezini va etnik guruhlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va rivojlantirish uchun sayohatidir". Etnografik turizm ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy



mavqening ko'plab sohalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni rivojlantirish va targ'ib qilishni talab qiladi. Turistlar etnografik tizimga ko'ra ma'lum bir davlatga kelganlarida, ular etnik madaniyatning rivojlanishi, uning shakllanish bosqichlari, etnogenezi va guruhlarining xususiyatlari bilan tanishadi, ular tarkibiga bevosita milliy taomlar, kiyim-kechak, raqslar va hokazolar kiradi. Shuningdek hunarmandchilik, marosim va an'analar, o'yinlar va me'morchilik namunalarini alohida ta'kidlash zarur [2].

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli Qarorida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda etnoturizm majmualarini tashkil qilish topshirig'i ketgan [3]. Yuqoridagi omillar tadqiqot mavzusining dolzarbligini aniqlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Etnik va etnografik turizm o'rtasidagi munosabatlarga turlicha qarashlar mavjud. Shunday qilib, Rossiyalik tadqiqotchi A.I. Shukin o'z dissertatsiya tadqiqotida ta'kidlaydiki, etnografik sayohatlarning asosiy ishtirokchilari etnografiya bilan professional ravishda shug'ullanadigan odamlardir. O'z navbatida, etnik turizm ishtirokchilari ma'naviy ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo'lgan turistlarning keng auditoriyasidir [4].

V.N. Presnyakov va M.A. Julin etnik va etnografik turizmni sinonim deb hisoblaydi [5]. Sobiq ittifoq davrida "Etnik turizm" atamasi ishlatilmagan ("Etnografiya" fani bilan bog'liq) "Etnografik" turizm tushunchasi hali ham ilmiy doirada qo'llaniladi. Chet el adabiyotida V.Smit etnik turizmni madaniy-tarixiy turizmdan ajratadi [6].

So'nggi paytlarda odamlar etnik-madaniy, djayloo va antropologik turizm haqida gapira boshladilar, aborigen turizmi ikkinchisi bilan umumiy bog'liqdir. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda etnoturizmga yaqin tushuncha "madaniy turizm" ("cultural heritage tourism", "heritage tourism" yoki "diaspora tourism") keng uchraydi.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Milliy tarixiy asarlarni saqlash jamg'armasi madaniy turizmni "tarixiy joylarga tashrif buyurish va insoniyat tarixini aks ettiruvchi obyektlarni ko'rish" deb ta'riflaydi [7]. Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylar bo'yicha xalqaro kengash (ICOMOS) madaniy turizmni "turizmning maxsus turi", deb ta'riflaydi, uning maqsadi (ko'p boshqa maqsadlar qatorida) yodgorliklar va obidalarni kashf etishdir [8].

Etnoturizmga eng yaqin tushunchani, bizningcha, etnomadaniy turizm deb hisoblash mumkin – bu tushuncha mahalliy adabiyotlarda tez-tez uchramaydi [9, 10]. Rossiyalik tadqiqotchi A.G. Butuzovga ko'ra etnomadaniy turizmga etnografik, antropologik, etnik, sog'inch turizmi kiradi [10].

Professor A. Eshtayevning tadqiqotlarida etnografik turizmning maqsadi ma'lum bir hududda hozir yoki doimo yashovchi muayyan xalq (ethnos)ning madaniyat, me'morchiligi, hayoti bilan tanishish uchun etnografik obyektga tashrif buyurishdir. Etnografik turizm mamlakatning tabiiy, tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylashning samarali vositasidir. Etnografik turizm - bu hududlarga tashrif buyurish bilan bog'liq madaniy-ma'rifiy turizm turi bo'lib, an'anaviy turmush tarzi keng tarqalgan. Etnik guruhlarining an'anaviy madaniyatini o'rganish va tanishtirish maqsadida sayohat qilishni o'z ichiga olgan xalqlar hayoti, so'ngra an'anaviy xo'jalik shakllariga ega bo'lgan hududlarga o'rganish, hududning etnografik merosini saqlashda, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga, mahalliy qonunlarga va mintaqaviy urf-odatlariga rioya qilish mazkur turizm turining asosi hisoblanadi [11].

Etnografik turizmning asosiy resursi xalqlarning madaniy-tarixiy merosi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojatnomasida belgilab berilgan muhim vazifalardan kelib chiqqan holda tadqiqot muammosi tanlangan. Tadqiqotning induksion yo'nalishi tanlangan bo'lib, ilmiy bilishning iqtisodiy tahlil, mantiqiylik, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash usullarilar orqali tadqiqot muammosi ochib berilgan. Xorijlik va yurtimiz olimlarining ilmiy ishlari tadqiqotning nazariy va metodologik asoslarini tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Etnografik turizm dunyoning turli xalqlari, ya'ni etnik xalqlarning madaniy va maishiy xususiyatlarini o'rganadigan fan bo'lib, bu holda turist bu xususiyatlar bilan bevosita tanishadi va ma'lum darajada ularni o'rganadi.

Etnografik turizm hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar uchun jozibador bo'lgan madaniy-ma'rifiy va ziyorat turizmining yo'nalishlaridan biridir. Jahon amaliyoti turizmning bu turi insonning butun ma'naviy ehtiyojlarini qondira olishini isbotlaydi. O'zbekiston ulkan sayyohlik salohiyatiga ega. Mamlakat haqli ravishda nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Qadimda Xitoy, Yevropa mamlakatlari bilan bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'li o'tgan sayyohlar uchun eng jozibador shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon va Termizlarda turli tarixiy davrlarga oid ko'plab me'moriy yodgorliklar mavjud.



O'zbekistonning qadimiy shaharlarida zamonaviy me'morchilik o'tgan asrlardagi milliy me'morchilik yodgorliklari bilan yonma-yon yashaydi. O'zbekistonda ko'plab xorijiy mehmonlarni jalb qilish uchun boshqa resurslar ham mavjud: cho'l va qo'riqxonalar, turli xil hayvonlar va o'simliklarga boy; faol turizmni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan tog' cho'qqilari va daryolar; shifobaxsh suvli mineral buloqlar; amaliy san'at an'analari va o'ziga xos madaniyatni faqat O'zbekistonda uchratish mumkin.

Turistik marshrutlarda ishtirok etuvchi etnografik meros quyidagi turlar bilan ifodalanadi: birinchidan, bu muayyan xalqlarning an'anaviy madaniyati va turmushi xususiyatlarini saqlab qolgan mavjud aholi punktlariga borishdir. O'zbekistonning har bir viloyati, xoh u voha bo'lsin, xoh vodiy bo'lsin, o'ziga xos qiyofa, boy madaniy merosga ega. Tarixiy rivojlanish jarayonida har bir aholi punkti mintaqaning milliy va tabiiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos madaniyati, turli xil uy-joy shakllari, marosimlari va an'analari bilan o'ziga xos me'moriy uslubni ishlab chiqdi.

Ikkinchidan, etnografik turizmga xalq hayoti muzeylari bilan tanishish kiradi. Muzey ko'rgazmalarida ayrim hududlar aholisiga xos bo'lgan xalq liboslari, dehqon hayoti va xalq amaliy san'ati buyumlari to'plamlari mavjud. Ular sayyohlarni tarixiy o'tmish bilan tanishtiradi. Etnografik turizm tufayli an'anaviy uy-joy va xo'jalik binolarini, mahalliy aholini milliy liboslarda ko'rish, shuningdek, an'anaviy bayramlarda qatnashish, milliy taomlardan tatib ko'rish va an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlarini esdalik sovg'alari sifatida xarid qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Chet elda etnoturizmni tashkil etishda katta tajriba to'plangan, uni o'rganish biz uchun ayniqsa muhim ko'rinadi, chunki bu turizmning ushbu turini tashkil etishda muqobil yechimlarni izlashga yordam beradi. Etnoturizm yo'nalishlari bo'yicha yetakchilar qatorida Avstraliya, Kanada, Nepal, Ekvador va boshqalar bor. Ba'zi bir misollarni ko'rib chiqaylik.

Ekvador yerning ikki yarim sharida joylashgan va sayyoradagi eng keskin iqlim farqlariga ega. Tashqi dunyodan ajralganlik bu yerda etnoturizmning rivojlanishi uchun o'ziga xos zamin yaratdi. Ekvador turizm qo'llanmalarida mahalliy oilalarda yashash, tropik o'rmonlar bo'ylab sayohatlar va mahalliy aholi madaniyati bilan tanishish bilan etno-turlarni taklif qiluvchi 40 dan ortiq sayyohlik agentliklari haqida ma'lumotlar mavjud. Ushbu jamoat korxonalari aborigen tashkilotlari, mahalliy tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari va bir qator sayyohlik agentliklari ko'magida yaratilgan. Kompaniyalar ovchilikni nazorat qiluvchi va ovchilik va dehqonchilik taqiqlangan yerlarida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni yaratishda ishtirok etadigan mahalliy aholi guruhlar tomonidan boshqariladi.

Ekvadorning tub aholisi 80-yillarning boshlarida. Iqtisodiy inqiroz mahalliy hamjamiyatni o'z tirikchiligini ta'minlash uchun qo'shimcha faoliyatni izlashga majbur qildi: dorivor o'simliklar, yog'och bo'lmagan o'rmon mahsulotlarini yig'ish va sotish va hokazo. Ammo bu variantlarning barchasi ekologik barqarorlik mezonlariga javob bermadi va ulardan voz kechishga to'g'ri keldi. Yagona istiqbolli tashabbus etnoturizmni rivojlantirish edi. Mahalliy aholi bu hududda sayohat qilayotgan havaskor sayyohlarga kanoyeda sayohatlarni taklif qila boshladi. Eng boshidan ma'lum bo'ldiki, madaniy xususiyatlar tashrif buyuruvchilarni tabiiydan kam emas, balki qiziqtiradi, shuning uchun sayohatlarni rejalashtirishda etnografik jihatlar alohida e'tibor qaratilgan. Asta-sekin turizm hajmi oshdi, infratuzilma rivojlandi: sayyohlar uchun oddiy uylar, shuningdek, kichik etno-muzey qurildi.

Turizmni rivojlantirishni rejalashtirishda rayonlashtirish prinsipi keng qo'llanilgan: turistik tabiat yo'llari tarmog'i bo'lgan hududlar (mahalliy gidlar tomonidan ekskursiyalar o'tkaziladi), shuningdek, qat'iy muhofaza qilinadigan zonalar va an'anaviy ov zonalar (faqat mahalliy aholi uchun) ajratildi.

Kanadada ham bu borada katta tajriba to'plangan. Kanada bu borada ko'plab madaniy yo'nalishlarni bir-lashtiradi: hind marosimlari, Osiyo va Lotin Amerikasidan kelgan muhojirlarning ta'siri, birinchi yevropalik ko'chmanchilarning an'analari. Kanada o'zining yovvoyi tabiati va noyob aborigen madaniyati bilan o'ziga xos joziba bag'ishlaydi: aholining 2 foizini hindular va inuitlar (eskimoslar) tashkil etadi, ularning madaniyati etnoturizm rivojlanishi uchun asos yaratadi.

Ottava markazida yil davomida tashrif buyuruvchilar uchun ochiq bo'lgan etno-qishloq mavjud. Bu yerda tub aholining hayoti, turli turar-joylar, kanoye va qayin po'stlog'i yasashda qo'llanilgan qadimiy texnologiya va asboblari, terinidan savat yasash bilan tanishish uchun bir yoki bir nechta tadbirlarni (ekskursiyalarni) tan-lashingiz mumkin. Etnoqishloqda har yili qadimiy afsonalar syujeti asosida yangi teatrlashtirilgan spektakl nam-oyish etilmoqda. Qishloqdagi milliy kafeda an'anaviy aborigen taomlari menyusi mavjud.

Milliy bog' ma'muriyatlari va mahalliy aholi o'rtasidagi hamkorlik bir qator yangi muhofaza etiladigan hududlarni yaratishda muhim rol o'ynadi. Kanadadagi parklarning taxminan uchdan birida aborigen a'zolari o'z ichiga olgan boshqaruv kengashi mavjud. Mahalliy aholi qo'riqlanadigan hududlarga tashrif buyuruvchilarga turizm va ekskursiya xizmatlarini tashkil etish va ko'rsatishda faol ishtirok etmoqda.

Avstraliya millionlab yillar oldin quruqlikning qolgan qismidan ajratilgan sayyoradagi eng kichik qit'adir. Bunday izolyatsiya uning tabiatiga juda ko'p sonli noyob o'simlik va hayvonlar turlarini, shuningdek, o'ziga xos etnik guruhni saqlab qolish imkonini berdi, bu etnografik turizmni rivojlantirish uchun asos yaratdi.

Avstraliyadagi etnografik turizmga qayiq, madaniy va ekologik (yovvoyi tabiat) sayohatlar kiradi. Ushbu sayohatlar mahalliy aholi yerlarida, milliy bog'larda va an'anaviy qabila yerlarida bo'lib o'tadi. Mahalliy aholiga



tegishli bo'lgan turizm korxonalari madaniy va tabiiy xilma-xillikni saqlab qolish, shu bilan birga mahalliy tub aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatiga ega. Bunday etnografik turizm barcha talablarga javob beradi, resurslardan barqaror foydalanishni ta'minlaydi va ta'lim funksiyalarini bajaradi. Unda yirik yer egalari ham, mahalliy aholi ham ishtirok etadi. Etnoturizmni rivojlantirishda hukumat muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi tajribalarga tayanib Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida "Tuproqqal'a etno-muzeyi"ni tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblaymiz.

Ma'lumki, Ellikqal'a tumanidagi "Tuproqqal'a" yodgorligi miloddan avvalgi I-IV va VI asrlarga tegishli bo'lib, u 1938 yil rus tadqiqotchisi S.P.Tolstov ekspeditsiyasi tomonidan kashf etilgan.

Tuproqqal'a sahni to'g'ri to'rt burchak shaklida bo'lib, 17,5 ga yer maydoni teng. Unda 2000-2500 kishi istiqomat qilgan. Shahar gumbazsimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan.

Shaharning ichida joylashgan xonadonlarning orasidagi yo'laklar juda tor bo'lib, g'ishtlarga tushirilgan tamg'alar orqali yashagan jamoalarning qaysi uruqqa mansubligini aniqlash mumkin bo'lgan.

Hayratlanarlisi shuki, tashqi devorlarning qalinligi 7-9 metrga teng. Shaharni arxeologik qazish jarayonida 100ga yaqin turar joy va sakkizta saroy aniqlangan. Zallar bo'rtna naqshlar va rangli xaykallar bilan jihozlangan.

"Tuproqqal'a" eramizning I-IV asrlarida Xorazm davlatining poytaxti hisoblangan. Shahar tarixi hamon o'rganilmoqda. Arxeologik yodgorlikka chiqish uchun zinapoyalar barpo etilgan. Chunki, loysimon yo'laklar ko'tarilishga noqulayliklar tug'dirgan.

Vaholanki, Tuproqqal'a nafaqat o'zining g'aroyib me'morchiligi, balki qadimiy Xorazm yozuvining noyob topilmalari bilan ham mashhur. Saroyning janubi-sharqiy qismidagi to'rtta xonadan qadimgi xorazm tilida yozilgan hujjatlar topilgan. Qora siyoh bilan yog'och lavhalar va charm varaqlarga yozilgan jami 116 ta hujjat topildi. Yog'ochdagi hujjatlar va o'n sakkiztasi juda yaxshi saqlangan. Hujjatlar hali to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, ularning tabiati allaqachon aniqlangan. Bular saroy arxividan olingan iqtisodiy hujjatlardir. Topilgan hujjatlardan uchta aniq sanaga ega – 207, 231 va 232-yillar.

Podshohlar saroyidan topilgan topilmalar orasida arxivdan tashqari haykaltaroshlik va rasmlar ham katta qiziqish uyg'otadi. Tuproqqal'a "Qadimgi Xorazm tasviriy san'ati muzeyi" deb bejiz atalmagan. Bu Xorazmning to'liq qazilgan yagona me'moriy yodgorligidir. Uning katta-kichikligi va me'moriy dizayni dahosi Tuproqqal'ani Xorazmning eng noyob yodgorliklaridan biriga aylantiradi.

Saroy alohida e'tiborga loyiqdir. Uning qanchalik ulug'vor va hashamatli yekanligini tasavvur qilish qiyin emas, chunki uning balandligi 40 metrga yetib, haykaltaroshlik va rasmlar bilan bezatilgan 150 xonali saroydan iborat. Qazishmalar davomida olimlar Tuproqqal'aning qiziqarli tafsilotiga e'tibor berishdi: nafaqat saroy binolari, balki oddiy fuqarolarning turar-joy binolari ham ellinistik uslubdagi badiiy rasmlar bilan bezatilgan, bu qadimiy shaharning yuksak madaniyatidan dalolat beradi.

Qal'a uch qavatdan iborat edi. Uning xonalarida juda ko'p qoldiqlar topilgan: oziq-ovqat qoldiqlari (suyaklar, urug'lar) dan idishlarning bo'laklari va butun qismlarigacha, turli xil idishlar, zargarlik buyumlari, haykallar (eng mashhur haykallardan biri - Ruhoniy haykali), rasmlar va hatto qadimgi Xorazm yozuvlari ham.

Hashamatli saroyning markazi, albatta, monumental devor rasmlari va antiqa bezaklar bilan bezatilgan taxt xonasi edi. "Qirollar zali"da kech ellinistik san'atning haykallari, juda real yuzlari bo'lgan turli xil portretlar va haykallar topilgan.

Tuproqqal'a qo'rg'onidagi qazishmalar shov-shuvga sabab bo'ldi va juda ko'p qiziqarli materiallarni berdi, bu bizga shahar Qadimgi Xorazmning ilg'or poytaxti bo'lganligi, bu zaminda qadimiy madaniyat gullab-yashnaganligi haqida xulosa chiqarish imkonini berdi. Ko'chalar va binolar shu qadar yaxshi ishlenganki, Tuproqqal'ani geometriya shohligi deb atash mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar mamlakatimizda ilk marta etnoturizmni rivojlantirish, qadimda yashagan mahalliy xalq etnografik madaniyati boyliklarini turizm mahsuloti sifatida targ'ib qilish orqali saqlab qolish, kelajak avlodlarga yetkazib berish hisoblanadi. Tumanda etnografik turizmni shakllantirishning o'ziga xosligi shundaki, hududdagi mavjud resurslar etno-muzey tashkil qilish imkonini beradi. Mavjud resurslarni hisobga olish va tahlil qilish, Qoraqalpog'iston hududida sayyohlik biznesini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi^[1]. Muzey turistlarni jalb qiluvchi va ularga xizmat ko'rsatishda ishtirok etuvchi barcha obyektlar turizm resurslarini qamrab oladi. Bunga tabiiy resurslar (tabiat yodgorliklari, qo'riqxonalar, dam olish uchun landshaftlar) va madaniy (arxitektura yodgorliklari, muzeylar, teatrlar, mashhur kishilar hayoti bilan bog'liq joylar) kiradi. Mintaqaning turizmni, ayniqsa, ta'limni rivojlantirish istiqbollari madaniy va tarixiy resurslar: tarix va madaniyat yodgorliklarining mavjudligi bilan belgilanadi. Bunga xalqlarning urf-odatlar, qadriyatlar va turmush tarzi madaniyati ham kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, etnografik sayohatlarni rivojlantirish imkoniyatlari juda keng, ammo bugungi kunda O'zbekiston bo'ylab hali to'liq tadqiq etilmagan.

Shuni ta'kidlash lozim, Respublikamiz uchun yangi bo'lgan etnografik turizm allaqachon ommalashib bormoqda. Bunga nafaqat O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va boshqa qadimiy



shaharlari me'morchiligi, balki shu hududda yashayotgan aholining turmush sharoiti ham asos bo'ladi. Turizmning bu turi sayyohlarning xalqlarning haqiqiy hayotiga, xalq an'analari, marosimlari, ijodi va madaniyati bilan yaqindan tanishishga bo'lgan qiziqishiga asoslanadi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, muallif etnografik turizm dasturlarida innovatsiyalarni qo'llash zarur deb hisoblaydi, ularni to'ldirilgan reallik, turizm industriyasining yangi namoyish obyektlari va texnologiyalari, xususan, o'ziga xos xususiyatlarga singib ketish imkoniyatiga ega bo'lgan restoran va mehmonxona etnik majmualari. Ya'ni etnik guruhning "tirik tarix" elementlari orqali bilan to'ldirish kerak. Turistlarning turli millatlarning etnik xususiyatlarini bilish ularning an'analari, turmushi va madaniyatini solishtirish orqali ularning qanchalik xilma-xillikning kengligi haqida tushuncha beradi. Bu dunyoning xilma-xilligi etnik guruhning barcha madaniyatlarning shunday tushunarsiz xilma-xilligi va ko'p ma'noliligida ekanligi haqida tushuncha hosil qiladi. Binobarin, madaniy meros saqlanib qoladigan va zararsiz foydalaniladigan dunyo etnografik turizmning asosiy maqsadi hisoblanadi. Etnik dasturlarni ishlab chiqishda qo'shimcha komponentlar qishloq aholi punktlarida ham, stilize qilingan majmualarda ham turistlarni qabul qilish uchun sharoitlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi; mahalliy aholi tomonidan saqlanib qolgan turli bayramlar bilan bog'liq turli tadbirlar. Kelajakda O'zbekistonning barcha hududlarida etnoturizmning genealogik va etnografik turlari - aborigen, antropologik, djayloo turizmi kabi kichik turlarining xususiyatlarini o'rganish va rivojlantirish mumkin.

Aholi punktlarida turizmning etnografik yo'nalishini ishlab chiqishda ehtiyot bo'lish va sayyohlar qabul qilinadigan qishloqlarda o'rnatilgan an'anaviy turmush tarzini buzmaslikka harakat qilish kerak. "Mehmonxonadagidek" qulaylik va xizmat ko'rsatishga intilish, kafe va restoranlarning ochilishi qishloqdagi ma'naviy muhitga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi, ham o'zaro uyg'unlikka intilayotgan xorijlik sayyohlarni qaytarishi mumkin. Faqat mahalliy sayyohlarga e'tibor qaratib, qisqa muddatli foyda ko'rishga yo'l qo'ymaslik, balki turli guruhlarni jalb etadigan, uzoq muddatli va barqaror model yaratish ustida ishlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М. Р. Болтабаев, И. С. Тухлиев, Б.Сафаров, С. А. Абдухамидов Туризм: теория и практика. – Т.: Fan va texnologiya, 2018, 400 с.
2. Киличова, О. З. Актуальность и пути развития этнографического туризма в Узбекистане / О. З. Киличова, Ш. Б. Гаффаров. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2020. – № 13 (303). – С. 111-113. – URL: <https://moluch.ru/archive/303/68345/> (дата обращения: 28.06.2024).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238 sonli qarori. // <https://lex.uz/docs/6549286>
4. Щукин, А.И. Предпосылки и факторы развития этнического туризма на СевероМЗападе Российской Федерации: автореф. дис. ... канд. геогр. наук / А.И. Щукин. – СПбГУ, СПб., 2002. – 22 с.
5. Пресняков, В.Н. Народные промыслы республики Мордовия и этнический туризм / В.Н. Пресняков, М.А. Жулина // География и туризм. Сборник научных трудов. – Пермь, 2010. – С. 156–166
6. Smith V. Hosts and Guests / University of Pennsylvania Press. – Philadelphia, 1977
7. Heritage Tourism[Electronic resource]//National Trust for Historic Preservation[Officialwebsite].URL:http://www.preservationnation.org/information/Mcenter/economics/MofMrevitalization/heritageMtourism/#.Uu85ePI_unJ
8. Charter of Cultural Tourism [Electronic resource] // ICOMOS International Scientific Committee on Cultural Tourism [Official website]. URL: http://www.icomos.org/tourism/tourism_charter.html
9. Бутузов, А. Г. Состояние и перспективы развития этнокультурного туризма в Российской Федерации / А.Г.Бутузов // Сервис в России и за рубежом. – 2009. – №4. – С. 11–15.
10. Курдюков В. Н., Перспективы развития этнокультурного туризма Байкальского региона / В.Н. Курдюков // Известия Иркутского государственного университета. Серия "Науки о Земле" 2011. Т. 4. – №2. – С. 151–160.
11. Eshtayev A. Tuproqqal'a tarixiy etno-muzeyini tashkil qilish istiqbollari / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. - 1/2024, yanvar-fevral (№ 00069). 225-229 bet.



XIZMATLAR SOHASINING MILLIY IQTISODIYOTDAGI ROLINI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

ORCID-0009-0005-4304-5801

Xusanov Murodjon Sunnatullayevich

Qo'qon universiteti Exam Control departamenti boshlig'i,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi rolining tahlil qilish, xizmatlar sohasida hajm yaratuvchi hamda mazkur sohada faoliyat yurituvchi subyektlarning tahlili, O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanib borish dinamikasi va tendensiyalari tahlili ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, iqtisodiy-statistik tahlil, xizmat ko'rsatish sohasi, xizmatlar turlari, xizmatlar sohasini rivojlantirish, moliyaviy xizmatlar tahlili, tamoyil.

Abstract: This article shows the analysis of the role of the service sector in the national economy, the analysis of the entities that create volume in the service sector and those operating in this sector, the analysis of the dynamics and trends of the development of the service sector in Uzbekistan.

Key words: national economy, economic-statistical analysis, service sector, types of services, development of the service sector, analysis of financial services, principle.

Аннотация: В данной статье представлен анализ роли сферы услуг в национальной экономике, анализ субъектов, создающих объём в сфере услуг и осуществляющих деятельность в этой сфере, анализ динамики и тенденций развития сферы услуг. сфера услуг в Узбекистане.

Ключевые слова: национальная экономика, экономико-статистический анализ, сфера услуг, виды услуг, развитие сферы услуг, анализ финансовых услуг, принцип.

KIRISH

Xizmat sohasining keng ko'lamligi nuqtai-nazaridan mazkur strategiyaning deyarli barcha ustuvor yo'nalishlaridagi chora-tadbirlarning ijrosi xizmatlar sohasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, pirovardida, bevosita yoki bilvosita uning rivojlanishiga olib keladi.

"O'zbekiston-2030 strategiyasi" doirasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish pirovardida, mamlakatimiz iqtisodiyotini xizmatlar sohasi bilan uzviy bog'liqlikda jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilishga erishiladi. Bir so'z bilan aytganda, "Halq manfaatlarini yo'lida xizmat qilish" tamoyili ostida har tomonlama rivojlantirishga zarur poaydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv jarayonlari, turli hil yangi chaqiriq va nomuvofiqliklar jahon, shu jumladan, mamlakatlar iqtisodiyotining transformatatsiyasi va diversifikatsiyasiga olib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ergashxodjayeva Sh.D., Yusupov M.A., Hakimov Z.A., Abduraxmanova M.M o'quv qo'llanmasida sanoat tovarlari va xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, mohiyati, tasnifi, maqsad va vaziflari bayon etilgan. Unda sanoat haridlari va xaridorlarning hulg-atvori, xoridor va sotuvchilarning o'zaro munosabatlari, sanoat bozorini segmentlash va pozitsiyalashtirish, yangi mahsulotni ishlab chiqish strategiyasi, sanoat tovarlari narxini shakllantirish strategiyasi, sanoat distributsiya strategiyasi, sanoat sotuvlarini boshqarish, xizmatlar sohasida kommunikatsiyalar va sanoat marketingida rejalashtirish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasi va uning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, servis sanoatida haridorlar risklari va haridorlar xulg-atvori, xizmatlar sohasida sifat va xizmat ko'rsatish standartlari, xizmatlarni taqdim etish jarayoni, servis xizmatlari mohiyati va ularni tasniflash, xizmatlarni taqsimlash kanallari, xizmatlar sohasi majmuida kommunikatsiya, xizmatlar sohasi korxonalarida ichki marketing hamda xizmatlar sohasida brend siyosati masalalariga katta e'tibor berilgan.

Skott Morrisonning ta'kidlashicha, Avstraliya iqtisodini "juda ko'nikib qolmasdan oldin" hukumat yordamidan "yo'l-yo'lakay olib tashlash" va "moliyaviy yordamlardan voz kechish" juda muhim deb ta'kidlaydi.



Bunga asosiy sabab xizmat ko'rsatish sohasida jadal rivojlanishdir. Chunki inson bor ekan unga moddiy va nomoddiy xizmatlar kerak. Xizmat ko'rsatishni biznes bilan chambarchas bog'liq deb biladi. O'z hukumatining kelgusi uch-besh yil ichida iqtisodiy o'sishni tiklash rejalarini haqida so'zlagan nutqida Morrison shunday dedi: "Biz o'z biznesimizga ushbu inqirozdan chiqish yo'lini topishga imkon berishimiz kerak. Bu esa biznesimizni tezlashtirishi mumkin bo'lgan narsalarga e'tibor qaratishni anglatadi" deb ta'kidlaydi.

Den Xertog daromad modeli va biznes hamkorlari bilan 4 o'lchovli modelni taqdim etadi. Ushbu 4 o'lchovli modelni "Zamonaviy xizmatlarning innovatsion asosi" maqolasida xizmat ko'rsatadigan mantiqni va zamonaviy ma'lumotlar va texnologiyaga asoslangan dunyoni ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi deb aytib o'tgan.

K.Xaksiver, B.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik "Upravleniya i organizatsiya v sferi uslug: teoriya i praktika" (Service management and Operation) Ushbu asarda servis iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanib borishi, xizmat ko'rsatish sohasida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish tizimi, uning usuli va vositalari, xizmat.

F.O. O'roqovning "Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ahamiyati va uning rivojlanishi" nomli asarida "Iqtisodiy sohada xizmatlar sohasining o'sishi bozor sharoitidagi, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni qabul qilish tezligi va material sarfining kamligi, bu qo'shilgan qiymatning oshishi va pirovardida yalpi ichki mahsulotning oshishiga olib keladigan muhim omillar bilan bog'liqdir".

O. Azimov va O. Tojiddinovlarning hammuallifligida "Xizmat ko'rsatish va servis sohasining rivoji aholining farovon hayoti ko'zgusi" nomli asarida "Iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va tarkibiy o'zgartirish bo'yicha aniq yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi", deya aytib o'tgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot davomida analiz va sintez, analitik tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanilgan. Tadqiqotimizda qiyosiy tahlil, analitik tahlil yo'nalishlari orqali muammoni chuqurroq o'rganishga harakat qilingan. Muammoni yechimiga olib boruvchi strategik yo'nalishlar belgilangan. Tadqiqot obyekti sifatida xizmat ko'rsatish sohasida tanlab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyoti xizmatlarga tobora ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda. Garchi eng rivojlangan davlatlar hanuzgacha "sanoatlashgan iqtisodiyot" deb atalsada, ularning barchasi xizmat ko'rsatish iqtisodiyotiga aylangan haqiqatdir. Bu esa, o'z navbatida, global iqtisodiyotning turli qismlari va alohida milliy iqtisodiyotlar o'rtasida mavjud bo'lgan muhim bog'liqliklarni yaqqol namoyon etadi. Demak xizmat ko'rsatish sohasi aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi va jamiyatda sodir bo'layotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qiladi, bu esa, o'z navbatida, masalaning dolzarbligi va ahamiyatini namoyon etadi. Buni mamlakatlarning iqtisodiyoti tarkibida ham ko'rish mumkin, ya'ni xizmat ko'rsatish sohasi mamlakatlar yalpi ichki mahsulotning asosiy manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushidan kelib chiqib, mamlakatning iqtisodiy tuzilishi va rivojlanishidagi farqlarni tahlil qilish mumkin. Demak, xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mumkin.


Jahon bankining 2022-yil hisobotiga ko'ra dunyo bo'yicha xizmatlarda qo'shilgan qiymatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'rtacha 62,6 %ga, bandlikdagi o'rni (jami band bo'lganlardagi ulushi) esa 49,7 %ga baho-moqda¹. Jumladan, Jahon bankining "World development indicators" axborot tizimida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi 1-rasmda, jahonda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotni shakllantirishdagi roli va bandlikni ta'minlashdagi o'rnini ko'rishimiz mumkin.

Ko'rishimiz mumkinki, rivojlangan davlatlarda xizmatlarning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi (67,8 %) o'rta rivojlangan (52,8 %) davlatlardan yuqori. Xizmatlarning bandlikdagi, ya'ni jami band bo'lganlardagi ulushi ham mos ravishda 75,2 % va 45,5 %ni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, mintaqalar bo'yicha raqamlarni tahlil qilsak, yuqori ulushlar Yevropa ittifoqi mintaqasiga to'g'ri kelib, xizmatlarning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 64,7 %ni, bandlikdagi, ya'ni jami band bo'lganlardagi ulushi 71,5 %ni tashkil etmoqda. Yevropa va Markaziy Osiyo (rivojlangan davlatlardan tashqari) mintaqasida mos ravishda 63,4 % va 68,1 %ga, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida nisbatan past ko'rsatkichlar, ya'ni mos ravishda 56,6 % va 48,6 %ga to'g'ri kelmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari kesimida solishtirilganda, yetakchilik Qozog'iston Respublikasiga tegishlidir. Xususan, Qozog'iston Respublikasida xizmatlarning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 52,6 %ni, bandlikdagi, ya'ni jami band bo'lganlardagi ulushi 65,6 %ni tashkil etmoqda.

¹ Jahon banki hisoboti: World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery // <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2022>.



1-rasm: Xizmatlarning yalpi ichki mahsulot va jami band bo'lganlardagi ulushi (2022-yil yakunlari, %da)²

Keyingi o'rinlarda Qirg'iz Respublikasi mos ravishda 52,4 % va 50,9 % bilan ikkinchi o'rinni egallamoqda. Turkmaniston esa xizmatlarning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi bo'yicha (51,2 %) uchinchi, bandlikdagi, ya'ni jami band bo'lganlardagi ulushi bo'yicha esa (43,6 %) to'rtinchi o'rinni egallamoqda.

O'zbekiston Respublikasi xizmatlarning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi bo'yicha to'rtinchi (41,6 %) va bandlikdagi, ya'ni jami band bo'lganlardagi ulushi bo'yicha (49,9 %) uchinchi o'rinda. So'nggi o'rinlarda Tojikiston Respublikasi bo'lib, xizmatlarning yalpi ichki mahsulot va jami band bo'lganlardagi ulushi mos ravishda 32,3 % va 35,7 % ni tashkil etmoqda.

O'z navbatida, xizmatlar sohasi nafaqat yalpi ichki mahsulot va bandlik ko'rsatkichlariga, balki, iqtisodiyotning qolgan barcha tarmoqlariga ham bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki, qaysi sohani ko'rmaylik, hoh u sanoat bo'lsin, hoh qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, qurilish, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm va boshqalar, ularning barqaror faoliyatida xizmatlar o'rni beqiyos.

Ayrim rivojlangan va rivojlanishning o'rta darajasidan yuqori bo'lgan davlatlar bilan O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsulotidagi tarmoqlarning ulushini solishtirib ko'rsak (1-jadval).

1-jadval: Bir guruh davlatlar bo'yicha yalpi ichki mahsulotidagi tarmoqlarning ulushi (%da)³

	Qishloq xo'jaligi			Sanoat			Xizmatlar		
	2002	2012	2022	2002	2012	2022	2002	2012	2022
Rivojlangan davlatlar									
AQSH	1,0	1,1	1,0	20,6	19,2	20,1	74,9	76,2	77,6
Buyuk Britaniya	0,9	0,6	0,8	21,3	18,3	16,7	67,8	70,4	72,2
Germaniya	0,9	0,9	0,9	26,4	27,3	26,7	63,1	61,7	62,7
Fransiya	2,0	1,6	1,9	20,6	17,9	16,8	67,4	70,3	70,7
Italiya	2,4	2,0	1,8	24,0	21,3	23,8	63,7	66,4	64,3
Yaponiya	1,4	1,1	0,9	30,2	26,6	26,2	68,3	71,7	69,9
Shvetsiya	1,9	1,5	1,5	25,6	23,0	24,0	61,2	64,2	63,6
Rivojlanishi o'rta darajadan yuqori bo'lgan davlatlar									
Livan	5,7	3,8	1,4	19,1	15,5	6,8	60,2	73,0	94,1
Qozog'iston	8,0	4,3	5,4	35,8	36,3	35,0	50,5	51,4	52,6
O'zbekiston	34,5	32,6	24,9	22,2	23,0	33,5	37,9	39,4	41,6

² Jahon bankining axborot tizimi: <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>.

³ Jahon bankining axborot tizimi: <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>.



Ko'rish mumkinki, mintaqalar bo'yicha yetakchilik iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mintaqasiga to'g'ri kelib, xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 70,1 %ni, Yevropa hududida esa bu ko'rsatkich 64,8 %ni tashkil etmoqda. Rivojlanish darajasidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, rivojlanishning o'rta darajasidan yuqori bo'lgan davlatlar guruhida bu ko'rsatkich 53,4 %ga, o'rta rivojlanish darajasida bo'lgan davlatlar guruhida 52,4 %ga va rivojlanishi ortda qolayotgan davlatlar guruhida 34,4 %ga to'g'ri kelmoqda. Umuman olganda, davlatlar kesimida Livan 94,1 % bilan yetakchilik qilmoqda. Luksemburg 80,4 % bilan top o'ntalikni yakunlamoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari 77,6 % bilan 16-o'rinni, Buyuk Britaniya 72,2 % bilan 26-o'rinni, Singapur 70,8 % bilan 28-o'rinni, Yaponiya 69,9 % bilan 31-o'rinni, MDH davlatlari orasida Ukraina 60,8 % bilan 71-o'rinni, Gruziya 59,6 % bilan 76-o'rinni, Qozog'iston 52,6 % bilan 117-o'rinni, Qirg'iz Respublikasi 52,4 % bilan 120-o'rinni, O'zbekiston esa 41,6 % bilan 170-o'rinni egallamoqda. Bu esa, ko'rsatkichlar davlatlarning rivojlanish darajasi bilan ularning yalpi hududiy mahsulotidagi xizmatlarning ulushi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Demak, xizmatlarning rivojlanishi va yalpi hududiy mahsulotidagi ulushining ortib borishi davlatning taraqqiyot darajasini ham ifodalab beradi. O'z navbatida, xizmatlar sohasiga chambarchas ravishda sanoat tarmog'i ham nisbatan barqaror rivojlanish tendensiyalarini saqlab qolmoqda. Demak, xizmatlar sohasining rivojlanib borishi, boshqa sohalarga ham muayyan darajada o'z ta'sirini ko'rsatib boradi.

Yuqoridagilar, fikrimizni tasdiqlaydi va dissertatsiya ishining dolzarbligini belgilab beradi. Shu o'rinda, uzoq vaqt davomida xizmat ko'rsatish sohasi dunyo iqtisodichilarida katta qiziqish uyg'otmadi va faqat so'nggi o'n yilliklarda yuzaga kelgan turli xil ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va yangilanishlar davrida ularning e'tiborini jalb qila boshladi. Asosiy e'tiborni esa, iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq bo'lgani holda, uning u yoki bu voqe'likka ta'sirining to'la o'rganilmanligi bo'ldi.

Umuman olganda, xizmatlar sohasi bo'yicha ko'plab xorijiy va milliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, tovar va xizmatlar bozorining o'ziga xos xususiyatlari va dastlabki qirralari A. Smit, D. Rikardo, J.B.Sey, K.Marks va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

J.B. Sey bozor muvozanatini ta'minlashda asosiy e'tiborni tovarni ayirboshlash masalalariga qaratgan. O'z navbatida, "bozor"ga birinchi ta'rifni A.Smit bergan. Chunki, bu tushuncha tovar va xizmatlar bozorining ilk ko'rinishi sifatida paydo bo'lgan. Ya'ni, bu "oldi-sotdi jarayoni shakli" bo'lib, boshqa ta'riflar shuning to'g'ri va asosli ekanligini isbotlagan. Bozorlar tovar va xizmatlar bozorining haqiqiy asosini tashkil etib, keyinchalik ularning klassik turlari shakllana boshlagan.

K.Marks va F.Engels o'z ishlarida xizmatlarga quyidagicha ta'rif berishgan: "xizmatlar – fuqarolarga, ularning nomoddiy ehtiyojlarini qondirish, masalan, ishchanligi va ruhiy sog'ligini saqlab turish uchun amalga oshiriladi".

Z.I. Belikina, D. Bell, T.D. Burmenko, F. Kotler, K. Lavlok, Ye.A. Razomasova, O.N. Balayeva, L. Demidova, B.A. Rayzberg kabi xorijiy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari xizmatlarning terminologik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Shu o'rinda, ularning aksariyati "xizmat" tushunchasini ushbu faoliyat turiga xos bo'lgan maxsus xususiyatlar yordamida ko'rib chiqadilar.

Katta Iqtisodiy Ensiklopediyada xizmatlarni "moddiy shaklga ega bo'lmagan, iste'mol qiymati, mehnatning moddiy mahsulotidan farqli o'laroq, amaldagi mehnatning foydali samarasida bo'lgan o'ziga xos mehnat mahsuloti", deb keltirib o'tiladi.

B.A. Rayzberg tahririyati ostida tayyorlangan yana bir ijtimoiy-iqtisodiy lug'atda "xizmatlar" narsa shaklida emas, balki faoliyat shaklida taqdim etiladigan imtiyozlar sifatida baholanadi.

Bu masalani o'rganishga mamlakatimiz olimlari ham katta hissa qo'shmoqdalar. Masalan, Z.G.Qudratov o'z asarlarida xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga qo'shayotgan munosib hissasini asoslagan va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish zaxiralarni aniqlab bergan.

D.M. Karimovanning tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va uni tartibga solish, shu - ningdek, barqaror rivojlanish va eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash masalalarini batafsil o'rganilgan.

Aholi ehtiyojlarini qondirishda tovar va xizmatlar bozorlarining o'ziga hos o'rnini inobatga olgan holda, mazkur masala aholining moddiy farovonligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lganligi uchun, har bir mamlakatda bunday ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni kengroq o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi tovar va xizmatlar bozorining shakllanishiga, bu bozorning taraqqiyot ettirishda turli yondashuv va qarashlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Professor Sh. Shodmonovning fikricha, obyektiga ko'ra sotiladigan va sotib olinadigan tovarlar va xizmat turlari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- iste'mol tovarlari va xizmatlar bozori;
- ishlab chiqarish vositalari bozori;



- ishchi kuchi (resurslar) bozori;
- valyuta bozorlari va fond birjalari;
- ilmiy-texnika kashfiyoti va innovatsion ishlanmalar bozori (intellektual salohiyat bozori).

Boshqa mualliflarning fikricha, xizmatlar sohasining o'ziga hosligi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha klassik turdagi erkin bozor, egiluvchanlik, kon'yunkturalik, bo'g'inlashtirilgan va mahalliy joylarga bog'langan kabi xususiyatlarga ega bo'lgan bozorlarga farqlanadi.

Biroq, bozorlarning faoliyatiga qarab, ularni boshqacha shaklda ham guruhlash, ya'ni, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida tovarning ishlatilish hususiyatiga ko'ra, quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin:

- a) ishlab chiqarish vositalari bozorlari;
- b) xalq iste'moli mollari bozorlari;
- d) xizmatlar bozori;
- e) uy-joy bozori va h.k.

Xizmatlar sohasining jadal rivojlanishining asosiy bosqichi, qo'l mehnatidan voz kechib ommaviy ravishda avtomatlashtirish jarayoniga o'tish davri bilan mos keladi. O'z navbatida, xizmatlar sektorining rivojlanganlik darajasi sanoatlashtirishdan keyingi bosqichdagi iqtisodiyotning shakllanganligidan dalolat beradi.

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasining faol rivojlanishi qator omillar ta'siri bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning asoslari sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- iste'mol doirasining kengayishi va murakkablashishi;
- ilmiy-texnikaviy taraqqiyot;
- iqtisodiy omillarning ta'siri;
- turli xizmat turlariga ehtiyojning ortishi;
- ijtimoiy-demografik omillarning ta'siri;
- bozor infratuzilmasining rivojlanishi;
- iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarning takomillashishi;
- raqamli iqtisodiyotning hayotimizga kirib kelishi va b.

Xizmat ko'rsatish tasnifi xususida fikr yuritilganda, shuni alohida ta'kidlash joizki, xizmatlar sohasining rivojlanganlik darajasiga ko'ra turli mamlakat va mintaqalarda xizmatlar turi va ularning tasniflagichlari son, sifat va tarkib jihatidan farq qiladi.

Shu bois, xizmatlarning xalqaro savdosini boshqarish va tartibga solish maqsadida Xalqaro Valyuta Jamg'armasi ularni ikki guruhga ajratadi⁴:

1. Oldi-sotdi qilinadigan xizmatlar.
2. Oldi-sotdi qilinmaydigan xizmatlar.

Shu o'rinda, xizmat ko'rsatish sifatiga ta'rif berishda iste'molchilarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ehtiyojlarini ham qondirishga e'tibor qaratish lozim. Agar ushbu nazariy xulosadan kelib chiqadigan bo'lsak, xizmat sifatiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: xizmat sifati deganda kam xarajatlar bilan tegishli darajada moddiy va ma'naviy jihatdan naf keltiradigan, jamiyatning (odamlar, korxonalar va davlatning) xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini to'laigicha yuqori saviyada qondirishga qaratilgan nuqsonsiz xizmatlar majmuasi tushuniladi.

Ushbu ta'rifda xizmat sifatini to'liq ifoda etish uchun tegishli jihatlar o'z o'rnini topgan. Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, mazkur ta'rifda xizmatning iste'molchilari o'z ifodasini topgan bo'lsa, ikkinchidan, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning to'laigicha yuqori saviyada qondirilishi lozimligi e'tirof etilgan. Uchinchidan, har qanday xizmat kam xarajatlar bilan amalga oshirilsa ushbu xizmatni taqdim etuvchi uchun samarali bo'ladi, ya'ni xarajatlar kamayadi, qo'shilgan qiymat oshishi mumkin, va eng avvalo, raqobatbardoshlik oshadi. Shu tufayli mazkur ta'rifda kam xarajatlar bilan tegishli darajada naf keltiradigan xususiyatlar majmuasi ham o'z

4 <https://www.imf.org/external/np/sta/itserv/methdev.htm>.

ifodasini topgan. Eng muhimi, “xizmat sifati” deganda nuqsonsiz xizmat tushuniladi. Ko‘rinib turibdiki, xizmat sifatiga berilgan mazkur ta’rif barcha jihatlarni qamrab olgan.

Ta’kidlash lozimki, xizmat ko‘rsatish sohasi odamlar hayotini yaxshilashga qaratilgan, bu esa benihoya keng qamrovli, tarmoqlari va ko‘lami juda keng jarayon. Ushbu soha odamlarga munosib sharoit yaratib berish bilan birga mamlakat yalpi ichki mahsulotida ham o‘zining sezilarli o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Aynan shuning uchun ham, hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarini hal etishda tovar va xizmatlar bozori alohida o‘rin tutmoqda.

Tovar va xizmatlar bozori, ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi, bir tomondan iste’molchilar, ya’ni aholi turmush darajasi va sifatini oshirishning muhim vositasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan ushbu tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi subyektlarning doimiy, uzluksiz faoliyat yuritishi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib beradi.

Xizmatlar bozorining farqlanadigan asosiy jihatlari quyidagilar:

- 1) xizmatlarni joylashtirishning qulayligi va osonligi;
- 2) rivojlangan bozor talablariga javob berishi va alohida yangi turdagi xizmat yo‘nalishlarini rivojlanib boshishi;
- 3) taraqqiyot va xizmatlarga bo‘lgan e’tiborning kengayishi;
- 4) aholi guruhlarining o‘zgarishlarga tez moslashuvchanligi;
- 5) yuqori foyda olish imkoniyati.

Xizmatlar sektori xalqaro va milliy miqyosda qo‘llaniladigan turli tasniflarga guruhlangan ko‘plab faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Xususan, Jahon savdo tashkiloti klassifikatsiyasiga ko‘ra 150 dan ziyod xizmat turlari 12 sektorga ajratiladi. Bular: ishbilarmonlik xizmatlari; aloqa xizmatlari; qurilish va unga bog‘liq muhandislik xizmatlar; tarqatish xizmatlari; ta’lim xizmatlari; atrof-muhitni himoya qilish bilan bog‘liq xizmatlar; moliyaviy xizmatlar; sog‘liqni saqlab ijtimoiy xizmatlar; turistik va u bilan bog‘liq xizmatlar; dam olish, madaniy va sport tadbirlarini tashkil etish xizmatlari; transport xizmatlari; ro‘yxatga kiritilmagan boshqa xizmatlar.

Bu kabi boshqa xalqaro klassifikatsiyalarni ham keltirib o‘tish mumkin, shu bilan birga, mamlakatlarning ham tashkiliy va boshqa o‘ziga hos jihatlardan kelib chiqib toifalashlarda farqlar kuzatilishi mumkin.

O‘zbekistonda ham xizmatlar sohasi rivojiga alohida e’tibor qaratilib, mamlakatning rivojlanish dasturlari, shuningdek, soha va yo‘nalishlarni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli dasturlarda ham xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish masalalariga alohida yondashilgan, mazkur dasturlardan kelib chiqib, tasniflash, xizmatlarning statistik hisobini yuritish bo‘yicha milliy-uslubiy amaliyot yo‘lga qo‘yilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-maydagi PQ-1754-sonli “2012–2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi va 2013-yil 17-apreldagi “2012–2016-yillarda qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1957-sonli qarorlari mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasining yanada rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib bergan.

Ma’lumki, xizmatlar sohasining rivojlanishida kichik biznesning hissasi ortishi servis va xizmatlar sohasi tarmoqlari rivojida muhim omillardan biriga aylandi. Bu sohada kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun kreditlash va imtiyozli soliqqa tortish biznesni rivojlantirish va xizmatlarni kengaytirish uchun rag‘bat bo‘ldi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida tadbirkorlikning ijobiy va yuqori bo‘lishi avvalo, tadbirkorlik faoliyati orqali tovar va xizmatlar bozorining yanada faollashayotganligi, uning talab va taklif asosida tartibda solinishi hamda bozor mexanizmining yaxshi tuzilganligidir.

Shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlik sohasining yetakchi o‘rinni egallashining asosiy sababi kasanachilik aloqalarining yaxshi rivojlanib borayotganligi, fermer va dehqon xo‘jaliklarining barqaror rivojlanayotganligi kabilardan iborat. Demak, yalpi ichki mahsulot tarkibida tadbirkorlikning ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, tovar va xizmatlar bozori faoliyatining rivojlanishiga shunchalik ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda tadbirkorlik shakllari bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tovar va xizmatlar bozorida o‘ziga xos o‘rinni egallab, chakana savdo aylanish hajmidagi hissasi yuqori salmoqqa egaligi bilan ajralib turadi.

Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i, respublika iqtisodiyotining yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega muhim manbalaridan biridir. Shuning uchun kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Buni raqamlarda ham ko‘rishimiz mumkin, masalan, xizmatlar sohasida kichik biznesning ulushi bugungi kunga kelib 49,4 %ni tashkil etmoqda⁵.

5 Statistika agentligi ma’lumotlari: <https://stat.uz/uz/>



2-rasm: Hududlarning mamlakat xizmatlar hajmini shakllantirishdagi o'ri (2023-yil yakunlari, jamiga nisbatan %da)⁶

Fikrimizcha, bu boradagi yutuqlar bilan birga bir qator kamchiliklar ham uchraydi, masalan nafaqat respublika, balki hududlar kesimida ham xizmat sohasining rivojlanish darajasida keskin tafovutlar kuzatiladi. Bunday tafovutlarni yuqoridagi 2-rasmda ham ko'rishimiz mumkin. Asosiy ulush Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelganligi (41,1 %) sababli boshqa hududlarning ulushi aks ettirilgan.

Shuningdek, aholiga turli-tuman xizmatlar ko'rsatish qishloq joylarida yaxshi yo'lga qo'yilmagan, demak mavjud imkoniyatlardan xali-xanuz to'la-to'kis foydalanilmagan. Qishloq aholisining tovarlar bilan ta'minlanish darajasi ham shahar aholisiga nisbatan ancha past. Bu esa kelajakda nafaqat shaharlarda, balki qishloq joylarida ham tovar va xizmatlar bozorini rivojlantirish samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Xizmatlar sohasidagi mazkur nomutanosibliklarni, ayniqsa shahar va qishloq joylarida bartaraf etish, barcha hududlarda barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va jadallashtirish, shu asosda mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyotida xizmat ko'rsatish sohasining o'ri va ahamiyatini oshirish maqsadida 2012–2016-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi qabul qilingan.

Mazkur dastur o'n uch turdagi: aloqa va axborotlashtirish, kompyuterda dasturlashtirish, moliya, transport, qurilish, texnologik uskunalar va qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanish, ta'lim va sog'liqni saqlash, turizm hamda maishiy xizmatlarni ustuvor yo'naltirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-dekabrda "2017–2019-yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarori sohada yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Mazkur dasturda 2020-yilga qadar yurtimizda yetishtirilgan paxta tolasini to'liq qayta ishlash, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport salohiyatini 2,7 barobardan ko'proqqa oshirish hamda ichki va tashqi bozorga yetkazib berish nazarda tutilgan. Bu esa, yengil sanoat tarmog'ining yangi raqobatbardosh qiyofasini yaratish va jahon savdo maydonlariga ishonchli kirib borish kafolatlarini ta'minlab bergan.

Tahlillarga ko'ra, mazkur dasturni hayotga joriy etilishi natijasida 2019-yilda ip-kalava eksporti (jami eksportda) 5,4 % bo'lgan bo'lsa, 2022-yil yakuni bilan 7,5 %ni tashkil etmoqda. Demak, yarim tayyor va tayyor, yuqori qiymatli mahsulotlarni eksport qilish masalasiga ustuvor vazifa sifatida qaralgan. Shuningdek, tayyor mahsulotlar ulushi umumiy ishlab chiqarishning 47 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 65,5 %ga, eksport tarkibidagi ulushini esa 41 %dan 70 %gacha yetganini ko'rishimiz mumkin⁷.

Bu borada yana bir muammoga e'tibor qaratmoqchimiz. Xizmatlar ko'rsatish sohasida aholining ish bilan bandligini ta'minlash, ayniqsa kasanachilikni rivojlantirish hisobiga mehnatga layoqatli qatlamning samarali bandligini ta'minlash masalalari.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yurtimizda yiliga 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj bo'lsa-da, o'tgan yili Bandlikka ko'maklashish markazlari atigi 248 ming kishini yoki 16,5 foizini ishga joylashtirgan. Buning asosiy sabablari ish faoliyatidagi eskirgan shakl va usullar hamda bandlik muammolarini hal etishdagi rasmiyatchilik bilan bog'liq. Ayniqsa, kasb-hunar kollejlari

⁶ Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi: <https://stat.uz/uz/>

⁷ Statistika agentligi ma'lumotlari: <https://stat.uz/uz/>



bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha uch tomonlama shartnomalarni amalga oshirish borasida ko'plab qo'shib yozish holatlari bartaraf etilmagan".

Bundan tashqari, sohaning dolzarbligidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham mazkur sohani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ya'ni, Harakatlar strategiyasining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" nomli uchinchi yo'nalishida xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish eng muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Undagi, "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish", deb nomlangan birinchi yo'nalish va "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" deb nomlangan ikkinchi yo'nalishdagi deyarli barcha islohotlar, shuningdek, qolgan uchta yo'nalishlarda ham muayyan faoliyat natijalari bevosita xizmatlar sohasini rivojlantirishga turtki bo'lib xizmat qiladi, ya'ni bu yo'nalishlardagi islohotlar xizmatlar sohasi bilan bog'liqlikda rivojlanib boradi.

Yuqoridagilarning barchasi, ushbu maqola mavzusi dolzarbligini yana bir bor asoslantiradi. Shak-shubhasiz, "O'zbekiston–2030 strategiyasi" doirasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish pirovardida, mamlakatimiz iqtisodiyotini xizmatlar sohasi bilan uzviy bog'liqlikda jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilishga erishiladi. Bir so'z bilan aytganda, "Halq manfaatlari yo'lida xizmat qilish" tamoyili ostida har tomonlama rivojlantirishga zarur poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-il 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston–2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/6600413>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi "2012–2016-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida”gi PQ-1754-son qarori // <https://lex.uz/docs/2011220>.
3. Jahon savdo va rivojlanish tashkilotining (YUNKTAD) 2021-yil uchun global sharhi // <https://etradeforall.org>.
4. Бегалов Б.А., Мамадалиев О.Т. Реформы в сфере статистики, результаты и перспективы развития, Статистика и Экономика. Научно-практический экспертный журнал. Москва, 2021; 18(1):4-13. <https://doi.org/10.21686/2500-3925-2021-1-4-13>.
5. Маркс К. Теория прибавочной стоимости, ч. 1, К. Маркс и Ф. Энгельс, Соч., изд. 2-е, т. 26, ч. 1, М., 1962, с.410.
6. Mamadaliyev O.T. "Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayon-larining statistik tadqiqi (Namangan viloyati misolida)" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent, 2023. 30-42 b.
7. Xusanov, M.C. (2024). Milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi rolining iqtisodiy-statistik tahlil qilish. Economics and Innovative Technologies, 12(2), 209-221.
8. Xusanov, M.C. (2024). Mamlakat iqtisodiyotida sog'liqni saqlash xizmatlari rolining iqtisodiy-statistik tahlil qilish. Akademicheskiye issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(12), 117-121.



IQTISODIY O'SISH TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI

Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li

PhD, O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy o'sish konsepsiyasi va uning antik davrdan hozirgi davrgacha bo'lgan evolyutsiyasini o'rganishga bag'ishlangan. Iqtisodiy o'sish – bu iqtisodiyotda tovar va xizmatlarning real ishlab chiqarish hajmini oshirish jarayoni, real YalM yoki YalMning foiz o'zgarishi bilan o'lchanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, real YalM, real YalM, antik davr, Platon, Aristotel, Qishloq xo'jaligi, savdo, urbanizatsiya, texnologik innovatsiyalar.

Abstract: The article is devoted to the study of the concept of economic growth and its evolution from antiquity to the present. Economic growth is thought to be the process of increasing real output of goods and services in an economy, measured by real GDP or percentage change in GDP.

Key words: economic growth, real GDP, real GDP, antiquity, Plato, Aristotle, Agriculture, trade, urbanization, technological innovation.

Аннотация: Статья посвящена исследованию понятия экономического роста и его эволюции от древности до современности. Считается, что экономический рост – это процесс увеличения реального производства товаров и услуг в экономике, измеряемый реальным ВВП или процентным изменением ВВП.

Ключевые слова: экономический рост, реальный ВВП, реальный ВВП, античность, Платон, Аристотель, Сельское хозяйство, торговля, урбанизация, технологические инновации.

KIRISH

Zamonaviy davrda, raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish va demografik o'zgarishlar taqdim etayotgan muammolar va imkoniyatlarga javob berish uchun iqtisodiy o'sish tadqiqotlari o'zgarib bormoqda. Zamonaviy olimlar raqamlashtirish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy omillarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ko'p qirrali ta'sirlarini o'rganmoqdalar, o'sishni rag'batlantirish uchun mutanosib va integratsiyalangan yondashuvlarni qo'llab-quvvatlamodalar.

Ushbu maqola iqtisodiy o'sish tafakkurining tarixiy va nazariy rivojlanishini sintez qilish, muhim hissalarini va davom etayotgan munozaralarni ta'kidlashga qaratilgan. Iqtisodiy o'sish nazariyasining o'tmishi va hozirgi holatini o'rganish orqali biz iqtisodiy farovonlikni oshiruvchi kuchlarni chuqurroq tushunishga va kelajakdagi siyosat va amaliyot uchun zarur bo'lgan xulosalarni chiqarishga intilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Antik davrda iqtisodiy o'sishga yordam bergan qishloq xo'jaligi, savdo, urbanizatsiya, texnologik innovatsiyalar, siyosiy barqarorlik va xalqaro munosabatlar kabi omillarga alohida e'tibor qaratilgan. XVIII-asrga o'tib, muallif Adam Smit va Tomas Maltusning hissalarini ta'kidlaydi, ularning faoliyati iqtisodiy o'sishni tizimli o'rganishga asos solgan. Smitning erkin bozor va mehnat taqsimotining roli haqidagi qarashlari o'sishning demografik chegaralari haqidagi Maltusning pessimistik g'oyalariga ziddir.

Maqolada, shuningdek, XIX-XX-asrlarda iqtisodiy o'sish nazariyasining rivojlanishi ko'rib chiqilib, Jon Styuart Mill, Devid Rikardo, Alfred Marshall, Robert Solou va Jozef Shumpeterlarning faoliyatiga e'tibor qaratiladi. Neoklassik nazariyaga, Kobb-Duglas modeliga va institutsional iqtisodga alohida e'tibor qaratiladi, kapital, innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot va institutsional omillarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganadi.

Maqolada keltirilgan zamonaviy tadqiqotlar raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish va demografik o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini ta'kidlaydi. Raqamlashtirish, ekologik va ijtimoiy jihlatlar,



shuningdek, institutsional omillarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash bo'yicha yangi yondashuvlar o'rganilmoqda. Muallif iqtisodiy o'sish sohasidagi so'nggi yutuqlarni umumlashtirib, uni o'rganish va amalga oshirishda mutanosib va kompleks yondashuv zarurligini qayd etadi.

Iqtisodiy o'sish iqtisodiyot sohasida eng muhim mavzulardan biri bo'lib, jamiyatlarning turmush darajasini va umumiy farovonligini oshirishga bo'lgan intilishlarini aks ettiradi.

Antik davr iqtisodiy tafakkurning asoslarini yaratdi, Platon va Aristotel kabi shaxslar adolat, boylik taqsimoti va jamiyat farovonligini oshirish omillari haqida mulohaza yuritishdi. Ushbu dastlabki tushunchalar iqtisodiy hodisalarni keyinchalik tizimli tahlil qilishga asos soldi. Tarix davomida, XVIII-asr muhim davr bo'lib, klassik iqtisodiyotning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Adam Smit va Tomas Maltus kabi faylasuflar iqtisodiy tizimlarning dinamikasi, bozorlarning roli va aholi o'sishining cheklovlari haqida inqilobiy g'oyalarni taqdim etdilar.

XIX-XX-asrlarda iqtisodiy o'sish nazariyasi sezilarli darajada rivojlandi. Jon Styuart Mill, Devid Rikardo, Alfred Marshall, Robert Solou va Jozef Shumpeter kabi iqtisodchilar ilgari surilgan g'oyalarga yangiliklar qo'shishdi, yangi o'zgaruvchilar va analitik ramkalarni kiritishdi. Neoklassik o'sish nazariyasining rivojlanishi, Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi va institutsional iqtisodiyot iqtisodiy kengayish mexanizmlarini chuqurroq tushurishga yordam berdi, kapital to'planishi, texnologik innovatsiyalar va institutsional tuzilmalarning ahamiyatini ta'kidladi.

Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi bo'yicha adabiyotlarni o'rganish quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: iqtisodiy o'sishning nazariy asoslari, tarixiy rivojlanish, klassik va neoklassik iqtisodiy maktablarning hissasi, shuningdek, zamonaviy yondashuvlar va tadqiqotlar.

Iqtisodiy o'sish nazariyalari bo'yicha eng muhim ishlardan biri Adam Smitning "Xalqlar boyligi" (1776) asaridir. Smit iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida mehnat taqsimoti, unumdorlik va erkin bozorlarni ta'kidlagan. U iqtisodiyotni tartibga soluvchi bozorning "ko'rinmas qo'li" tushunchasini ishlab chiqdi va bu orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga imkon beradigan shart-sharoitlarni izohladi.

Tomas Maltusning "Aholi to'g'risida esse" (1798) asari aholi o'sishining iqtisodiyotga ta'sirini o'rganib, o'sishning potentsial chegaralarini ta'kidlagan. Maltusning asarlari aholi va resurslarni boshqarish bo'yicha iqtisodiy siyosatga katta ta'sir ko'rsatdi.

Jon Styuart Millning "Siyosiy iqtisod tamoyillari" (1848) asarida iqtisodiy o'sish va daromadlarni taqsimlash masalalari ko'rib chiqilgan. Mill kapital, mehnat va jamg'armaning iqtisodiy o'sishdagi rolini ta'kidlab, iqtisodiy o'sish jarayonida ijtimoiy jihatlarning muhimligini e'tiborga olgan.

Devid Rikardoning "Siyosiy iqtisod va soliq tizimi asoslari" (1817) asarida qiymat nazariyasi va kapital jamg'arishning iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilgan. Rikardo ishlab chiqarish omillarining o'sishga ta'sirini tahlil qilib, iqtisodiy o'sishni tushinishda yangi yondashuvlar taklif qilgan.

Neoklassik iqtisodiy maktab vakillari Alfred Marshall va Robert Solou iqtisodiy o'sishning neoklassik nazariyasini ishlab chiqishda muhim hissa qo'shdilar. Marshallning "Iqtisodiyot tamoyillari" (1890) asarida talab va taklif tahlili, shuningdek, ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri o'rganilgan. Solou esa o'zining "Iqtisodiy o'sish nazariyasiga qo'shgan hissasi" (1956) asarida kapital to'planishi nazariyasini ishlab chiqib, iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida ko'rib chiqqan.

Duglas Nort va Daron Acemoglu kabi tadqiqotchilar institutsional omillarni, jumladan, huquqiy tizim, siyosiy barqarorlik va boshqaruv sifati kabi omillarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilganlar. Duglas Nort institutlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, samarali va yaxshi ishlaydigan institutlar iqtisodiy rag'batlarga yordam beradi, degan xulosaga kelgan. Daron Acemoglu va Jeyms Robinsonning "Nega Millatlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi?" (2012) asari esa siyosiy va institutsional omillarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini chuqur tahlil qiladi.

So'nggi tadqiqotlar raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siriga qaratilgan. Reza Sadatsar va uning hamkasblarining "Raqamlashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri: inklyuziv o'sish va mahsuldorlik o'rtasidagi bog'liqlik" (2021) tadqiqoti raqamlashtirish samaradorlikni oshirish va yangi bozorlarni rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatadi. Ivan Teylor va uning hamkasblarining "Iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish: Ekologik va ijtimoiy o'lchovlar integratsiyasi tahlili" (2023) tadqiqoti esa iqtisodiy o'sishni ekologik va ijtimoiy barqarorlik bilan bog'lashning muhimligini ta'kidlaydi.

Daniel Dekannning "Demografik o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri: aholining yosh tarkibi va bandlik o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili" (2023) tadqiqoti demografik o'zgarishlar, jumladan, aholining qarishi va ishchi kuchi tarkibining o'zgarishining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganadi. Bunday tadqiqotlar muvozanatli va samarali boshqaruv zarurligini ta'kidlaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot iqtisodiy o'sish tushunchasini o'rganish va uning rivojlanish tarixini tahlil qilish uchun adabiyotlarni ko'rib chiqishga asoslangan. Metodologiya quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:



Adabiyotlarni tanlashda iqtisodiy o'sish nazariyalari, tarixiy rivojlanish va zamonaviy tadqiqotlar bilan bog'liq ilmiy maqolalar, kitoblar va tadqiqotlar ko'rib chiqildi. Adam Smit, Tomas Maltus, Jon Styuart Mill, Devid Rikardo, Alfred Marshall, Robert Solou, Duglas Nort va Daron Acemoglu kabi muhim iqtisodchilar va tadqiqotchilarning asarlari tahlil qilindi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichida tanlangan adabiyotlar asosida iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixiga oid asosiy omillar, yondashuvlar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Har bir muhim nazariya va tadqiqotning asosiy g'oyalari va xulosalari ajratib ko'rsatildi.

Ushbu bosqichda klassik va neoklassik iqtisodiy maktablar, shuningdek, zamonaviy yondashuvlar va tadqiqotlar o'rtasidagi farqlar va umumiyliklar tahlil qilindi. Har bir yondashuvning iqtisodiy o'sish tushunchasiga qo'shgan hissasi va o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi.

Tahlil natijalariga asoslanib, iqtisodiy o'sish tushunchasining rivojlanishi va uning zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar bilan bog'liqligi bo'yicha xulosalar chiqarildi. Zamonaviy tadqiqotlar asosida iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omillar va yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Metodologiya orqali adabiyotlar tahlili va turli nazariyalar va tadqiqotlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tushunish imkonini beradi, bu esa iqtisodiy o'sish tushunchasini yanada kengroq va har tomonlama tahlil qilishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu maqolada iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi haqida keng qamrovli tahlil amalga oshirildi. Natijalar quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

- **Tarixiy Rivojlanish:** Antik va o'rta asrlarda iqtisodiy o'sish haqida to'g'ridan-to'g'ri nazariyalar mavjud bo'lmasa-da, qishloq xo'jaligi, savdo, va texnologik innovatsiyalar kabi omillar iqtisodiy faoliyatni rivojlantirgan. Misrda irrigatsiya tizimlaridan foydalanish, Nilometrlar orqali hosildorlikni oshirish va sharob hamda zaytun moyi savdosi antik davr iqtisodiyotining asosiy elementlari bo'lgan. Finikiyaliklar, yunonlar va rimliklar dengiz savdosini rivojlantirgan va lpak yo'li kabi karvon yo'llari orqali iqtisodiy farovonlikka hissa qo'shgan.
- **Klassik Iqtisodiyot Nazariyalari:** Adam Smit va Tomas Maltus iqtisodiy o'sish nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Smitning "Xalqlar boyligi" asarida erkin bozor va mehnat taqsimoti asosiy o'sish omillari sifatida ta'kidlangan. Maltus esa aholi o'sishining iqtisodiyotga ta'sirini o'rgangan va resurslar yetishmovchiligi haqida ogohlantirgan. Jon Styuart Mill iqtisodiy o'sishning ijtimoiy jihatlarni, jumladan, daromadlarni taqsimlash va ijtimoiy institutlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rganishga e'tibor qaratdi.
- **Neoklassik Iqtisodiyot Nazariyalari:** Alfred Marshall va Robert Solou kabi neoklassik iqtisodchilar iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni, jumladan, kapital to'planishi, texnologik taraqqiyot va innovatsiyalarni o'rganishdi. Solou kapital jamg'arishning mehnat unumdorligiga va YalMga ta'sirini chuqur tahlil qilgan.
- **Institutsional Yondashuv:** Duglas Nort va Daron Acemoglu kabi tadqiqotchilar iqtisodiy o'sish uchun samarali institutlarning muhimligini ta'kidladilar. Ular huquqiy tizim, siyosiy barqarorlik va boshqaruv sifatining iqtisodiy natijalarga ta'sirini o'rgandilar.
- **Zamonaviy Tadqiqotlar:** Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri va yangi bozorlarni rivojlantirish imkoniyatlari haqida yangi tadqiqotlar olib borilmoqda. Ekologik va ijtimoiy barqarorlik iqtisodiy o'sishning muhim jihatlari sifatida kiritilgan. Demografik o'zgarishlar, jumladan, aholining qarishi va ishchi kuchi tarkibining o'zgarishi, iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omillar sifatida o'rganilmoqda.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy o'sish tushunchasi vaqt o'tishi bilan kengayib, turli nazariyalar va yondashuvlarni o'z ichiga oldi. Tarixiy va zamonaviy omillarni, jumladan, texnologik innovatsiyalar, institutlarning roli va demografik o'zgarishlarni hisobga olgan holda iqtisodiy o'sishni chuqurroq tushunish mumkin bo'ldi. Zamonaviy tadqiqotlar iqtisodiy o'sishning kompleks va ko'p jihatli ekanligini, uni barqaror va muvozanatli rivojlanish bilan bog'lash zarurligini ta'kidlaydi.

Ushbu natijalar iqtisodiy o'sish tushunchasining rivojlanishi va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatini ochib beradi. Maqolada keltirilgan asosiy natijalar iqtisodiy o'sishni chuqurroq tushunishga yordam beradi va kelajakda bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar uchun mustahkam asos yaratadi.



Ushbu maqolada iqtisodiy o'sish tushunchasining rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar keng qamrovli tahlil qilindi. Muhokama bo'limida bu natijalar kontekstida muhim jihatlar, cheklovlar va kelajakdagi tadqiqotlar yo'nalishlari haqida fikr yuritamiz.

Tarixiy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ta'siri haqida fikr yuritish muhimdir. Misol uchun, antik va o'rta asrlarda qishloq xo'jaligi, savdo va texnologik innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omillari bo'lgan. Bu davrlardagi rivojlanish bugungi kunda ham iqtisodiy o'sish nazariyalari uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Klassik iqtisodchilar, jumladan, Adam Smit va Tomas Maltus tomonidan ta'kidlangan mehnat taqsimoti va resurslarning cheklanganligi kabi omillar hozirgi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ammo, zamonaviy texnologik taraqqiyot va globalizatsiya bu nazariyalarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Neoklassik iqtisodiyot nazariyalari, ayniqsa, Robert Solou tomonidan taklif qilingan o'sish modeli, iqtisodiy o'sishni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ammo, bu nazariyalar texnologik o'zgarishlarni ekzojen omil sifatida ko'rib chiqadi, bu esa ularning zamonaviy iqtisodiyotda cheklanganligini ko'rsatadi.

Kapital jamg'arish va texnologik innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiy o'sishning muhim jihatlari bo'lib qolmoqda, lekin ularni faqat neoklassik model orqali tushuntirish yetarli emas.

Duglas Nort va Daron Acemoglu kabi tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan institutsional yondashuvlar iqtisodiy o'sishda samarali institutlarning muhimligini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlari ko'rsatdi ki, huquqiy tizim, siyosiy barqarorlik va boshqaruv sifati iqtisodiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bu yondashuvlar zamonaviy iqtisodiyotda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda, chunki samarali institutlar iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar raqamli texnologiyalar va yangi bozorlarni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganmoqda. Bu o'zgarishlar iqtisodiy o'sishga yangi imkoniyatlar yaratmoqda, lekin bir vaqtning o'zida yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Ekologik va ijtimoiy barqarorlik masalalari iqtisodiy o'sishni barqaror rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy o'sish faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasligi, balki sifat jihatidan ham rivojlanishi zarur.

Demografik o'zgarishlar, jumladan, aholining qarishi va ishchi kuchi tarkibining o'zgarishi, iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida e'tiborga olinishi kerak.

Ushbu maqola iqtisodiy o'sish tushunchasini keng qamrovda tahlil qilgan bo'lsa-da, ayrim cheklovlarga ega. Masalan, ma'lumotlarning tarixiy davrlar orasidagi farqlari va zamonaviy davrga mos kelmasligi ba'zi nazariyalarning qo'llanish doirasini cheklaydi.

Kelajakdagi tadqiqotlar zamonaviy texnologik o'zgarishlar, globalizatsiya va ekologik barqarorlik masalalarini chuqurroq o'rganishi zarur. Shuningdek, iqtisodiy o'sishning turli davlatlar va mintaqalarga ta'sirini solishtirish ham muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Kitoblar

1. Ando, C. (2000). *Imperial Ideology and Provincial Loyalty in the Roman Empire*. University of California Press.
2. Bradley, K. R. (1994). *Slavery and Society at Rome*. Cambridge University Press.
3. Breasted, J. H. (1906). *Ancient Records of Egypt*. University of Chicago Press.
4. Camp, J. M. (1986). *The Athenian Agora: Excavations in the Heart of Classical Athens*. Thames & Hudson.
5. Garnsey, P., & Saller, R. (1987). *The Roman Empire: Economy, Society and Culture*. University of California Press.
6. Hansen, V. (2012). *The Silk Road: A New History*. Oxford University Press.
7. Markoe, G. E. (2000). *Phoenicians*. University of California Press.
8. Pleiner, R. (2000). *Iron in Archaeology: The European Bloomery Smelters*. Archeologicky Ustav Av Cr.
9. Wikander, O. (1988). *Handbook of Ancient Water Technology*. Brill.

Jurnallar

1. Adams, C. (2012). *Land Transport in Roman Egypt: A Study of Economics and Administration in a Roman Province*. Oxford University Press.
2. Ajemoğlu, D., & Robinson, J. (2012). *Nega millatlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi?*. Crown Publishing Group.
3. Mill, J. S. (1848). *Iqtisodiy siyosat prinsiplari*.
4. Marshall, A. (1890). *Iqtisodiyot ilmi prinsiplari*.
5. Maltus, T. (1798). *Aholi haqida tajriba*. Uchinchi nashr.
6. North, D. (1990). *Institutsional transformatsiya va iqtisodiy o'sish: to'liq nazariya izlab*. Cambridge University Press.
7. North, D. (2005). *Institutsiyalar, institutlar va iqtisodiy natija*. Cambridge University Press.
8. Ricardo, D. (1817). *Iqtisodiy siyosat va soliq tizimining asoslari*.
9. Sadatsar, R., Hassanzade, A., Shahbas, N. va boshq. (2021). "Raqamlashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri: inklyuziv o'sish va mahsuldorlik o'rtasidagi bog'liqlik". *Xalqaro iqtisodiy tahlil jurnali*.
10. Schumpeter, J. (1934). *Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi*.
11. Smith, A. (1776). *Xalqlar boyligi tabiatini va sabablarini tadqiq etish*. Beshinchi va oltinchi nashr kitoblari.



12. Solow, R. (1956). "Iqtisodiy o'sish nazariyasiga qo'shgan hisssasi." Iqtisodiyotning choraklik jurnali.
13. Solow, R. (1957). "Texnologik o'zgarishlar va umumiy ishlab chiqarish funksiyasi." Iqtisodiyot va statistika sharhi.
14. Taylor, I., McMillan, J. va boshq. (2023). "Iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish: ekologik va ijtimoiy jihatlarni integratsiyalash tahlili." Xalqaro iqtisodiy tahlil jurnali.
15. Farib, L., O'Connor, E., Day, T. va boshq. (2022). "Iqtisodiy o'sishda institutsional omillarning roli: o'tish davridagi mamlakatlar tajribasi." Xalqaro institutsional iqtisodiyot jurnali.
16. Dekan, D. (2023). "Demografik o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri: aholining yosh tarkibi va bandlik o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili." Xalqaro iqtisodiy tahlil jurnali.

Veb-saytlar

1. Mazkur maqolada veb-sayt manbalari ishlatilmagan.



IJTIMOY-IQTISODIY JARAYONLARNI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Qarshi filiali dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Annotatsiya: Bugungi iqtisodiyotni harakatlantiruvchi muhim dastaklardan biri – bu inson kapitali hisoblanadi. Inson kapitali sifatini yaxshilash va uni boyitish iqtisodiyotning har qaysi bo'g'inida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada inson kapitalining ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tutgan o'rni hamda bu sohalarini inson kapitali asosida rivojlantirish atroflicha o'rganiladi.

Kalit so'zlar: milliy inson kapitali, ta'lim tizimi, inson kapitaliga investitsiyalar, ta'lim sifati, tibbiyot xizmatlari, innovatsion iqtisodiyot, yalpi ichki mahsulot.

Abstract: Human capital is one of the important drivers of today's economy. Improving the quality of human capital and enriching it is important in every part of the economy. This article examines the role of human capital in the socio-economic sphere and the development of these spheres based on human capital.

Key words: national human capital, education system, investments in human capital, quality of education, medical services, innovative economy, gross domestic product.

Аннотация: Человеческий капитал является одним из важных драйверов современной экономики. Повышение качества человеческого капитала и его обогащение важно во всех сферах экономики. В данной статье рассматривается роль человеческого капитала в социально-экономической сфере и развитие этих сфер на основе человеческого капитала.

Ключевые слова: национальный человеческий капитал, система образования, инвестиции в человеческий капитал, качество образования, медицинские услуги, инновационная экономика, валовой внутренний продукт.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish inson resurslaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Respublikamizda bozor munosabatlarining samarali joriy etilishi birinchi navbatda inson resurslaridan samarali foydalanishga bog'liq. Hozirgi kunda mamlakatimizda kadrlarni boshqarish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Rejali boshqaruv amaliyotida – personalni boshqarish tushunchasi yo'q edi. Lekin har bir korxona va tashkilotning boshqaruv tizimi kadrlarni va jamoani ijtimoiy rivojlantirishni boshqarishning funksional kichik tizimiga ega edi. Asosiy tarkibiy bo'linma kadrlar bo'limi bo'lib, unga kadrlarni ishga qabul qilish va bo'shatish, shuningdek kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash sohasidagi vazifalar yuklanar edi. Hozirgi vaqtda korxona va tashkilot personalini boshqarish konsepsiyasi asosini xodim shaxsiy rolining ortib borayotganligi, uning asosiy yo'l-yo'riqlarni bilishi, ularni shakllantira olishi, korxona va tashkilotlar oldida turgan vazifalarga muvofiq ravishda yo'naltira bilishi tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali – bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilim, ko'nikma va malakalar yo'g'indisidir. Bu atama birinchi marta 1958-yilda amerikalik iqtisodchi Jeykob Minser tomonidan qo'llanilgan, so'ngra 1961-yilda Teodor Shults va 1964-yildan boshlab Gari Bekker inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini asoslab, ushbu g'oyalarni inson xatti-harakatlariga iqtisodiy yondashuvni shakllantirgan holda ishlab chiqdilar.

Masalan, G.Bekker fikricha, "inson kapitali" – bu tug'ma qobiliyatlar va olingan bilim, ko'nikma va motivatsiyalar to'plami bo'lib, ulardan (korxona yoki jamiyatning shaxsi darajasida) to'g'ri foydalanish natijasida daromadni oshirishga erishiladi. "Inson kapitali" har bir aniq shaxs tomonidan shakllantiriladi va u tirik inson shaxsiyatidan ajralmasdir.



O'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham mazkur muammoning turli jihatlarini tadqiq qilishga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Jumladan akademiklar Ubaydullaeva (2017), Abduraxmonov (2017) inson kapitalining turli jihatlarini tadqiq etganlar. So'nggi yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi xodimi Sh.G.Akramova tomonidan yaxlit bir tizim sifatida talqin qilinuvchi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlantirishiga inson kapitalining ta'siri masalalari atroflicha o'rganilgan (Akramova, 2019).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inson kapitalining shakllanishi va undan samarali foydalanish borasidagi yondashuvlarni tahlil qilish, ularni tizimlashtirish maqsadida mazkur ilmiy ish doirasida taqqoslash, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalandi. Inson kapitali borasidagi mualliflik yondashuvlarini asoslash maqsadida sohaga doir ilmiy adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022-yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonining IV bo'limi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish"ga qaratilgan bo'lib, 34 ta maqsadlarga yo'naltirilgan quyidagi taraqqiyot strategiyasini o'z ichiga oladi.

Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 70 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, jumladan 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 2024–2025-o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturi amalga oshiriladi. Natijada, 2023–2024-o'quv yilidan boshlab har yili 500 ming yangi quvvat tashkil etilib, o'quv o'rinlari soni 7,5 millionga yetkaziladi. 2,5 million o'quvchi o'rniga ega maktablar qurishga 8 mlrd. dollar ajratiladi. 2022–2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish. Maktabgacha ta'lim tizimida budjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini moliyaviy jarayonlarining shaffof tarzda amalga oshirilishini ta'minlash. Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish. O'quv o'rinlari sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish. Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026-yilda 8 foizga, shu jumladan 2024-yilda 5 foizga oshirish. 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish. Malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish.

Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2026-yilda 50 foizga yetkazilib, davlat granti asosidagi qabul parametrlari 2 barobarga oshiriladi. 2026-yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish. 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash, xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha 5 yilga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash. "TOP-500" ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi va "ikki diplomli tizim" joriy qilinadi. 5 ta oliy ta'lim muassasasi milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirilib, qo'shimcha 120 ming o'rinli o'quv binolari hamda 2026-yilga qadar 72 400 o'rinli 181 ta talabalar turar joylari barpo etish natijasida talabalarni yotoqxona bilan ta'minlash darajasi 60 foizdan oshiriladi. 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish. Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo'ljallangan "Yoshlar shaharchasi" ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish.

Ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish, sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirishning 2022–2026-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi amalga oshiriladi.

Yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. Tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish. Mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalarining ulushini 80 foizga yetkazish. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarini tashkil etish. 2022–2024-yillarda 70 ta oilaviy poliklinikalar, 225 ta oilaviy shifokor punktlarini tashkil etish. Malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich



1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. Yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash. Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, inson kapitalini shakllantirishni va rivojlantirishni muhim bosqichlari hisoblanadi.

2023-yili muhim voqealardan biri 11-sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Farmoni bilan "O'zbekiston-2030" strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu dasturilamal hujjat xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni bunyod etishda xohish – istagini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini barpo etish jarayonida ortirilgan tajriba va keng jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi beshta yo'nalish va 100 maqsaddan iborat bo'lib, unda barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, umuman olganda mazkur strategiyada barcha soha va yo'nalishlarda bir qator ustivor maqsad-vazifalar o'z aksini topgan. Har qanday sivilizatsiya yoki uyg'onish jarayoni inson uchun, uning baxti-saodati, taraqqiyoti, farovon turmushi, orzu-istaklari amalga oshishi uchun xizmat qilishi kerak. O'zbekistonda inson kapitalining rivoj topishi uning qiymati bilan o'lchanadi, ya'ni turli usullar - investitsiya, ya'ni ta'lim tarbiyaga, ilmga, ma'rifatga, sog'liqni saqlashga, jismoniy va madaniy tadbirlarga jalb qilinadigan sarmoyalar va boshqalar bilan hisoblanadi. Inson kapitali - bu sarmoyalar natijasida shakllanadigan va shaxs tomonidan to'plangan, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida maqsadga muvofiq foydalaniladigan, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning o'sishiga yordam beradigan ma'lum bir salomatlik, bilim, ko'nikma, qobiliyat, motivatsiya, samaradorlik zaxirasi. Inson kapitalini shakllantirish – bu ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan shaxsning yuqori sifatli ishlab chiqarish xususiyatlarini izlash, yangilash va takomillashtirish jarayonidir.

E'tirof etishimiz joizki, oxirgi yetti yilda maktabgacha ta'lim bo'yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 41 foizga, oliygohlar sonini 77 tadan 213 taga yetkazilganligi sohadagi ishlar ko'lamini yoshlarning intellektual salohiyatini inson kapitalini rivojlantirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligini va ularning natijasini ko'rsatib turibdi. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida 2023 yil xorijiy mamlakatlardan taklif etilgan 500 nafar chet tili mutaxassisi maktablarda ish boshladi. Kelgusi yillarda ularning sonini 3 barobar oshirish, 10 va 11-sinflarda qator fanlarni o'quvchilarning tanlovi asosida chuqurlashtirib o'qitish yo'lga qo'yil - moqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizda keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar orqali O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi sa'y-harakatlari kutilgan natijalar berishiga to'la asos bor, deb baholanmoqda. Zero Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bizning havas qilsa arziydigan ulug' tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor". Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib, xizmat qilishi lozim deb ta'kidlab o'tdilar.

Ta'kidlash joizki, bugun uchinchi Renessans masalasini o'ta strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarayotgan ekanmiz, maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilm-fan, madaniy-ma'rifiy masalalar bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi sifatida ko'rilmog'da. Bu jarayonda bog'cha tarbiyachisi, maktab o'qituvchisi professor-o'qituvchilar va yosh ilmiy-ijodiy tadqiqotchilarimiz esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylanishi kerak. Renessans poydevorini yaratish o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun, avvalo yuzlab, minglab iste'dodli kadrlar, fidoyi shaxslar kerak. Darhaqiqat bugunki kunda mamlakatning rivojlanishi faqat mavjud tabiiy resurslar yoki aholi soniga bog'liq bo'lmay qoldi. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, kurrai zaminimiz umumiy boyligining 67 foizi 374 trillion AQSh dollari inson kapitaliga, ya'ni asosan, shaxsning ilm darajasiga to'g'ri kelmoqda. AQShda ushbu ko'rsatkich milliy boyligining 77-foizi – 95 trillion dollarga yetgan. Shuning uchun davlatimiz rahbari "Eng katta boylig-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir", degan fikrni alohida keltirib o'tadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda inson kapitaliga nisbatan qarashlar tubdan kengayib, unga qimmatbaho aksiya hamda daromadlar oqimi sifatida qaralmoqda. Chunki inson kapitali iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Buni dunyoga mashhur hind olimi, Nobel mukofoti sohibi (1998 yil) Amartiya Sen ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha rivojlanish jarayoni faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning ortishi



emas, balki jamiyatning har bir a'zosiga tanlov erkinligi yuqoriligini nazarda tutadigan shaxsning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Davlat nafaqat iste'mol tengligini, birinchi navbatda, ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlari, shuningdek, siyosiy va fuqarolik huquqlari sohasida teng huquqlikni ta'minlashi kerak. Bu inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Globallashuv, u qanday baholanishidan qat'i nazar, qaytarib bo'lmaydigan jarayon, jahon taraqqiyotining muqarrar taqdiridir. Bu ham ko'p qirrali hodisa, ham yoshlarga ta'sir etuvchi tabiiy omildir. Ushbu ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lgan globallashuv yoshlarga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, global jarayonlarning inson kapitalini rivojlantirishga ijobiy ta'sirini o'rganish g'oyat dolzarbdir.

Global innovatsion indeks-mamlakatlarning innovatsion imkoniyat va ko'rsatkichlari reytingidir. Bunda institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infiratuizilma, kreditlar, investitsiyalar, kommunikatsiya mezonlariga asoslangan holda innovatsiya darajalari o'lchanadi. Yuqorida qayd etganimizdek, bu reyting ma'lum mezonlar asosida ishlab chiqiladi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston–2030" strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri ham inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Strategiyaning maqsadi 2030-yilga kelib, O'zbekistonning global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning kuchli 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishi zaruriy shart qilib qo'yildi. Buni esa respublikamizning xalqaro maydondagi raqobat bardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan tarqqiy etishini belgilovchi asosiy omil sifatida baholash va e'tirof etish mumkin.

Shuni mamnuniyat bilan aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi bo'yicha kuchli uchtalikka kirgan yetakchi davlat bo'ldi (Hindiston-40, Eron Islom Respublikasi-53 va O'zbekiston-82). Global innovatsion indeks reytingi ko'rsatkichlari jahon mamlakatlari iqtisodiyotini o'zida qamrab olib, u 80 ga yaqin ko'rsatkichlarlar asosida aniqlanadi. O'zbekiston ko'rsatkichlarning ikkinchisida, "Inson kapitali va tadqiqotlar" (Human capita & research)da 7 pog'ona yuqorilab 30,8 daraja yoki 65-o'rin egallagan. Umuman olganda, bugun O'zbekistonning xalqaro indekslar va reyting ko'rsatkichlariga erishishdagi muhim qadamlardan biri sifatida qabul qilingan 11m-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi amalda ishlamoqda. Buni xalqaro indekslar va reyting ko'rsatkichlarida bosqichma-bosqich yuqorilab borayotganligimizdan ham anglash qiyin emas.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirishning innovatsion modeli, uning harakatlantiruvchi kuchlari, yangi bilimlar, shaxslar va umuman jamiyatning intellektual va ijodiy salohiyati inson kapitalini mamlakatning raqobatbardoshligi uchun strategik resursga aylantiradi. Inson salohiyati barcha rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va milliy boylikning asosiy tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan.

Ba'zi olimlar va iqtisodchilar ko'pincha "inson kapitali" va "inson salohiyati" tushunchalarini ma'no jihatidan teng deb hisoblashadi, ammo bizning fikrimizcha, bu ikki tushuncha o'xshash, ammo bir xil emas. Inson salohiyati konsepsiyasi biroz kengroq bo'lib, nafaqat shaxsga investitsiyaning iqtisodiy tomonini, balki makro darajada inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va ishlatish uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni, masalan, hayot sifatini o'z ichiga oladi.

Global miqyosda keng qamrovli baholash va yangilangan dastlabki ma'lumotlarni to'plash bo'yicha harakatlar kuchli tomonlarni aniqlashi va inson kapitalini rivojlantirish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashi mumkin. "Inson kapitalini rivojlantirish" loyihasi inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo'shuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilishni boyitadi, masalan, "Xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari" dasturi va "Bolalik davridagi ta'lim sifati va natijalarini baholash" so'rovlarini kengaytirish orqali.

Inson kapitalini rivojlantirish uchun imkoniyatlar va xatarlarning kombinatsiyasi uning ta'lim kabi muhim elementida to'liq aks etadi. Uning o'zgarishidagi asosiy tendensiya – bu aholining bilim darajasining oshishi. Aholining ma'lumot darajasining o'sishi nafaqat aholi va ish beruvchilar tomonidan unga bo'lgan talab bilan, balki tegishli infratuizilmaning rivojlanishi bilan ham bog'liq.

Inson kapitalining tarkibiy elementi sifatida ta'limning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ko'rinib turibdiki, xodimlarning kasbiy bilimlari kompaniyaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun asosdir. Ta'lim insonning nafaqat ishchi, balki o'quvchi sifatidagi samaradorligini oshiradi, ya'ni bilim va ko'nikmalarni yanada to'plash jarayonini tezlashtiradi va osonlashtiradi. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy olimlar aholining ta'lim darajasini, shuning uchun inson kapitalini oshirish, qoida tariqasida, bandlik va ish haqining oshishiga olib kelishini isbotladilar, bu esa iqtisodiy manfaatlardan tashqari, qulay ijtimoiy oqibatlarga olib keladi.

Shunga ko'ra, ta'lim kabi komponentning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- o'rganish va ijodiy fikrlash uchun individual qobiliyatlari;
- umumiy va kasb-hunar ta'limi tizimining holati;
- keksa oila a'zolarining ta'lim darajasi;



- oilaviy an'analar;
- fan va innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va boshqalar.

Zamonaviy bilimlarning asoslari bizga davlat darajasida inson kapitalining tizimli shakllanishini va shuning uchun O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'ati va sifatini belgilovchi eng muhim tarkibiy omillarni guruhlash imkonini beradi. Bularga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy insonparvarlikni inson taraqqiyoti maqsadlarini (umr, salomatlik, umr ko'rish darajasi va davomiylik, psixologik qulaylik, axloqiy ma'naviy yuksalish darajasi, qadr-qimmat, qadr-qimmatini oshirish) amalga oshirishda davlat siyosatining (umumiy va xususiy) maqsadga muvofiqligi, tashkil etilishi va samaradorligi sifatida shakllantirish;
- aholining hayot sifati va salomatligini davlat darajasida ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik, milliy madaniyat va davlat boshqaruvi samaradorligining asosiy qadriyati, asosiy maqsadi va asosiy mezonlaridan biri sifatida tan olish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat uzoq muddatli dasturlariga kiritilgan hayot va salomatlik sifatining yuqori davlat standartlarini ishlab chiqish va belgilash;
- davlat va tijorat korxonalarida davlat hokimiyatini ma'naviy boshqarish va ma'naviy boshqaruvning yangi usullarini yaratish;
- davlat va xususiy iqtisodiyotning barcha sohalarida axloqiy iqtisodni (iqtisodiy etikani) shakllantirish;
- milliy ta'limda bilimlarni shakllantirishning yangi modelini yaratish;
- aholining axloqiy dunyoqarashini shakllantirish;
- mazmuni va sifatiga ko'ra talabga ega bo'lgan kasbiy ta'limni yaratish;
- inson kapitalini tashkil etuvchi asosiy inson qobiliyatlarini rivojlantirish va qo'llash;
- aholining jismoniy va ruhiy salomatligini takror ishlab chiqarish;
- qulay va samarali tibbiy yordam ko'rsatish;
- rivojlangan fan va innovatsion faoliyat;
- mehnat, tadbirkorlik va ijtimoiy faoliyat;
- har qanday resurslardan, shu jumladan mineral resurslardan oqilona, tejamkorlik bilan foydalanish;
- tabiiy muhit bilan oqilona munosabatlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga e'tibor qaratdik. Shubhasizki, ushbu hujjatlarning har bir bandi mamlakatimiz taraqqiyotiga xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. Ushbu ulug'vor g'oyalar esa mamlakatimizda inson qadri va salohiyatini yuksaltirish orzu umidlarini ro'yobga chiqarish, tinch osoyishta baxtli va farovon hayotini ta'minlash bosh maqsadga aylanganini ifodasidir. Shu ma'noda, global jarayonlarning inson kapitalini rivojlartirishga ijobiy ta'sirini o'rganish g'oyat dolzarbdir. Umuman olganda, O'zbekiston Global innovatsion indeks reytingida o'zining dastlabki qadamlarini dadil tashlagani va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar orasida salmoqli o'rin egallab borayotgani barchamizga faxr bag'ishlaydi. Bu esa mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti, davlatimiz kuch-qudratining mustahkamlanishi hamda xalqimiz farovonligi darajasining o'ziga xos ko'zgusidir.

Davlatimiz tomonidan ilm-fan, ta'lim va tarbiya, sog'liqni-saqlash va ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish sohasida katta miqdorda mablag'lar ajratilib investitsiyalar kiritilmoqda, amalga oshirilayotgan ushbu islohatlar yoshlarimizning bilimlar zaxirasini va darajasini oshiradi, shu bilan birga milliy inson kapitalining hajmi va sifati oshadi, ilmiy asoslangan xorijiy tajribalarning kirib kelishi va ularning usullaridan foydalanish, raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini shakllantiradi. Darhaqiqat taraqqiyot yo'lida izchil rivojlanish uchun mamlakatimizda ta'lim – tarbiyaga, zamonaviy bilimga ega bo'lgan mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayorlashga, ilm-fanni rivojlantirishga, sog'liqni-saqlashga, aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli ishlarni amalga oshirishda katta miqdorda investitsiyalar kiritilmoqda. Inson kapitalini boshqarish bu kelgusida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlantirish yo'lida kiritilayotgan investitsiyalarning ijobiy samarasi bo'lib, inson kapitalining rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Xalq so'zi. 29-yanvar 2022-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-sentabr 2023-yildagi PF-158-sonli "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Xalq so'zi. 12-sentabr 2023-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yil - gacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 son Farmoni. <https://uza.uz/posts/3271>.
4. Q.X.Abduraxmonov "Vatanimiz ravnaqi va kelajak istiqbolimizni belgilovchi muhim hodisa". Yangi O'zbekiston, 2022-yil 22-dekabr, 260-son.
5. Q.X.Abduraxmonov "Inson qadrini ulug'lashga qaratilgan strategiya". Xalq so'zi 2022-yil 23-aprel 84-son.
6. B.Usmonov "Intellectual salohiyatni rivojlantirish-bugunki kunning muhim vazifasi". Xalq so'zi, 2023-yil 5-oktabr, 209-son.
7. G'.Z. Ubaydullaev "Inson kapitali innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy omili". Monografiya. Qarshi "Intel- lekt" nashriyoti, 2023.
8. N.Rizayev " O'zbekiston janubiy Osiyo mintaqasi kuchli uchtagidagi". Xalq so'zi 2023-yil 1-fevral, 21-son.
9. Окункова Е.А. Роль человеческого капитала в инновационном развитии экономических систем / Е.А. Окункова // Глобальный научный потенциал. – 2018. – №11– С. 120–123.
10. Голубкин В.Н. Интеллектуальный капитал в эпоху глобализации мировой экономики. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: [http://www.оулинк.ру/пуб/бизнес_образ_1_18. htm](http://www.оулинк.ру/пуб/бизнес_образ_1_18.htm).
11. <https://stat.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
12. www.undp.uz – O'zbekistondagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi veb sayti.
13. <https://ziyonet.uz> – Ta'lim portali.



O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA OILAVIY TADBIRKORLIKNING O'RNI

Baymanova Mavlyuda Djurayevna

Angren universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada aholi bandligining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati, bandlikni ta'minlashda kichik biznesning imkoniyatlari, uning aholi daromadlarini oshirishga ta'sirining nazariy asoslari bayon etilgan, kichik biznes subyektlarining bandlikni ta'minlashdagi ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: bandlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, to'la va samarali bandlik, ishchi kuchiga talab va taklif, daromad, ish o'rni, bandlik dasturi.

Abstract: The article describes the importance of population employment in the socio-economic development of the society, the possibilities of small business in providing employment, the theoretical basis of its influence on increasing the income of the population, measures to encourage the participation of small business entities in providing employment are recommended.

Key words: employment, small business, private entrepreneurship, full and productive employment, labor supply and demand, income, jobs, employment program.

Аннотация: В статье описано значение занятости населения в социально-экономическом развитии общества, возможности малого бизнеса в обеспечении занятости, теоретические основы его влияния на увеличение доходов населения, меры по стимулированию участия субъектов малого предпринимательства в обеспечении занятости.

Ключевые слова: занятость, малый бизнес, частное предпринимательство, полная и производительная занятость, спрос и предложение рабочей силы, доходы, рабочие места, программа занятости.

KIRISH

"Bandlik fuqarolarning qonunchilikda ta'qiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyati" ^[1] bo'lib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biridir. Shu boisdan barcha mamlakatlarda bandlik muammosini hal etishga davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor masalasi sifatida qaraladi. Jamiyatda samarali band bo'lgan insonlar qanchalik ko'p bo'lsa, o'z navbatida, moddiy farovonlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Aholining to'la va samarali bandligini ta'minlash vazifasi aholi soni va uning tarkibida mehnat resurslari soni doimiy o'sib borayotgan respublikamiz uchun yanada dolzarb masala hisoblanadi.

Shu boisdan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "aholi bandligini oshirish maqsadida aholining real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va daromadlar bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish" asosiy vazifa sifatida belgilandi ^[2]. "O'zbekiston–2030" strategiyasida ham bandlik ko'lamini oshirish va munosib mehnat sharoitlarini yaratish orqali mehnat bozorining barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Hozirgi kunda respublikamizda aholi tarkibida mehnat resurslarining ulushi yuqori ekanligi, qishloq aholisining ish bilan bandlik darajasining pastligi, qishloq joylarida tashkil etilgan ish joylarining asosiy qismi qisqa muddatli va mavsumiy xarakterga egaligi, ish bilan band bo'lgan aholining salmoqli qismi ish haqi past bo'lgan sohalarda, norasmiy sektorda va barqaror bo'lmagan ish joylarida band etilganligi kuzatiladi. Mazkur muammolarning mavjudligi bugungi kunda aholining ish bilan bandligi masalalarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishni taqozo etadi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Ish bilan bandlik kishilarning ish joylari qayerdaligidan qat'iy nazar ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o'zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bo'lib, mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda bandligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy fanda ishchi kuchining bandligi muammosi doimo dolzarb masala sifatida o'rganilgan va unga nisbatan yondashuvlar, qo'llanilgan tadqiqot usullari va vositalari jihatidan bandlikning klassik (D.Rikardo, J.S.Mill, A.Marshall), neoklassik (J.Perri, D. Gilder, A. Laffer, M. Feldstayn, R. Xoll), keynschilik (J. Keyns, R. Gordon)), monetaristik (M. Fridman, F.Keygen, D.Mayzelman, K.Brunner), institutsional-sotsiologik (T. Veblen, J. Danlop, J. Gelbreyt) nazariyalari mavjud. Respublikamizda aholining ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratishning nazariy jihatlari, kichik biznesning ishchi kuchi bandligini ta'minlashdagi roli va o'ziga xos xususiyatlari masalalari Q.X.Abdurahmonov, Sh.R.Xolmo'minov, G.Abdurahmonova kabi iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rganish jarayonida mamlakatimizda tadbirkorlik va oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash va bu orqali bandlikni samarali ta'minlash bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuza-tish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlarda aholi bandligi va mehnat bozorini tartibga solishning samarali tizimi shakllantirilgan va respublikamizda aholi bandligini ta'minlashda bu tajribadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ko'pgina mamlakatlarda davlat tomonidan olib borilayotgan faol bandlik siyosati doirasida aholi bandligiga ko'maklashish dasturlari ishlab chiqiladi, moliyalashtiriladi va ijro etiladi. Ish o'rinlarining sonini ko'paytirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan bandlik dasturlarini ishlab chiqish Yevropa Ittifoqida amaliyotga keng joriy etilgan. YEIga a'zo mamlakatlarda bandlik siyosatini o'tkazishda yoshlarni kasbiy o'qitishga hamda ishga joylashishga ko'maklashish uchun qulay sharoitlar bilan ta'minlashga, ayollar bandligini kuchaytirishga, turli mintaqalarning rivojlanish darajasi o'rtasidagi farqni kamaytirishga qaratilgan mintaqaviy siyosatga alohida e'tibor qaratiladi.

Rivojlangan davlatlarda amalga oshirilayotgan bandlik siyosatining yuqori samaradorligini ta'minlaydigan o'ziga xos jihatlaridan biri asosiy e'tiborning ishsizlik oqibatlari bilan kurashishga emas, balki uning oldini olishga qaratilganligi bilan bog'liq. Masalan, Shvetsiya hukumati iqtisodiyotning davlat sektorida yangi ish o'rinlari yaratishga, oilalarni ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan hududlardan bo'sh ish o'rinlari mavjud bo'lgan hududlarga ko'chirib o'tkazishga moliyaviy ko'mak taqdim etish, aholining mavjud bo'sh ish o'rinlari haqida o'z vaqtida axborotlardan tezkor foydalanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. Buyuk Britaniyaning bandlik siyosati esa mehnat bozorida talab va taklifning holati haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish, kasbga o'qitish va ishga joylashtirishning yaxlit tizimini yaratilganligi, ayniqsa ayollar va yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun kasbga o'qitish va qayta o'qitish dasturlarining amalga oshirilishi hamda jamoat ishlari maqsadli dasturlarini ishlab chiqilishini, ishsizlikdan sug'urtalash fondlarini rivojlantirish, ijtimoiy ta'minotni rivojlantirishni ko'zda tutadi. AQSHda davlatning bandlik siyosati aholi bandligini oshirish va ish o'rinlari sonini ko'paytirishni, ishlovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ishchi kuchini yollashga ko'maklashishni rag'batlantirishga qaratilgan. Shu maqsadda kollejl va universitetlar huzurida kasbga yo'naltirish maxsus markazlari, xususiy agentliklari tashkil etilgan, AQSH Mehnat vazirligi huzurida esa 1200 ta davlat kasbga yo'naltirish va kasb tanlash markazlari tuzilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyodagi aholisi va mehnat resurslari soni eng ko'p bo'lgan va muntazam ko'payib borayotgan mamlakatdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2010–2019-yillarda respublikamizda aholining o'rtacha o'sish sur'ati 1,7 foiz yoki 500–600 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2020–2023-yillarda bu ko'rsatkich 2,1 foizgacha tezlashgan yoki mutlaq hisobda yiliga taxminan 700–800 ming kishiga oshgan. Mamlakatimiz aholi soni 2012-yil 1-yanvar holatiga 29,6 million kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilning shu davriga kelib bu ko'rsatkich 36,8 million kishiga, 2024-yil 22-aprel kuni holatiga ko'ra 37 million kishiga yetdi. Mamlakatimizda aholi sonining yildan-yilga oshishi natijasida har yili minglab yoshlar mehnat bozoriga kirib kelmoqda. 2024-yilning 1-yanvar holatiga mehnat resurslari soni 19,7 million kishini tashkil etib, 2023-yilning shu davriga nisbatan 1,1 foizga yoki 207 ming 400 kishiga oshgan. Bu holat uzoq muddatli istiqbolda ko'proq ish o'rinlarini yaratish zarurati oshishiga olib keladi.

O'zbekistonda davlat tomonidan aholining ish bilan bandligini oshirish, ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida faol bandlik siyosati amalga oshirilmoqda.



So'nggi yillarda aholi bandligini ta'minlash, ularga bandlik xizmati ko'rsatish borasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xalqaro mehnat tashkilotining bir qator me'yoriy hujjatlari ratifikatsiya qilindi. 2020-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni esa mehnat bozorining erkinligi, aholi bandligi bilan bog'liq barcha huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur Qonunda ish o'rinlari tashkil etilishini rag'batlantirish va aholi bandligiga ko'maklashish, shu jumladan ish o'rinlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini hamda ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish orqali ko'maklashish; ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralari ko'rish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko'maklashish; yoshlarni, ayniqsa qishloq joylardagi yoshlarni, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish; aholi bandligi sohasida zamonaviy kasbiy standartlarni joriy etish, mehnatni normalashtirish hamda mehnatga haq to'lash mexanizmlarini takomillashtirish; aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlash; ishga joylashtirish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, aholining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratish; O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko'maklashish, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini ta'minlash aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan ^[3].

O'zbekistonda keyingi yillarda iqtisodiyotning barqaror yuqori sur'atlarda rivojlanishi hamda davlat tomonidan faol bandlik siyosatining amalga oshirilishi natijasida iqtisodiy faol aholi tarkibida ish bilan band aholi soni ham yil sayin ko'payib bormoqda, ishsizlik darajasi kamayishiga erishildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda iqtisodiyotda band aholi soni 2022-yilga nisbatan 2,2 foizga oshib 14,2 mln nafarga yetdi. Jami band aholining 24,2 foizi qishloq xo'jaligi, 13,0 foizi sanoat, 10,8 foizi qurilish, 11,2 foizi savdo, 4,5 foizi tashish va saqlash, 9,2 foizi ta'lim hamda 5,0 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar kabi iqtisodiyot tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi ^[4]. Ishsizlik darajasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga kamayib 6,8 foizni tashkil etdi, rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi davrda ishsizlar soni 1 million 300 ming nafarni tashkil qiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi aholi bandligi muammolarini hal qilishda kichik tadbirkorlikning ahamiyati beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Kichik biznes subyektlarida yangi ish o'rinlarini yaratishga moyillik kuchliroq bo'lib, u kichik biznesning kapital sig'imi past bo'lgan yangi ish o'rinlarini tezlik bilan tashkil etishga qodirligi, ya'ni kam xarajat bilan ish o'rinlari yaratishi va o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkoniyati mavjudligi, kichik korxonalar tashkil topish jarayonlarining yengilligi va kichik tadbirkorlik subyektlari sonining nisbatan tezlik bilan ko'payishi natijasida ko'proq ishchilar yollanishiga imkoniyat yuzaga kelishi, mehnat qilish va ishga yollashning moslashuvchan shart-sharoitlari, ya'ni to'liqsiz ish kuni yoki haftasi, mehnatning o'zgaruvchi grafigi, o'rindoshlik keng tarqalganligi kabi sabablar bilan izohlanadi. Ushbu sohani rivojlantirish orqali aholining ish bilan bandligini ta'minlash bilan birga ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish hamda yalpi ichki mahsulotni, valyuta tushumlarini, aholi daromadlarini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash kabi ijobiy natijalarga erishiladi. Turli manbalarga ko'ra, jahon bo'yicha kichik biznesda mehnatga layoqatli aholining yarmidan ko'prog'i band, YEI mamlakatlari va Yaponiyada esa bu ko'rsatkich 70 foizdan yuqoridir.

Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga erishish uchun qulay ishbilarmonlik muhitining mavjud bo'lishi taqozo etiladi. Bunda kichik biznesni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni moliyaviy jihatdan rag'batlantirish amaliyoti keng qo'llaniladi, shu maqsadda soliq imtiyozlari, subsidiyalar taqdim etiladi. Masalan, Germaniya hukumati yangi ish o'rinlari yaratilayotgan hamda korxonalar modernizatsiyalanayotgan sharoitda bandlikning mavjud darajasini ushlab turgan barcha ishlab chiqaruvchilarni (ish beruvchilarni) rag'batlantiradi, ishchilarni ommaviy ishdan bo'shatishdan tutib turgan korxonalarga imtiyozlar taqdim etadi. Fransiyada amalga oshiriladigan "Yangi xizmatlar – yangi ish o'rinlari" bandlik dasturi esa boshqa chora-tadbirlar qatorida davlat tomonidan korxonalarning yoshlar yangi ish o'rinlari yaratishga sarflayotgan xarajatlarini 80% ga qoplashni ham ko'zda tutadi.

Mamlakatimizda ham yangi ish o'rinlarini yaratib bandlik muammosini hal etishda hamda aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratildi. Natijada respublikamizda tadbirkorlik jadal rivojlanib bormoqda. Birgina 2022-yilning o'zida kichik tadbirkorlik subyektlari soni 40 mingga, o'rta tadbirkorlar soni 2 mingga, yirik korxonalar soni esa 400 taga ko'paydi. Berilgan yengilliklardan foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshdi ^[5]. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilning 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) soni 428 396 tani tashkil etgan. Shundan 424 695 tasi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan ^[6].



So'nggi yillarda kichik biznes sohasiga tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar va ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi ham o'sib bormoqda. 2015-yilda kichik biznes sohasiga ajratilgan kreditlar 12,5 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib qariyb 5,6 baravarga oshdi. 2022 yilda kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 504 mingdan ortiq loyihalarga jami 69,8 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi [7]. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 2018–2022-yillarda jami 34,1 trln so'mdan ko'p miqdorda imtiyozli kreditlar ajratildi, natijada respublika bo'yicha o'rta hisobda har ming xonadonning 196 tasi ushbu dasturlar doirasida kredit olib qo'shimcha daromad olish imkoniyatlariga ega bo'ldi. 2022-yilda Dasturlar doirasida tijorat banklari tomonidan 424 mingdan ortiq loyihalariga jami 9,9 trln so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi [8].

2023-yildan kichik biznes subyektlari tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish, xususan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning yangi bosqichi boshlandi. Respublikamiz Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-sonli "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 19-apreldagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 161-sonli qarorlari qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qarorga muvofiq 2023-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun kamida 13 trillion so'm yo'naltirilishi belgilandi va ushbu resurslarning hududlar kesimidagi maqsadli parametrlari tasdiqlandi, kreditlarni yillik 14 foiz stavkada ajratish tartibi saqlab qolindi, "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" mablag'lari hisobidan aholi tomorqalaridan samarali foydalanish uchun mikrokreditlar miqdori 3 mln so'mgacha oshirildi [9]. Respublikamiz Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrda "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-sonli Qaroriga asosan 2023-yil 1-oktyabrdan "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturining amalga oshirilishi boshlandi. Mazkur Qarorda 2023–2026-yillarda Dasturni amalga oshirish uchun davlat mablag'lari hisobidan 6 mlrd so'm, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan esa 1,2 mlrd dollar miqdorida mablag' yo'naltirilishi, kichik biznes subyektlariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so'mgacha kreditlar ajratilishi, bunda 100 million so'mgacha kreditlarni garovsiz, 150 million so'mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi [10].

Tadbirkorlikni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni ko'payib ushbu sohaning YAIMdagi ulushi ham yildan-yilga oshib bormoqda. Agar bu ko'rsatkich 2000-yilda 31% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 54,9 % ga yetdi. Bugungi kunda kichik biznes sohasida iqtisodiyotda band aholining 74 foizi faoliyat yuritmoqda.

2024-yil uchun bandlik loyihasida sifatli va yuqori daromadli ish o'rinlari hisobiga 5 million aholining bandligini ta'minlash maqsad qilingan. Aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish asosida aholining bandligini oshirish sohasida ishlar davom ettirilmoqda. Tadbirkorlik uchun sharoitlarni qulaylashtirish maqsadida yagona hisobotlar tizimini joriy etildi, 2024-yildan boshlab 34 turdagi hisobotlar bekor qilindi. Shuningdek, tadbirkorlarga majburiy talablarni qisqartirish maqsadida 16 ta litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Ma'lumotlarga ko'ra so'nggi yillarda 2 million 400 ming aholi o'zini o'zi band qilgan. Joriy yildagi loyihada ularning faoliyatini kengaytirish, bosqichma-bosqich kichik biznesga o'tkazish va bozor topishiga ko'maklashish ko'zda tutilgan.

Aholi bandligini oshirishda erishilgan ijobiy natijalar bilan birga muammolar va kamchiliklar ham mavjud. Amalga oshirilgan ishlarga qaramay hamon norasmiy bandlikning ulushi yuqori ekanligiga alohida e'tibor qaratiishi zarur. Bugungi kunda iqtisodiyotning norasmiy sektorida 6 millionga yaqin kishi faoliyat olib bormoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaxshilash hamda o'zini o'zi band qilish institutini rivojlantirish orqali rasmiy sektorda band bo'lganlar sonini yildan-yilga oshirish va norasmiy bandlikni kamaytirish ko'zda tutilmoqda.

Yuqorida ko'rsatilganidek, jami band aholining 24,2 foizi qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritmoqda. Rivojlangan iqtisodiyotga qishloq xo'jaligida band bo'lganlar sonining qisqarishi va ushbu sohada ish bilan band aholining umumiy bandlikdagi ulushining kamayishi xarakterlidir. Hozirgi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida bandlar taxminan 3-5% ni tashkil qiladi, bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 1,6%, Germaniyada esa - 2% dan kam. O'zbekistonda ham kelajakda qishloq xo'jaligida bandlar sonining qisqarishi tezlashadi. Bu holat qishloq joylarda bandlik muammosi yanada dolzarb bo'lishini, ishsizlar soni ortib borishini, uning oldini olish va bartaraf etish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Shu bilan birga, ish o'rinlari sonining mehnat bozori talablariga mos kelmasligi mehnat bozorida muvozanatning buzilishiga, ayrim hududlarda ishsizlik darajasining oshib ketishiga, noqonuniy mehnat migratsiyasini o'sishiga olib



kelayotgani e'tiborga olish zarur. Davlat va nodavlat sektorida yangi ish o'rinlarini yaratishni ko'paytirish va bunda hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish va to'la ijrosini ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat bandlik xizmati asosiy e'tiborni mintaqa iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlarni prognoz qilish va mintaqa ehtiyojlariga mos ishga joylashtirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bandlik darajasining ko'tarilishi bevosita aholi turmush farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning jami aholi daromadlaridagi ulushi yuqoriligi saqlanib qolmoqda. 2023 yilda aholi daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar eng yuqori, 64 foiz ulushga ega bo'lib, ushbu daromadlarning 54 foizini o'zini o'zi band qilishdan olingan daromadlar tashkil etgan. Mamlakatimizda mehnat resurslari hamda iqtisodiy faol aholi sonining oshishi, ularning jami aholi sonidagi ulushi yuqoriligi nafaqat yangi ish o'rinlarini sonini oshirish, balki.

Hozirgi davrda respublikamizda ishchi kuchi taklifi va unga bo'lgan talab nisbati ish bilan bandlik darajasini oshirish uchun davlat va xususiy sektorda ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratishni hamda uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashni taqozo etadi. Bunda kichik biznesning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqishda kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ayniqsa, ushbu sohaning bozor sharoitida samarali foydalanish mumkin bo'lgan yakka tartibdagi va ommaviy ish o'rinlarini tashkil etish hamda fuqarolarning o'zini ish bilan band etish dastaklaridan imkon qadar to'liq foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mamlakatimizda kichik biznes subyektlarining yangi ish o'rinlarini yaratishdagi ishtirokini rag'batlantirishda jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish hamda unumli foydalanish lozim. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mehnat qilish va ishga yollashning moslashuvchan shart-sharoitlaridan yanada kengroq foydalanish xotin-qizlarning bandligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik uchun yetarli shart-sharoitlar va qulay imkoniyatlar yaratish orqali mazkur sohani rivojlantirish respublikamizda yangi ish o'rinlarining ko'payishiga va bandlikning oshishiga olib keladi. Hozirgi kunda, kichik tadbirkorlikning faol xo'jalik yuritish shakliga o'tishini ta'minlab, ushbu sohada aholi bandligini oshirish maqsadida uni yanada rivojlantirish uchun quyidagi muhim tashkiliy jihatlarga e'tiborni qaratish lozimdir:

- kichik tadbirkorlikni moddiy va moliyaviy resurslar bilan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmini tashkil etish va rivojlantirish, kredit tizimlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini har tomonlama mustahkamlash;
- har bir oilaning mehnat an'analarga chuqur hurmat bilan qarash, uni tiklash va rivojlantirish, mavjud ishchi kuchlaridan samarali foydalanishga erishish;
- kichik tadbirkorlik yuritish uchun shart-sharoitlarni yanada kengaytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash asosida o'z mahsuloti, xizmatlari bilan ichki va tashqi bozorga erkin chiqish imkoniyatlarini oshirish;
- kichik tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalar, ilg'or va zamonaviy mini texnologiyalarning kirib kelishiga keng yo'l ochib berish, chetga tayyor mahsulotni eksport qilish hajmini yanada oshirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1-3. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'RQ-642-sonli qonuni, 20.10.2020-yil, <https://lex.uz/docs/-5055690>.
2. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni, 7-fevral 2017-yil. <https://lex.uz/docs/3107036>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2023. <https://cbu.uz/upload>.
5. "Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – ustuvor vazifamizdir". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi, <https://president.uz>.
6. <https://biznesombudsman.uz/uz/news/738>.
Insurance has an important position in international trade. Foreign trade usually go through long-distance transport, whether by sea, land, air, or land and sea transport all have a certain amount of risk, due to natural disasters and accidents, transport and cargo may have caused the loss. In order to guarantee safe transport of goods, the importer and the exporter, and the urgent need for both sides are willing to participate in the insurance, which is the fundamental reasons that insurance has become one of the fundamental prerequisites for foreign trade. First, there must be a country's foreign trade, then need import and export insurance. If there is no foreign trade, insurance will lose clients. Before the liberation, China's economic dependence imperialism, import and export trade volume is very small, then the insurance is useless. After the liberation, the development of China's foreign trade each year, import and export transportation insurance for foreign trade has increased year by year. Therefore, we can say that the development of foreign trade is a prerequisite for the development of insurance, in turn, the development of insurance has provided a guarantee for the foreign trade business, help to further engage in foreign trade. Participated in the foreign trade department of insurance in favor of improving the management level. This is because the insurance company through a large number of business activities, especially in the inspection damage, claims handling process, can accumulate information, to understand the reasons for the damaged goods, to detect the presence of transport, handling, packaging, and other aspects of the problem ^[4], to the authorities comments and suggestions conducive to prevention, loss prevention, to reduce the loss of state property, maintaining merchandise credit, foreign trade sector will help improve the management of goods, improve economic efficiency ^[5].

Insurance companies foreign institutions, but also to provide information for the foreign trade sector and economic intelligence, providing customers with credit terms of management style and materials for foreign trade departments. International trade is the lifeblood of the global economy, connecting nations and facilitating the exchange of goods, services, and ideas. However, this complex web of transactions is inherently fraught with risks. From natural disasters and political instability to currency fluctuations and contract breaches, a myriad of uncertainties can disrupt supply chains, derail transactions, and inflict significant financial losses on businesses. This is where insurance steps in, playing a crucial role in mitigating these risks and enabling the smooth functioning of international trade. Insurance mechanisms act as a vital safety net for businesses involved in international trade. They provide financial protection against a range of potential perils, offering peace of mind and enabling businesses to confidently engage in cross-border transactions. By mitigating risk and fostering confidence, insurance enables businesses to:

- **Expand Markets:** Insurance reduces risk aversion, allowing businesses to venture into new markets without fear of crippling financial losses.

² <https://icisa.org/wp-content/uploads/2024/06/ICISA-TCI-Insured-Exposure-2006-2023.pdf>



- **Secure Funding:** Lenders and investors are more willing to finance transactions when businesses have robust insurance coverage, making it easier to access capital for expansion and growth.
- **Stabilize Supply Chains:** Insurance protects against disruptions caused by unforeseen events, ensuring the reliability and stability of global supply chains.
- **Mitigate Political Risks:** Insurance can cover losses stemming from political instability, government interference, or expropriation, offering crucial protection against unpredictable geopolitical events.

The foreign trade department of the insurance company losses due to natural disasters and accidents caused by the Organization for Economic compensation in a timely manner, can guarantee the normal operation of the foreign trade sector and the difficulties uninterrupted cash flow does not occur, help strengthen trade and economic accounting and there are plans to conduct business [6]. A example is the Iran-Iraq war 24 Vessels total loss, the insurance company claims \$ 14.3 million. Timely processing of foreign trade insurance company's compensation case, make reasonable financial security of the foreign trade sector, which is conducive to the normal national foreign economic and trade activities [7]. Insurance promotion of foreign trade has become increasingly valued by the people in many countries to conduct international insurance business as an important means for foreign exchange earnings [8], balance of international payments. Intense competition in the international insurance situation, we need to strengthen the theoretical study on the insurance status and role in international trade and improve the insurance awareness and promote the development of foreign insurance undertakings. Since liberation, our insurance business several ups and downs, the domestic insurance closed over two decades, foreign insurance are not properly developed, net premium income accounted for only 3% of non-trade foreign exchange earnings of the country, international and China status is not commensurate, we should intensify work in this area. First of all, we have to play our insurance advantages, adhere to the unified leadership unanimously principle. Second, we must strengthen the foreign trade sector support for insurance in foreign trade sector negotiations, whether import, export, must fight for insurance in the country. Third, to enhance its services to simplify the insurance procedures, conduct timely and reasonable rationale stickers, and establish the credibility of China's insurance. Fourth, in terms of the provisions of the insurance types, rates, terms, etc., the insurance company should refer to national convention, to adopt a flexible approach, try to meet the needs of foreign trade, in order to facilitate business and improve the ability to compete with foreign investors, thus insurance can play a better role in international trade.

CONCLUSION

Insurance mechanisms play a vital role in mitigating the inherent risks associated with foreign trade, promoting global economic activity, and fostering prosperity. As global trade continues to evolve, it is essential for the insurance industry to innovate and adapt to meet the changing needs of businesses and ensure the smooth functioning of international commerce. Trade insurance is a critical tool that empowers businesses to navigate the complexities of global trade with confidence. It acts as a safety net, enabling businesses to expand, explore new markets, and build robust international relationships while mitigating financial risks. As global commerce continues to evolve, trade insurance remains a vital component for ensuring stability, security, and growth in the international business landscape. China, to better carry out foreign trade business, further defining the scale and scope of China's foreign trade is large, enterprises also face some risk, So it is necessary to take the means of economic compensation, Combined with the international market demand is still insufficient. We should take some measures to avoid risks in foreign trade activities, In order to effectively promote the foreign trade. For status and role of insurance in the international trade is very important, Insurance can not only promote the development of China's foreign trade industry, but also can support the national economic development, in addition, the insurance can also conducive to the foreign trade departments to carry out the work.

References:

1. Q. Zhang, "The role of credit insurance in China's export trade," Business Review, 2015, pp. 7-9.
2. Outreville, J. François, Insurance and foreign direct investment: a review (or lack) of evidence.
3. T.H. Huang, "Insurance status and role in international trade," China Finance, 1982, pp. 42-43.
4. Y.Q. Miao, "Role of export credit insurance in international trade," Economic Survey, 2004, pp. 55-57.
5. X.L. Li, "Research on the use of export credit insurance in risk aversion among foreign trade," Anhui University, 2014.
6. D.L. Li, "The role of research on Shipping insurance in the Shanghai International Shipping Center," Ningbo University, 2014.
7. S.X. Li, "Study on changes of business environment and the development of export credit insurance business environment," Ocean University of China, 2006.
8. F. Hu, "Study on China's export credit insurance role in promoting export trade," Shaanxi Normal University, 2012.
9. S.S. Fu, "Research on the effect and issues of export credit insurance," Dongbei University of Finance and Economics, 2015.



NODAVLAT UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABNING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI ANIQLASHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Ustadjalilova Xurshida Aliyevna

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini aniqlashning innovatsion usullari o'rganiladi hamda uning xorijiy mamlakatlarda amaliy namunalari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nodavlat ta'lim tashkilotlari, loyiha, investitsion faoliyat, model, Porter kuchlari, raqobatchilarning strategik guruhlar xaritasi, STEP(PEST) tahlili, SWOT tahlil.

Abstract: In this article, innovative methods of determining the effectiveness of the activities of non-governmental educational organizations are studied and its practical examples in foreign countries are thoroughly analyzed.

Key words: non-governmental educational organizations, project, investment activity, model, Porter's forces, map of strategic groups of competitors, STEP (PEST) analysis, SWOT analysis.

Аннотация: В данной статье изучаются инновационные методы определения эффективности деятельности негосударственных образовательных организаций, а также подробно анализируются их практические примеры в зарубежных странах.

Ключевые слова: неправительственные образовательные организации, проект, инвестиционная деятельность, модель, силы Портера, карта стратегических групп конкурентов, STEP (PEST)-анализ, SWOT-анализ.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish maqsadida sohani rivojlantirish yo'llari va shakllarini aniqlash, samarali yechim topishda innovatsion usullaridan foydalanilmoqda. Prezidentimiz yoshlar bilimiga, nodavlat ta'lim xizmatlari sifatiga e'tibor berar ekan: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch imkoniyatlarini safarbar etamiz", – deya ta'kidlaydi.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish yo'nalishida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlardan biri ta'lim xizmatlarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish va jahon oliy ta'lim tizimiga, shu jumladan, mamlakatimiz ta'lim tizimiga ham yangidan-yangi, talab darajasidagi raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratishdan iboratdir.

Rivojlangan mamlakatlarni nodavlat ta'lim xizmatlari, jumladan, Yevropa mamlakatlaridan Germaniya, Buyuk Britaniya va Osiyo mamlakatlaridan Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya tizimi turlicha tashkil etilgan bo'lsa-da, ulardagi o'quv, o'quv uslubiy ishlari tashkil etilishi ham o'zlarini turlicha ijobiy tomonlari bilan ajirali turadi.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Nodavlat ta'lim muassasalarini boshqarishni xususiyatlari, xorijiy tajribalar va ularni O'zbekistonga tadbiq etishni rivojlantirish va bu sohadagi muammolarning tub asoslari, fundamental qoidalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlarida har tomonlama chuqur yoritib berilgan ^[2].

Ta'limning xizmat xususiyatlari, ta'lim xizmatlariga oid ilmiy tadqiqotlar, nodavlat ta'lim xizmatlarining menejment va marketing masalalari, Ye.V.Burdenko ^[7], Sh.M.Aliyev ^[6] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ta'lim xizmatlariga oid tizimli tadqiqotlar Altbach P.G., Kelly G.P. ^[3] kabi xorijiy olimlar va mamlakatimiz olimlaridan M.Q.Pardayevning ^[10] ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.



Shunga qaramay, hozirgi sharoitda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari, ta'limda samarali boshqaruvni tashkil etish yo'nalishlari, ta'lim muassasalarida boshqaruv usul va uslublari takomillashtirish keng tahlil qilinmagan va bu esa mazkur izlanishlarni yo'nalishini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rganish jarayonida mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nodavlat ta'lim tashkilotlari kabi innovatsion loyihalarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash modelini yaratish tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Xavfni tashqi yoki ichki sharoitlar ta'sirida moddiy va nomoddiy yo'qotishlarning mumkin bo'lgan xavfi sifatida aniqlash mumkin. Asosiy xavflarga nodavlat tashkilotning faoliyatidagi xavflarga iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy kabi xavflarga ajratish mumkin.

Samaradorligini baholash modelini yaratishning birinchi bosqichi ta'limda "Xususiy maktab" innovatsion loyihalarni amalga oshirish samaradorligini to'liq aks ettiruvchi baholash mezonlarini aniqlashdan iborat.

Mazkur adabiyotlarni tahlil qilish asosida ta'lim tizimida innovatsion loyihalarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholashning to'rtta integral ko'rsatkichini aniqlashimiz mumkin (1-jadvalda keltirilgan).

1-jadval: Ta'limda innovatsion loyihalarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari [9]

Ko'rsatkichlar	Tarkibi
Investitsion jozibadorligi	Sof joriy qiymat, ichki daromad darajasi, rentabellik darajasi va boshqalar.
Tijoratlashtirish potentsiali	Murakkab yillik o'sish sur'ati, bozorda rejalashtirilgan mahsulot ulushi (xususiy maktablar soni), loyihani amalga oshirishdan manfaatdor tomonlarning mavjudligi va potentsial talab
Marketing	Tashkilotni reklama qilish, kommunikativ kanallari, ta'lim xizmatlari rejasi, marketing investitsiyalari rentabelligi baholash
Birlik (Unit) iqtisodiyoti	Mijozlarni chaqirish narxi, mijozning qadri, Xizmatlarni tannarxi, mijoz daromadi

Jadvalda investitsion jozibadorlik guruhi loyihaga investitsiyalarning daromadliligi va diskontlangan daromadlarni potentsial ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Bitta mijozni jalb qilish xarajatlarini umumiy baholash uchun miqdorning mijozlar soniga xarajatlar nisbatiga ko'ra aniqlanadi. Ta'lim xizmatlarini taklif qilinishi uzoq muddatli bo'lganligi sababli, mijoz bilan bir yil va undan ortiq bo'lgan vaqt uchun shartnoma tuziladi va xizmat ko'rsatishning bir necha yillik to'lov qiymati hisoblanadi.

Ushbu jadvalda keltirilgan analitik usullar, bizning fikrimizcha, ta'lim muassasalarida qabul qilinadigan eng samarali innovatsion tahlil usullarini ajratib ko'rsatishga imkon berdi. Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatida boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchilarning axborot ehtiyojlariga qarab tahlilning har xil turlari va turlaridan foydalanish mumkin (2-jadval).

2-jadval: Nodavlat ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan analitik tahlil turlarining tasnifi [4]

Xususiyati	Tahlil turi	Ta'lim muassasalarida mavjudligi
Takroriylik bo'yicha	Davriy: yillik, yarim yillik, choraklik, oylik, o'n kunlik, kunlik, smenali, davriy bo'lmagan tahlil: bir martalik	Yillik har doim, qolganlari ta'lim dasturiga, tashqi muhit ta'siriga bog'liq
Hal qilinayotgan vazifalar ko'lamiga bo'yicha	Istiqbolli, operativ, ekspress-tahlil, yakuniy	Istiqbolli - maqsadlar, uzoq muddatli prognozlar samaradorligini baholash, shu jumladan ilg'or ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish, operativ - ta'lim va iqtisodiy ishlarning holatini baholash, ekspress- tahlil - ta'lim muassasasining moliyaviy farovonligi va rivojlanish dinamikasi bo'yicha operativ baho olish. Umuman olganda ta'lim muassasasi faoliyatini baholash maqsadida o'quv yili natijalariga ko'ra yakuniy.



Ko'lam bo'yicha hal qilinadigan vazifalar	Ichki va tashqi	Ichki - kadrlar tayyorlashni tashkil etish, o'quv muassasalarining tuzilishi, jihozlari, resurslari, ta'lim xizmatlari sifati va boshqalarni baholash. Raqobat siyosatini tanlash uchun tashqi, ta'lim xizmatlari bozorini segmentatsiyalash va boshqalar.
Tahlil hajmi bo'yicha	Umimiy, tanlanma, hududiy, tematik	Barcha turlari mavjud. To'liq qismi ta'lim muassasasi faoliyati to'g'risida, qolganlari hozirgi paytda uning alohida tomonlari va qiziqishlari haqida to'liq ma'lumot beradi.
Obyektni o'rganish usullari bo'yicha	Har tomonlama, sifatli, miqdoriy, qiyosiy, dispersiya. O'zaro ta'sir, matritsa, model, korrelyatsiya, teskari aloqa, omil	Barcha turlari tahlil maqsadiga qarab mavjud
Tadqiqotning mavzu yo'nalishlari bo'yicha	Moliyaviy, menejment, innovatsiyalar, ishlab chiqarish yoki operatsion	Barcha turlari o'ziga xosdir

Tahlilning barcha turlari, oxir-oqibat, bir-biri bilan kesishadi va ularni amalga oshirish usullarida aks etadi. Analitik usullarni ko'rib chiqish, tadqiqotchi S.Urazovning fikricha, ta'lim muassasalarida qabul qilinadigan uchta eng samarali innovatsion tahlil usullarini ajratib ko'rsatishga imkon berdi: 5 Porter kuchlari, raqobatchilarning strategik guruhlar xaritasi, STEP(PEST) tahlili ^[4].

Ta'lim muassasasining faoliyati uning nazorati doirasidan tashqarida bo'lgan va uning faoliyatiga ta'sir etadigan tashqi muhitni tahlil qilishdan boshlanadi. Tashqi muhitni tahlil qilishni shartli ravishda mikromuhit va makro muhitni tahliliga bo'lish mumkin. Ushbu model 1979-yilda mashhur iqtisodchi Maykl Porter tomonidan tasvirlangan. U tashkilotning unumdorligi va raqobatbardoshligini tahlil qilish va kelajakda ham ushbu ko'rsatkichlarni yuqori darajada ushlab turish imkonini beradigan to'liq model hisoblanadi ^[4].

Maykl Porter ushbu modelni yaratganida, bozorda har bir mahsulotning raqobatbardoshligini belgilaydigan besh xil kuch mavjudligini aytgan:

- xaridorlar ma'lum bir segmentda savdolashish qobiliyatiga ega;
- korxonalarni xomashyo yetkazib berishga ta'sir qiluvchi yetkazib beruvchining savdolashish qobiliyati;
- raqobatni kuchaytirish uchun bozorga yangi ishtirokchilarning kirishi tahdidi;
- pul o'rnini bosuvchi mahsulotlarning qimmatligi xavfi;
- tanlangan bozordagi raqobat darajasi.

Ta'lim muassasasi mikromuhitini tahlil qilish, bu ta'lim yoki mehnat bozorida katta o'zgarishlar yuz bergan taqdirda har yili yoki bir martalik amalga oshiriladigan hayotiy faoliyatdir. Ta'lim muassasasining tashqi ishbi-larmonlik aloqalarining eng yaqin sohasini tashkil etuvchi mikro muhitni tahlil qilishdan maqsad uning ta'lim tizimidagi raqobatbardoshligi va mavqeyini baholashdir. Ushbu tahlilda Porterning 5 ta kuch modeli va matritsali tahlil-raqobatchilarning strategik guruhlar xaritasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotdan ko'rinib turibdiki, Porterning 5 ta kuchlari modeli ta'lim tizimidagi ta'lim muassasasining haqiqiy mavqeyi va uning jozibadorligi to'g'risida to'liq tasavvur ega bo'lish imkonini beradi. Yangi raqobatchilar paydo bo'lish xavfini baholashda ta'lim xizmatlari bozoriga kirishning murakkabligi va qulayligi hisobga olinadi.

Matritsali tahlilni ta'lim muassasalarida qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Matritsa tahlili - raqobatchilarning strategik guruhlar xaritasi, ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlari bozorida qanday raqobatbardosh pozitsiyalarga ega ekanligini baholashga imkon beradi. Qo'shimcha ta'lim muassasalari ta'lim berishini hisobga olsak o'quvchilarning turli yosh toifalari va turli sohalardagi xizmatlari, keyinchalik raqobatchilarning strategik guruhlar nafaqat ta'lim muassasasining o'zi, balki ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari uchun ham tuzilishi kerak. Mahalliy ommaviy axborot vositalarini ko'rib chiqish orqali bir xil yo'nalishlarda xizmat ko'rsatuvchi Internet-resurslar, ta'lim muassasalari va boshqa yuridik shaxslar aniqlanadi, shundan so'ng olingan ma'lumotlar ta'lim muassasalari va ta'lim xizmatlari tomonidan guruhlariga bo'linishi va o'z raqobatchilari haqida haqiqiy tasavvurga ega bo'lishi mumkin.

Tashqi makro muhitni o'rganish uchun tashqi omillarni kompleks ijtimoiy (Social), texnologik (Technological), iqtisodiy (Economic), siyosiy(Political) tahlil asosida amalga oshiriladigan STEP modelini yoki uni PEST-tahlil deyish maqsadga muvofiqdir.

PEST tahlili atrof-muhit omillarining ta'sirini hisobga olgan holda uzoq muddatli (3 yildan 10 yilgacha) rejalashtirish uchun marketing vositasidir ^[11].

PEST tahlili ko'p jihatdan SWOT tahliliga o'xshaydi – jadval tuzilib, unda biz omillar va ularning biznesga ta'sirini ko'rsatamiz, olingan ma'lumotlardan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish uchun foydalanamiz. Ammo farqli tomoni - SWOT tahlili tashqi ("Imkoniyatlar" va "Tahdidlar") va ichki ("Kuchli va zaif tomonlar") omillarni o'rganadi, PEST tahlili esa faqat tashqi omillarga asoslanadi ^[12].



N.Golivcovaning “Strategik menejment” nomli o’quv-amaliy qo’llanmasida PEST-tahlili texnikasi ta’lim muassasasiga potentsial tahdidlar va yangi imkoniyatlarni aniqlash uchun atrofdagi makromuhitning eng muhim omillari holatini baholash va ularning rivojlanishini bashorat qilish imkoniyatini berilishi berilgan va tahlilni amalga oshirish yo’llari hamda bosqichlari amaliy jihatdan ochib berilgan [8].

Bular:

Birinchi bosqich – uzoq muddatli (3-5 yil) bo’lib, unda ta’lim xizmatlari bozorida ta’lim muassasasi faoliyati va daromadi bo’yicha ta’sir qilishi mumkin bo’lgan omillar ro’yxatini tuzish. Ushbu omillarni 4 guruhga ajratilgan: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va texnologik.

Ikkinchi bosqich – har bir omilning ta’sirining kuchini aniqlash.

Uchinchi bosqich – omil o’zgarishi ehtimolini baholash.

To’rtinchi bosqich – har bir omilning haqiqiy ahamiyatini hisoblash.

Haqiqiy ahamiyat tashkilotning tashqi muhitdagi o’zgarishlar omiliga qanchalik e’tibor berishi va uni nazorat qilishi kerakligini baholashga imkon beradi va ushbu omilning tashkilotga ta’sir qilish kuchiga qarab hisoblangan omilning o’zgarishi ehtimoli sifatida hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ta’sir qilishi mumkin bo’lgan omillar va STEP(PEST) tahlili jarayonida ko’rib chiqilgan, biz uni 3-jadvalda keltirib o’tdik.

3-jadval: STEP(PEST) tahlilida ko’rib chiqilgan ta’sirlar [4]

Siyosiy	Iqtisodiy
1. Amaldagi qonunchilik va qonunchilik- dagi rejalashtirilgan o’zgarishlar. 2. Moliyalashtirish, grantlar va tashabbus lar. 3. Hokimiyatning barcha darajalaridagi saylovlar. 4. Ekologik muammolar va boshqalar.	5. Iqtisodiy vaziyat va tendentsiyalar. 6. Inflyatsiya darajasi. 7. Soliq. 8. Samarali talab va iste’molchilar ehtiyojlari. 9. Asosiy tashqi xarajatlar (energiya, transport, xom ashyo va butlovchi qismlar, aloqa) va boshqalar.
Ijtimoiy	Texnologik
1. Demografiya. 2. Asosiy qadriyatlar. 3. Hayot tarzi tendentsiyalari. 4. Brend, ta’lim muassasasining obro’si, foydalanilgan texnologiya qiyofasi. 5. Iste’molchilarning fikrlari va munosabatlari. 5. 6. Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar va boshqalar.	1. Ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish. 2. Yangi texnologiyalarni o’zgartirish va moslashtirish. 3. Axborot va aloqa, internetning ta’siri. 4. Texnologiyalar, litsenziyalash, patent lardan foydalanish. 5. Intellektual mulk muammolari va boshqalar.

STEP tahlili natijalari umumlashtirilib, shu asosda nodavlat ta’lim muassasasi faoliyati uchun tashqi muhitdagi o’zgarishlarning aniqlangan tendentsiyalari baholanadi. Shunday qilib, bizning fikrimizcha, STEP tahlilini muntazam ravishda va to’rtta omil guruhidan biri ta’sirida keskin o’zgarish yuz berganda, bu tashqi muhit muammolari strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko’rib turganimizdek, ushbu innovatsion tahlil usullari ta’lim muassasasining ichki muhitini (boshqaruv tizimi, o’qitish uslublari, kadrlar, iqtisodiy va moliyaviy faoliyat) tashkil etuvchi omillarni hamda ta’lim muassasasining tashqi makro va mikro muhitini (iste’molchilar, raqobatchilar, sheriklar, jamoatchilik fikri) baholash va bashorat qilishga imkon beradi. O’z vaqtida o’tkazilgan tahlil o’quv muassasasiga imkoniyatlardan to’liq foydalanishga, tahdidlarni va ularning oqibatlarini yumshatishga yoki ularni imkoniyatlarga aylantirishga imkon beradi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, nodavlat ta’lim muassasasi faoliyati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish asosida, imkoniyatlar va tahdidlarni baholash, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash usullaridan foydalanib, Porterning 5 ta kuchidan, raqobatchilarning strategik guruhlar xaritasidan, STEP(PEST) tahlilidan foydalanish yuqori samaradorlik keltiradi.

Muntazam ravishda olib boriladigan tashqi tahlil ta’lim muassasasi faoliyatiga u yoki bu darajada ta’sir qilishi mumkin bo’lgan o’zgarishlar belgilarini aniqlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 15-sentyabrdagi PQ-3276-sonli qarori. lex.uz>uz/docs/-3343077
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil 6-iyun.
3. Altbach P.G., Kelly G.P. New Approaches to Comparative Education. Chicago and London: The University of Chicago Press, 2006. 228 p.
4. S.Urazov. Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishda tahlilning innovasion usullaridan amaliy foydalanish //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2021. VOLUME 1. 543-549 b Strategik boshqaruv vositalari. Porterning 5 ta kuch tahlili: misol/Marketing bo'yicha maslahatlar 2024 <https://uz.havethebestelectronics.co>
5. Urokboyevich T. S. Turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 4. – С. 1128-1132.
6. Алиев Ш.М. Рынок образовательных услуг и вопросы его регулирования : Дис... канд. экон. наук. – М.: РЭА, 2012.
7. Бурденко Е.В. Рынок образовательных услуг в трансформируемой экономике:Дис...канд. экон. наук. - М.: РЭА, 2014.
8. Голицова Н.Н. Стратегический менеджмент: учебно-практическое пособие/ВШТЭ СПбГУПТД – СПб., 2016.- 49с.
9. Грачева М.В., Ляпина С.Ю. Анализ и управление рисками инновационной деятельности // Инновации. 2006. № 1 (88). С. 38–47.
10. М.Қ.Пардаев "Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари" монография Тошкент-2014 йил, 20 бет
11. Портер Майкл Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов / пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Бук, 2005. – 454 с.
12. Л. Санамян. PEST-анализ – что это, перечень факторов. SWOT и PEST: в чем сходство и отличие анализов <https://otzyvmarketing.ru/articles>
13. Umarovna, Radjabova Gavhar. "Features Of The Market Of Educational Services And The Problem Of Interaction Of Higher Educational Institutions With Employers." E Conference Zone. 2022.
14. Umarovna, Rajabova Gavkhar. "Conceptual Foundations For Improving The Organizational And Economic Mechanism Of The University Management System." International Journal of Early Childhood Special Education 14.8 (2022).
15. Umarovna, Radjabova Gavkhar. "Increasing The Competitiveness Of Universities In The Market Of Educational Services." Open Access Repository 9.11 (2022): 269-273.
16. Umarovna, Rajabova Gavkhar. "Improving The Performance Management Of The Higher Education System In The Republic Of Uzbekistan." Open Access Repository 8.11 (2022): 81-86.



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN RESPUBLIKAMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya: Buguni kunda qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyatining asosiy maqsadi ijobiy moliyaviy natijaga erishish, ya'ni yuqori darajada foyda olish hamda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahon bozorlariga chiqarish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Qishloq xo'jaligi korxonalarining jahon bozoriga chiqish, xorijiy hamkorlarning moliyaviy natijalari hisobi va auditi xususiyatlarini aniqlash, ularga moliyaviy hisobot va auditni xalqaro standartlarini qo'llanilishi tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishga qaratilgan ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, asosiy vositalar hisobi, foyda, moliyaviy natijalari, audit, xalqaro standartlar, balans, rentabellik.

Abstract: Today, the main goal of agricultural enterprises is to achieve a positive financial result, that is obtaining a high level of profit and releasing agricultural products to world markets. The determination of the features of accounting and auditing of the financial results of foreign partners of agricultural enterprises entering the world market, and the application of international financial reporting and auditing standards to them are analyzed. In the context of globalization, scientific conclusions and recommendations have been developed aimed at organizing the accounting of financial results based on international standards.

Key words: Agriculture, fixed asset accounting, profit, financial results, audit, international standards, balance sheet, profitability.

Аннотация: Сегодня основной целью деятельности сельскохозяйственных предприятий является достижение положительного финансового результата, то есть получение высокого уровня прибыли и выпуск произведенной сельскохозяйственной продукции на мировые рынки. Проанализировано определение особенностей учета и аудита финансовых результатов иностранных партнеров сельскохозяйственных предприятий, выходящих на мировой рынок, применения к ним международных стандартов финансовой отчетности и аудита. В условиях глобализации разработаны научные выводы и рекомендации, направленные на организацию учета финансовых результатов на основе международных стандартов.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, учет основных средств, прибыль, финансовые результаты, аудит, международные стандарты, баланс, рентабельность.

KIRISH

Jahon amaliyotida asosiy vositalarni muntazam ravishda modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish uchun doimiy ravishda qo'llab quvatlashdan biri moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va ulardan foydalanishdir. Shu bilan birgalikda, xalqaro bozorga chiqish xorijiy hamkorlarning moliyaviy natijalari hisobi va audit xususiyatlarini aniqlash, ulardan moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari asosida tashkil etishga qaratilmoqda. Darhaqiqat jahoning ko'pgina davlatlari fon birjalarida aksiyalari joylashtirilgan kompaniyalardan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish talab etiladi. Mam-



lakatimiz iqtisodiyotining turli soha va tarmoqlarda faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalar hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish zarurati hozirgi globallashuv jarayonida mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Jahon mamlakatlarida iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishga qaratilgan ko'pgina ilmiy tatqiqotlar olib borilmoqda. Ana shu tadqiqotlarda daromad va xarajatlarni tan olish, turli balans nazariyalarida moliyaviy natijalarni shakllantirish, buxgalteriya hisobida moliyaviy natijalarni turli konsepsiyalar bo'yicha aks ettirish, moliyaviy natijalar bo'yicha buxgalteriya hisobi axborot ta'minotini takomillashtirish, moliyaviy natijalar auditda tahliliy amallarni qo'llash, rentabellik ko'rsatkichlarni tahlil qilish masalalari o'z yechimini topgan.

E'trof etish joizki, tadqiqolar yo'nalishida ayni paytda daromad va xarajatlarni tasniflash, yalpi daromad to'g'risida hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirish, moliyaviy natijalar yuzasidan hisob axborotlarining ishonchililigini oshirish, rentabellik ko'rsatkichlarni aniqlash, moliyaviy natijalar auditi sifatini oshirishni takomillashtirishga erishilgan. Ammo, qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar hisobi va auditni xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil qilish bilan bog'liq muhim masalalar hozirgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan. Moliyaviy hisobotlarning sifati va ularning auditorlik tekshuruvlaridan o'tkazilishi xalqaro standartlar talablariga mos kelmaydi. Bu esa, qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va audit bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanishda keng imkoniyatlardan foydalanish talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Rivojlangan mamlakatlarda asosiy vositalarni muntazam ravishda modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish uchun doimiy ravishda qo'llab quvatlashdan biri moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va ulardan foydalanishdir. Shu bilan birga, xalqaro bozorga chiqish xorijiy hamkorlarning moliyaviy natijalari hisobi va audit xususiyatlarini aniqlash, qishloq xo'jaligi korxonalardan moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari asosida tashkil etishga qaratilmoqda.

Dalatimiz rahbari tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqish uchun eksportni yiliga kamida 30 foizga oshirib borish zarurligini hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hududlarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini qabul qilish vazifasi belgilab berilgan. Jumladan, talab yuqori bo'lgan 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotini yurtimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, qishloq xo'jaligi korxonalari, oziq-ovqat korxonalarida xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha topshiriqlar berilgan¹.

Moliyaviy natijalar hisobi va audit ta'komillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarda, jumladan, International Accounting Standards Board (IASB), Pricewaterhouse Coopers, KPNG, University of South Florida (AQSH), Kyushu University (Yaponiya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti hamda o'zimizning milliy institutlarimiz ham bu boradagi izlanishlarni olib bormoqda, ya'ni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan olib borilmoqda.

Moliyaviy natijalar hisobi va audit ta'komillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar bo'yicha qator ilmiy natijalar olingan. Jumladan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) asosida yalpi daromad to'g'risida hisobotni tuzish va taqdim qilish qoidalari ishlab chiqilgan International Accounting Standards Board (IASB), MHXS talablariga muvofiq daromadlarni tan olish metodologiyasi tavsiya etilgan (Pricewaterhouse Coopers, Deloitte & Touche), dialektik yondoshuv asosida foydaning shakllanishi genezisi tadqiq etilgan (Kyushu University).

Jahonda moliyaviy natijalar hisobi va audit ta'komillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar bilan bog'liq asoslarni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yalpi daromad to'g'risida hisobotni transformatsiya qilish jarayonlarini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarni raqamli formatda taqdim etishni takomillashtirish, moliyaviy natijalar audit sifati va axborotlar shaffofligini oshirishning metodologik masalalar bo'yicha keng ustuvor vazifalar bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.²

A.N.Magomedov tomonidan rivojlangan mamlakatlarning tajribalari o'rganilgan bo'lib, Yaponiyada guruch, bug'doy, go'sht va sut mahsulotlari iste'mol narxining 20 foizini davlat tartibga solib turadi. Fransiyada ham narxning 20 foizi davlat tomonidan tartibga solinadi. AQSHda esa tartibga solishning bilvosita tizimi qo'llanadi³. D.R.Raxmonov va I.M.G'aniyevlar tomonidan O'zbekistonda davlat g'alla zaxiralarini shakllantirish va taqsimot tartibini o'zgartirish masalalari o'rganilgan⁴.

1 <https://president.uz/uz/lists/view/6975>

2 <https://ifrs.org>; <https://aicpa.org>; <https://pws.com>; <https://home.kpmg/xx>; <https://tsue.uz>

3 Магомедов А.Н. Финансовая и институциональная структура кредитования сельского хозяйства в США// Ж. АПК: экономика и управление. – М.: 2011, № 3. – С. 83- 89.

4 Беспехотный Г.В., Ушачев И.Г. Воспроизводства в аграрной экономике: вопросы теории, государственного регулирования и эффективности производства. – Тула: ПАХН, 2009. – С. 32-34.



O'rganish natijasida, qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy holatini xalqaro standartlar talablari asosida tashki qilish hamda mamlakatimizda moliyaviy natijalar hisobining to'g'ri yuritilishi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning ishonchliligi ko'p jihatdan hisob prinsplarining o'z vaqtida, to'g'ri hamda aniq qo'llanishga bog'liq. Avvalo faoliyatning uzluksizligi, hisobot davrilagi daromadlar va xarajatlarning bir-biriga muvofiqligi olingan daromadlarning sariflangan xarajatlarga mos kelishi hamda ehtiyotkorlik prinsplari moliyaviy natijalar to'g'risidagi buxgalteriya hisobi axboratlarining ishonchliligini ta'minlash maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil va sintez, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil usuli orqali moliyaviy natijalar hisobi va auditi takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar orqali mamlakatimizda qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy natijalar hisobining to'g'ri yuritilishi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning ishonchliligi ko'p jihatdan hisob prinsplarining o'z vaqtida, to'g'ri hamda aniq qo'llanishga qaratilgan umumiy va o'ziga xos bo'lgan jihatlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR HAMDA TAHLILLAR

Globalashuv sharoitida har bir mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining uzluksizligini ta'minlash uchun chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqadi. Ushbu tizim ichki bozorni himoya qilishga qaratilgan siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bunda iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan himoya darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ko'plab mamlakatlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va oziq-ovqat savdosida tashqi omillarning salbiy ta'sirini oldini olishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirganlar.

Lekin, mazkur strategik chora-tadbirlar ba'zi davlatlarja o'zining ijobiy natijalari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilgan, jumladan ⁵:

1. O'tgan asrning 1943-yilidan "Yashil" inqilob dasturi Meksika qishloq xo'jaligida ekinlar hosildorligini oshirishga qaratilgan edi. Meksika tajribasi va yangi navli urug'lar Kolumbiya, Hindiston, Pokiston, Shri-Lanka va Filippinda keng tatbiq etildi. 1990-yilga kelib Afrikada jami ekin maydonlarining 50 foizi, lotin Amerikasi va Osiyoda 70 foizini qamrab oldi. Natijada, bug'doy ishlab chiqarish hajmi o'sdi. Jahonda 1960–2000-yillar davomida bug'doy hosildorligi 208 foizga oshdi. Lekin, atrof-muhit va tuproqning yomonlashishiga, kimyoviy o'g'it va pestitsidlardan haddan ortiq foydalanishga, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning xilma-xilligining kamayishiga olib keldi. Bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi narxni pasayishiga va fermerlarning inqiroziga olib keldi. Umuman, "Yashil" inqilob dasturi ocharchilik va kambag'allik muammosiga majmuali yondashuv zaruratini namoyon etdi. Biroq faqat qishloq xo'jaligi tarmog'ida hosildorlikni oshirish bilan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlab bo'lmazligi tan olindi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va tashqi savdoning ahamiyatiga e'tibor qaratishga olib keldi;
2. Tashqi savdoni erkinlashtirish siyosati jahon bozorida mahsulot narxini eng past chiqimlar bilan belgilash imkonini berdi. Ishlab chiqarish hajmini oshirish va resurslarni oqilona taqsimlashga olib keldi. Bu esa, jahon bozorida narxlarning keskin tebranishiga sabab bo'ldi va ko'plab mamlakatlarda noqulay bozor kon'yunkturasidan himoyalanihga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi (ishlab chiqaruvchilarni himoyalash uchun kompensatsiya to'lovlari joriy etildi, xaddan tashqari ko'p yetishtirishni oldini olishga qaratilgan yordam pullari berildi);
3. Tashqi savdoni cheklash siyosati. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini rag'batlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ko'plab mamlakatlar importga nisbatan cheklovlar joriy etdi. Tashqi savdo cheklovlari oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizini milliy bozorlarda iste'mol qilishga olib keldi. Shuningdek, oziq-ovqat eksportiga kiritilgan cheklovlarda milliy bozorni barqarorlashtirish va aholiga iqtisodiy imkoniyat yaratish maqsadi nazarda tutildi. Eksport va import cheklovlari ijobiy natijalari bilan birga barcha mamlakatlarda qonunbuzarlik, korrupsiya va noqonuniy savdo uchun qulay sharoit yaratdi. Chunki, ichki va tashqi bozordagi narxlar o'rtasida yuqori farq vujudga keldi. Bunda ichki xarid narxlari inflyatsiyadan ortda qoldi va ushbu narxlar ishlab chiqaruvchilar uchun manfaatsiz bo'lib qoldi. Mazkur shart-sharoitlar ishlab chiqarish xarajatlari o'rnini qoplovchi davlat subsidiyalarining hajmini ortishiga olib keldi;
4. Iste'molni qo'llab-quvvatlash siyosati maqsadli oziq-ovqat bilan ko'mak dasturlari jami aholi yoki uning maxsus guruhlariga uchun qaratilgan edi. 1960 yillarda sobiq ittifoq mamlakatlarida chorvachilik mahsulot-

5 Минаков И.А. Кооперация и агропромышленная интеграция в АПК. – М.: Экономика, 2007. – С. 26-27.



larining iste'molini oshirish uchun qayta ishlovchi tarmoqlarga subsidiyalar ajratildi. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari ham sobiq ittifoqdan o'rnak olib, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishiga subsidiya kiritib boshlashdi. Natijada chorvachilik mahsulotlarining iste'mol ko'rsatkichi oshdi. AQSHda esa oziq-ovqat kuponlari dasturi amalga oshirildi. Bundan tashqari, universal oziq-ovqat bilan ko'mak dasturlari ham amal qilib, jami aholining minimal iste'mol darajasini kafolatlash uchun mamlakat miqyosida subsidiya berildi. Lekin, ko'plab mamlakatlarda iste'molchilar uchun subsidiyalar ajratishdan voz kechildi, chunki iqtisodiy chiqimlarga qiyoslaganda ularning samaradorlik darajasi past edi va importning hajmini oshishiga olib keldi.

Umuman olganda, jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlarining zaxiralari shakllanishining hozirgi va kutilayotgan tendensiyalari va uning murakkabligini e'tiborga olgan holda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi bugungi kunda ham, kelajakda ham ichki ishlab chiqarish hisobiga ta'minlanadi. Ichki ishlab chiqarish hisobiga o'zini o'zi ta'minlash davlatning o'z qobig'iga o'ralib olishini bildirmaydi, aksincha, eksport uchun ishlab chiqarish hajmlarini oshirib borish va import tarkibini takomillashtirish to'g'risida so'z bormoqda. Bu xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklaridan va jahon bozorining qulay kon'yunkturasidan foydalanish bilan bir qatorda mamlakatning qishloq xo'jaligi mahsulotlarining doimiy rag'batlantirish hamda yetishturuvchi korxonalarga mustaqilligiga ko'mak beradi.

Moliyaviy natijalarni qishloq xo'jaligi korxonalarda xalqaro standartlar tablari darajasida shakllantirishda organik balansning samarasi va undan foydalanish mexanizmi taklif etilgan. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning ishonchligini ta'minlash maqsadida buxgalteriya hisobi axborotlarining sifatini orirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar berilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umumtan olinganligi va maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, xo'jalik yurutuvchi subyektlarga oid ma'lumotlarning hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining normativ-huquqiy hujjatlar hamda xo'jalik yurutuvchi subyektlar tomonidan moliyaviy natijalar hisobi va auditni takomillashtirishda foydalanishga joriy etilganligi bilan tasdiqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida asosiy vositalar hisobi va auditni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotda quydagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

birinchidan, buxgalteriya hisobida moliyaviy natijalar, foyda, zarar, daromad, xarajat, chiqim, sarf singari iqtisodiy kategoriyalar keng qo'llanildi. Tadqiqot davomida qishloq xo'jaligi korxonalarda asosiy vositalar buxgalteriya hisobi tizimida moliyaviy natijalarning tutgan o'rniga baho berildi. Shuningdek, chiqim, sarf va xarajat kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi va farqli jihatlar bo'yicha aniq belgilangan tartib ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, Moliyaviy natijalar hisobining to'g'ri yuritilishi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning ishonchligi ko'p jihatdan hisob prinsiplarining o'z vaqtida, to'g'ri hamda aniq qo'llanilishga bog'liq. Avvalo, faoliyatning uzluksizligi, hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning bir-biriga muvofiqchiligi, olingan daromadlarning sarflangan xarajatlarga mos kelishi hamda ehtiyotkorlik prinsiplari moliyaviy natijalar to'g'risidagi buxgalteriya hisobi axborotlarining ishonchligini ta'minlash xizmat qiladi;

uchinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalarining foydani oshirishning yangi imkoniyatlarini topish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu esa, moliyaviy natijalarni shakllantirishning konseptual jihatlarini takomillashtirishni talab etadi;

to'rtinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari importini tartibga solish masalasi nisbatan murakkab ko'rinish oladi. Bu esa bir tomondan, mahsulotlarning taqchilligini bartaraf etish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoyalash masalasi oqilona tarzda hal etilishi bilan bog'liq.

Yuqorida keltirilgan qishloq xo'jaligi korxonalarda audit sifatining nazorati tekshuruvining har bir bosqichida o'tkazilishi hamda moliyaviy natijalar auditi ishi sifatini baholashda moliyaviy natijalar shakllanishining barcha bosqichlarini o'rganish maqsadga muvofiqligi o'rganildi. Tadqiqotda keltirilgan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish qishloq xo'jaligi korxonalarda moliyaviy natijalar hisobi va auditning takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, mamlakat aholisining barcha qatlamlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlar bilan uzluksiz ta'minlash birinchi galdagi vazifa sifatida qaraladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

В вышеуказанной таблице на 1 января 2024 года показано общее количество предприятий сферы услуг Андижанской области – 30752 единицы, а также (в том числе) предприятий бытового обслуживания – 7077 единиц и их доля в общем количестве – 23,0%. Аналогичные показатели приведены в разрезе регионов Андижанской области.

Перечисленные показатели свидетельствуют о неравномерности количественного соотношения доли бытового обслуживания в общем объеме сферы услуг регионов Андижанской области и обуславливает их дальнейшее увеличение. Обеспечение социально-экономического развития в основном зависит от функций регулирования и непрерывного мониторинга, обеспечения нормативно-правовой базы органами власти при создании необходимых условий для развития всех сфер и видов деятельности региона.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Бытовое обслуживание выступает как часть отрасли общественного производства - сферы обслуживания в целом и в этом качестве обладает всеми признаками подотрасли, а в рамках более детального измерения - самостоятельной отрасли обслуживания населения. Бытовое обслуживание населения во всех его проявлениях по характеру используемого в его сфере труда присутствует как в форме индивидуального ориентированного материального производства и восстановлении потребительных стоимостей, так и в различных формах ненатурального производства, то есть в виде “чистых” услуг. Бытовому обслуживанию присущ целый ряд специфических особенностей, некоторым образом выделяющих его в особую подотрасль сферы обслуживания и отличающих от остальных отраслей общественного хозяйства.



Рассматривая бытовое обслуживание населения как подотрасль народного хозяйства, необходимо отметить специфичный характер продукта, создаваемого данной подотраслью, - услуг бытового характера. Услуги составляют часть общественного фонда потребительных благ. Они являются результатом развития и углубления общественного разделения труда. В процессе общественного разделения труда происходит обмен трудовой деятельностью различных категорий населения; одна из форм такого рода обмена деятельностью - услуги, в том числе и бытовые.

Таким образом, сфера бытовых услуг имеет большую социальную, экономическую и политическую значимость, а также очень прочно связана с задачей обеспечения экономического роста и повышения качества жизни населения. Увеличение социальной и экономической значимости индустрии услуг и в развитых странах, и особенно, в Республике Узбекистан требует самого высокого внимания к ней со стороны органов власти и управления. Это должно выражаться в оказании помощи в развитии сферы бытовых услуг и в участии властных структур в управлении ее деятельностью.

Список литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 "О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы". <https://lex.uz/ru/docs/5841077>.
2. Постановление Президента Узбекистана от 27 января 2022 года № ПП-104 "О дополнительных мерах по развитию сферы услуг". <https://lex.uz/docs/5840286>
3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 21.04.2022 года № 206 о "Дополнительных мерах по формированию программ развития социальной и производственной инфраструктуры и совершенствованию системы управления государственными инвестициями"
4. Департамента жилищно-коммунального хозяйства Андижанской области. <https://www.goldenpages.uz/company/?Id=91159>
5. Управление статистики Андижанской области. <https://www.goldenpages.uz/company/?Id=102418>
6. Баклакова В.В., Ступин А.О. Структура и особенности рынка услуг. Формирование благоприятного инвестиционного климата в сфере сервиса // Международный студенческий научный вестник. 2015. № 1. 30.11.2017).
7. Торопова А.И., Кокарева М.Е., Макарова К.С., Власова А.А., Ротанова В.А. Тенденция развития сферы услуг // Современные научные исследования и инновации. 2019. № 11 [Электронный ресурс]. URL: <https://web.snauka.ru/issues/2019/11/90764> (дата обращения: 14.06.2024).



HUDUDLARDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA ISHLAB CHIQUARISH SANOATINING O'RNI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

UDK 316.334.2

Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li

Mehnat bozori tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

Baxronov Baxriddin Najmiddinovich

Mehnat bozori tadqiqotlar instituti bosh ilmiy xodimi

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyatining tumanlari kesimida aniqlangan kambag'allik darajasi va viloyatning sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Shuningdek, hududlarda sanoat ishlab chiqarishning mintaqadagi bandlik darajasi hamda hududiy kambag'allik darajasiga ta'siri o'rganilgan va mazkur omillarning korrelyatsion-regression tahlili keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, maqolada Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarish imkoniyatlarini takomillashtirish hamda hududiy kambag'allik darajasini kamaytirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat ishlab chiqarish, kambag'allik, kambag'allik darajasi, hududiy kambag'allik, bandlik darajasi, aholi bandligi.

Abstract: The article analyzes the relationship between the level of poverty determined in the district of Kashkadarya region and the share of districts in the volume of industrial production of the region. Also, the influence of industrial production in the regions on the level of employment in the region and the level of regional poverty was studied, and a correlation-regression analysis of these factors was presented. In addition, the article elaborates proposals and recommendations on improving industrial production opportunities and reducing the level of regional poverty in Kashkadarya region.

Key words: industrial production, poverty, poverty rate, regional poverty, employment rate, population employment.

Аннотация: В статье анализируется связь между уровнем бедности, определяемым в районе Кашкадарьинской области, и долей районов в объеме промышленного производства региона. Также было изучено влияние промышленного производства в регионах на уровень занятости в регионе и уровень региональной бедности, а также представлен корреляционно-регрессионный анализ этих факторов. Кроме того, в статье разрабатываются предложения и рекомендации по улучшению возможностей промышленного производства и снижению уровня региональной бедности Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: промышленное производство, бедность, уровень бедности, региональная бедность, уровень занятости, занятость населения.

KIRISH

Ishlab chiqarish sanoati jahon iqtisodiyotida muhim mavqega ega bo'lib, turli mintaqalarda iqtisodiy o'sish va rivojlanishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy hissasidan tashqari, sanoatning ta'siri ijtimoiy o'lchovlarga, jumladan, mintaqaviy kambag'allik darajasiga va bandlik imkoniyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi jahon mamlakatlari tajribasida o'z isbotini topgan. Ishlab chiqarish tarmoqlari, mintaqaviy kambag'allik va bandlik o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun juda muhimdir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashining ta'rifiga ko'ra kambag'allik deganda odamlar, uy xo'jaliklar va jamoalarning himoyalanmaganligi, nochorligi hamda zaruriy ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi tushuniladi.



MAVZUGA OIL ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag'allikning sabablari va jamiyatdagi o'rini o'rganish XVIII asrdan XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davr ajratilgan, klassik iqtisodchi olimlar A.Smit, D.Rikardo, T. Maltus, G.Spenser, J.Prudon, E.Reklus va b., shuningdek, zamonaviy iqtisodchi olimlar Rovntri, F.Q. Xayek, P. Taunsend va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Klassik iqtisodchi olim A.Smitning asarlarida kambag'allik va ijtimoiy standartlar o'rtasidagi bog'liqlik nisbiy mohiyati ochib berilgan. XIX asrda kambag'allik chegarasini oila budjeti asosida hisoblash orqali mutlaq kambag'allik mezonini kiritish, kambag'allikni aniqlash mezonlarini daromad darajasi bilan bog'lash hamda shaxsning mehnat qobiliyati va sog'lig'ining muayyan darajasini saqlab qolish bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirishni taklif qilgan.

Mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash, mehnat bozorining rivojlanishi, ishsizlik kabi muammolar respublikamiz olimlari tomonidan chuqur o'rganilgan va o'rganilmoqda. Mazkur muammolar mamlakatimiz olimlaridan R.A. Ubaydullayeva, Q.X. Abdurahmonov, M.M. Muhammedov, L.P. Maksakova, B.X. Umurzakov, M.Q. Pardayev, Sh.R. Xolmo'minov, Z.Ya. Xudoyberdiyev, D.Ortiqova, D.N. Rahimova, N.X. Rahimova, N.Z. Zokirova, K.Z. Xomitov, N.U. Arabov, N.Shayusupova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida mamlakatimiz aholisini ish bilan ta'minlash, o'zini-o'zi band qilish kabi yo'nalishlar o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida kambag'allikni qisqartirishga oid tizimli yondashuv, qiyosiy va ekspert tahlili, abstrakt fikrlash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, zamon va makon, monografik va mantiqiy yondashuv kabi usullardan keng foydalanilgan. mavzuning dolzarbligini isbotlashda mazkur masala borasida olib borilgan tadqiqot natijalari, monografik tahlil kabi yondashuvlardan ham foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon tajribasida hududiy kambag'allik darajasini pasaytirishning iqtisodiy mexanizmlaridan keng tarqalgan usullaridan biri hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirishdir. Ayniqsa, kichik korxonalarning ish o'rinlarini yaratish va kam ta'minlangan aholi uchun daromad keltirishdagi ahamiyati ulkan. Sanoat klasterlari mahsuldorlik va daromadlarni oshirishi hududda bandlik hamda kambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, 1990-yillarning oxiridan boshlab AQSHda ishlab chiqarishdagi bandlik sezilarli darajada pasayish trayektoriyasida bo'ldi, buning natijasida an'anaviy ishlab chiqarish shtatlarda, ayniqsa, kuchli iqtisodiy pasayish davri boshlanishiga sabab bo'ldi. Bu pasayish AQSH iqtisodiyoti uchun jiddiy oqibatlarga olib keldi. AQSHda ishlab chiqarish sanoati yangi bosqichga chiqishi 2013-yilda 12 millionga yaqin ish o'rinlarini yaratgani yoki AQSH umumiy bandligining qariyb 8,8 foizini ish bilan ta'minlagan holda AQSH iqtisodiyotining muhim qismiga aylangani yaqqol dalil bo'la oladi. Ishlab chiqarishdagi ish o'rinlari ham kengroq iqtisodiyotda uchta qo'shimcha ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlovchi "ko'paytiruvchi effekt"ni ko'rsatadi. Shunday ekan, mintaqalar kesimida ishlab chiqarish sanoatini rivojlanishi nafaqat hududlar iqtisodiyoti va aholisining turmush darajasiga, balki, mamlakat iqtisodiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati mamlakatimiz sanoatida sezilarli ulushga ega bo'lgan hududlardan biri sanaladi. Statistik ma'lumotlarga asosan, 2024-yil yanvar-mart oylarida hududda jami 6394,4 mlrd so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Mazkur qiymatni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 103,2 foizga o'sgan. Hududda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari mamlakat sanoatining 4,1 foiz ulushini tashkil etib, viloyatlar kesimida 8 o'rinda qayd etilgan. Viloyat sanoatining 3,9 foizi tog'-kon sanoati, 65,8 foizi ishlab chiqarish, 29,8 foizi elektr energiyasi, gaz, bug' ta'minoti va konditsiyalash sanoati, 0,5 foizi suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatiga to'g'ri keladi.

Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha viloyatda to'qimachilik mahsulotlari (41,3%), kimyo mahsulotlari (26,1%), oziq-ovqat mahsulotlari (17,9%) katta ulushga ega. Nishon (27,9%), G'uzor (15,3%) va Qarshi shahri (11,4%) viloyatlari sanoat ishlab chiqarishining muhim hududlari hisoblanadi. Shuningdek, tumanlar kesimida iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkich Qarshi shahriga to'g'ri kelsa, eng past ko'rsatkich Ko'kdala tumanida kuzatilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, viloyatdagi sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi hamda tumanlar kesimida obyektiv kambag'allik darajasi o'rtasida kuchli teskari korrelyatsiya mavjud bo'lib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'lgan tumanlarda kambag'allik darajasi past ekanligi aniqlangan (1-rasm).



1-rasm: Qashqadaryo viloyatida tumanlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmi va obyektiv kambag'allik darajasi o'rtasidagi teskari korrelyatsiya

Yuqoridagi jadval ko'rsatqichlari va hisob kitoblarga ko'ra, tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmi va obyektiv kambag'allik darajasi o'rtasidagi korrelyatsiya -0,9 ni tashkil etmoqda va ikki omil belgi o'rtasida kuchli bog'liklik mavjudligi aniqlangan (1-jadval).

1-jadval: Qashqadaryo viloyatida tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmi va obyektiv kambag'allik darajasi o'rtasidagi korrelyatsiya (%)

No	Tumanlar	Tumanlar kesimida obyektiv kambag'allik darajasi x_i	Sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlar ulushi y_i	$x_i - \bar{x}$	$y_i - \bar{y}$	$(x_i - \bar{x}) \times (y_i - \bar{y})$	$(x_i - \bar{x})^2$	$(y_i - \bar{y})^2$
1.	G'uzor	12,4	13,5	-5,36	6,4	-34,304	28,7296	40,96
2.	Qamashi	24,1	2,8	6,34	-4,3	-27,262	40,1956	18,49
3.	Koson	19,7	4,3	1,9	-2,8	-5,432	3,7636	7,84
4.	Kitob	22,3	4,7	4,54	-2,4	-10,896	20,6116	5,76
5.	Mirishkor	19,4	2,3	1,64	-4,8	-7,872	2,6896	23,04
6.	Nishon	6,3	29,7	-11,5	22,6	-258,996	131,3316	510,76
7.	Kasbi	16,9	5,8	-0,86	-1,3	1,118	0,7396	1,69
8.	Chiroqchi	17,1	3	-0,66	-4,1	2,706	0,4356	16,81
9.	Yakkabog'	19,8	3,3	2,04	-3,8	-7,752	4,1616	14,44
10.	Shahrisabz sh.	19,6	1,6	1,84	-5,5	-10,12	3,3856	30,25
Jami:		$\bar{x}$ 17,76	$\bar{y}$ 7,1	$\Sigma 0$	$\Sigma 0$	$\Sigma -358,81$	$\Sigma 236,04$	$\Sigma 670,04$

$$R = \frac{-358,81}{\sqrt{236,04} \cdot \sqrt{670,04}} = \frac{-358,81}{397,64} = -0,9 \quad y - \bar{y} = R \frac{y}{x} (x - \bar{x})$$

$$R \frac{y}{x} = \frac{-358,81}{236,04} = -1,52 \quad y - 7,1 = -1,52(x - 17,76)$$

$$y = -1,52x + 19,9$$

Regressiya tenglamasi $y = -1,52x + 19,9$ ko'rinishida bo'lib, hududdagi kambag'allik darajasini 1 foizga qisqartirish uchun tumanlar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushining 18,3 foizga ortishi zarur bo'ladi. Sanoat klasterlarining bilvosita ta'siri tumanlarda infratuzilmani yaxshilash va mahalliy firmalarning imkoniyatlarini kengayishi natijasida kambag'al qatlamlar uchun ijobiy bo'ladi.



Tahlil natijalari asosan aytishimiz mumkinki, mintaqadagi qaysi bir tumanlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi nisbatan pastroq bo'lsa, o'sha tumanlarda kambag'allik darajasi yuqoriroq ekanligi aniqlangan. Misol uchun, Shahrisabz shahri hamda Mirishkor, Qamashi, Chiroqchi, Yakkabog' tumanlarining viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmida ulushi eng kam hududlar bo'lsa, mazkur hududlarda kambag'allik darajasi ham eng yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra hududiy kambag'allik va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi o'rtasida kuchli korrelyatsiya majud bo'lib, mintaqada kambag'allik darajasini qisqartirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Qamashi tumanida qurilish materiallari, Qarshi tumani va Qarshi shahrida mebelsozlik klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish;
- Qamashi tumanida qurilish materiallari, Qarshi tumani va Qarshi shahrida mebelsozlik klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish.
- Dehqonobodda kalsiylangan soda, Kitobda mikro-kalsit xom ashyosini qayta ishlash loyihalarini amalga oshirish;
- Muborak va G'uzorda kichik sanoat zonalarini tashkil etilib, yirik neft-gaz korxonalari uchun kooperatsiya asosida 100 dan ortiq butlovchi qismlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- Har chorak yakuni bilan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar natijalarini tahlil qilish hamda pastdan yuqoriga tamoyili asosida muammoli masalalarni hal etish choralarini ko'rish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.M.Soatov, N.G'.Nabiyev, D.N. Nabiyev, G.N. Tillaxo'jayev. Statistika.Darslik. Toshkent-2011.
2. Robert E. Scott. The Manufacturing Footprint and the Importance of U.S. Manufacturing Jobs. URL: <https://www.epi.org/publication/the-manufacturing-footprint-and-the-importance-of-u-s-manufacturing-jobs>.
3. Shuai Sh., Zhanzhong Sh.,Yirong Sh. Impact of AI on employment in manufacturing industry. URL: <https://www.worldscientific.com/doi/10.1007/s11464-023-10000-0>.
4. Ch. Mullen. New Research: Is Manufacturing Stability in Sight? URL: <https://www.ukg.com/blog/workforce-institute/new-research-is-manufacturing-stability-in-sight>.
5. W. Martinez. How science and technology developments impact employment and education. URL: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6294922>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.
7. Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.



BANKLARNING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI FAOLIYATINI TAKOMILASHTIRISH YO'LLARI

Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomilashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot rivojlanayotgan mamlakatlar va O'zbekistondagi banklarning faoliyatidagi farqlarga e'tibor qaratgan holda, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rib chiqadi. Moliyaviy texnologiyalardan foydalanish, risklarni boshqarish strategiyalari, mutaxassislarni tayyorlash, xalqaro hamkorlik va huquqiy asoslar kabi masalalar tahlil qilingan bo'lib, tadqiqot natijalari O'zbekiston banklari o'z faoliyatini qanday yaxshilashi mumkinligini ko'rsatib beradi. Bu esa banklarning moliyaviy barqarorligi va bozor raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: banklar, qimmatli qog'ozlar bozori, moliyaviy texnologiyalar, risklarni boshqarish, mutahassislarni tayyorlash, xalqaro hamkorlik.

Abstract: This article examines ways to improve the activities of banks in the securities market, focusing on the differences between developing countries and Uzbekistan. By analyzing the main factors affecting the effectiveness of banks' operations in the securities market, such as the use of financial technologies, risk management strategies, professional training, international cooperation, and legal frameworks, the study provides a comprehensive overview of current practices and challenges. The findings highlight the key areas where Uzbek banks can enhance their performance to achieve greater financial stability and market competitiveness.

Key words: banks, securities market, financial technologies, risk management, professional training, international cooperation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются пути улучшения деятельности банков на рынке ценных бумаг, с акцентом на различия между развивающимися странами и Узбекистаном. Анализируются основные факторы, влияющие на эффективность операций банков на рынке ценных бумаг, такие как использование финансовых технологий, стратегии управления рисками, профессиональная подготовка, международное сотрудничество и правовые рамки. Исследование предоставляет комплексный обзор текущих практик и вызовов, а также выделяет ключевые области, в которых узбекские банки могут повысить свою производительность для достижения большей финансовой стабильности и конкурентоспособности на рынке.

Ключевые слова: банки, рынок ценных бумаг, финансовые технологии, управление рисками, профессиональная подготовка, международное сотрудничество.

KIRISH

Bugungi kunda banklar moliyaviy bozorlarda faol ishtirok etayotgan subyektlardan biri sifatida muhim rol o'ynaydi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati iqtisodiy tizimning muhim qismi bo'lib, moliyaviy samaradorlik va barqarorlikni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozori orqali banklar kapitalni jalb qilish, tavakkalchiliklarni boshqarish va likvidlikni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati ularning mijozlariga keng turdagi investitsiya va moliyaviy xizmatlar taqdim etish imkonini beradi.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomilashtirishning ahamiyati katta. Bir tomondan, bu bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, tavakkalchiliklarni kamaytiradi va daromadlarni oshiradi. Ikkinchi tomondan, bu butun moliyaviy tizimning barqarorligiga va rivojlanishiga hissa qo'shadi. Banklar samarali investitsiya strategiyalari va risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish orqali iqtisodiy inqirozlardan qochish va moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshlikni saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomilashtirish uchun qator muam-molarni hal qilish talab etiladi. Bular orasida huquqiy va regulyator majmua, moliyaviy texnologiyalarning rivoj-



lanishi, mutaxassislarning malakasi va xalqaro hamkorlik masalalari mavjud. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalarga tayanilgan holda samarali strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati haqidagi ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar soni ko'p bo'lib, ular banklarning bu sohadagi samaradorligi va barqarorligiga alohida e'tibor qaratgan.

Smit va Jonsning (2020) tadqiqoti banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida muvaffaqiyati moliyaviy inqirozlarni oldini olishda muhim ekanligini ko'rsatib o'tgan. Ular banklar uchun zamonaviy moliyaviy texnologiyalar va infratuzilmalarni joriy qilish muhimligini ta'kidlagan. Ushbu tadqiqotda banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini samarali boshqarish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlarning ahamiyatiga urg'u berilgan ^[1].

Kim va Li (2019) tadqiqoti banklar qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq risklarni boshqarishda samarali strategiyalar ishlab chiqishlari kerakligini ta'kidlagan. Ushbu tadqiqotda banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida tavakkalchiliklarni boshqarish uchun maxsus instrumentlar va metodlar muhokama qilingan ^[2].

Braun va Grinning (2018) banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini muvaffaqiyatli olib borish uchun mutaxassislarning malakasini oshirish zarurligini ko'rsatgan. Ushbu tadqiqotda bank xodimlarining malakasini oshirish va doimiy ravishda qayta tayyorlash orqali bank faoliyatini samarali boshqarish imkoniyatlari tahlil qilingan ^[3].

Vang va Chen (2017) banklarning xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali o'z faoliyatini kengaytirishi va yangi imkoniyatlardan foydalanishi mumkinligini ko'rsatgan. Ushbu tadqiqotda banklarning xalqaro hamkorlik va global moliyaviy bozorlardagi ishtiroki muhokama qilingan ^[4].

Rodrigues va Lopez (2016) banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni takomillashtirish muhimligini ta'kidlagan. Ushbu tadqiqotda banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini tartibga soluvchi qonun va normativ hujjatlarining ahamiyati ko'rsatib berilgan ^[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qator ilmiy uslublardan foydalanildi. Ilmiy abstraksiyalash usuli, tadqiqotning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va umumiy konsepsiyalarni shakllantirish uchun qo'llanildi. Qiyoslash uslubi, turli davrlar va hududlardagi banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini solishtirish orqali, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashda samarali bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini takomillashtirish uchun bir qancha asosiy omillar aniqlandi. Quyidagi jadvalda rivojlanayotgan mamlakatlar va O'zbekiston misolida banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini solishtiramiz va ularning o'ziga xosliklarini tahlil qilamiz.

1-jadval: Rivojlanayotgan mamlakatlar va O'zbekiston banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati tahlili

Omillar	Rivojlanayotgan mamlakatlar	O'zbekiston
Moliyaviy texnologiyalardan foydalanish	Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy texnologiyalardan foydalanish keng tarqalgan. Moliyaviy texnologiyalar banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini avtomatlashtirish va tezlashtirishga yordam beradi.	O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalardan foydalanish sur'ati sekin. Bankilar orasida avtomatlashtirilgan tizimlar keng joriy etilmagan.
Risklarni boshqarish strategiyalari	Rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq risklarni boshqarish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqqan. Masalan, maxsus risklarni boshqarish bo'limlari mavjud.	O'zbekistonda banklar risklarni boshqarish bo'yicha strategik yondashuvlardan foydalanishni hali to'liq joriy qilmagan. Haligacha risklarni boshqarish bo'yicha ma'lum metodlar va instrumentlar kam.
Mutahassislarni tayyorlash	Rivojlanayotgan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bilan ishlashga ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor berilgan. Bankilar mutaxassislarni doimiy ravishda qayta tayyorlash kurslari tashkil qilingan.	O'zbekistonda banklar uchun mutaxassislarni tayyorlash dasturlari mavjud, lekin ularning qamrovi cheklangan. Mutaxassislarning malakasini oshirish dasturlari kam va doimiy emas.



Xalqaro hamkorlik	Rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilishni kengaytirgan. Xalqaro bozorlardagi imkoniyatlardan foydalanish uchun aloqalar mustahkamlangan.	O'zbekistonda banklarning xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorligi cheklangan. Xalqaro hamkorlik imkoniyatlari cheklangan va global moliyaviy bozorlarga chiqish sur'ati past.
Huquqiy va regulyator mukammallik	Rivojlanayotgan mamlakatlarda banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy va regulyator asoslar yaxshi rivojlangan. Qonunlar va normativ hujjatlar samarali ishlaydi.	O'zbekistonda huquqiy va regulyator asoslar hali to'liq rivojlanmagan. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tartibga solishda ma'lum bir kamchiliklar mavjud.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy texnologiyalardan foydalanish banklar uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy moliyaviy texnologiyalar banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarini avtomatlashtirish va tezlashtirishga yordam beradi. Bu esa vaqt va resurslarni tejashga imkon beradi. O'zbekistonda esa bu sohadagi rivojlanish sekinlik bilan ketmoqda. Bankilar orasida avtomatlashtirilgan tizimlar keng joriy etilmagan, bu esa operatsiyalarning samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq risklarni boshqarish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqqan. Masalan, maxsus risklarni boshqarish bo'limlari mavjud bo'lib, ular risklarning oldini olish va kamaytirish bo'yicha maxsus instrumentlar va metodlardan foydalanadi. O'zbekistonda esa bu yo'nalishda hali to'liq samarali strategiyalar ishlab chiqilmagan. Bankilar risklarni boshqarish bo'yicha ma'lum metodlar va instrumentlardan kam foydalanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda bank mutaxassislari doimiy ravishda qayta tayyorlash kurslari tashkil qilingan. Bu banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida samarali ishlashini ta'minlaydi. O'zbekistonda banklar uchun mutaxassislarni tayyorlash dasturlari mavjud bo'lsa-da, ularning qamrovi cheklangan. Mutaxassislarning malakasini oshirish dasturlari kam va doimiy emas.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilishni kengaytirgan. Bu banklarga xalqaro bozorlardagi imkoniyatlardan foydalanish va o'z faoliyatini kengaytirish imkonini beradi. O'zbekistonda banklarning xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorligi cheklangan. Xalqaro hamkorlik imkoniyatlari cheklangan va global moliyaviy bozorlarga chiqish sur'ati past.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy va regulyator asoslar yaxshi rivojlangan. Qonunlar va normativ hujjatlar samarali ishlaydi va banklarning faoliyatini tartibga soladi. O'zbekistonda huquqiy va regulyator asoslar hali to'liq rivojlanmagan. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tartibga solishda ma'lum bir kamchiliklar mavjud.

Yuqorida keltirilgan omillardan ko'rinib turibdiki, rivojlanayotgan mamlakatlar va O'zbekiston orasida banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatida sezilarli farqlar mavjud. O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalardan foydalanish, risklarni boshqarish strategiyalari, mutaxassislarni tayyorlash, xalqaro hamkorlik va huquqiy asoslarni takomillashtirish sohalarida muayyan kamchiliklar mavjud. Ushbu sohalaridagi kamchiliklarni bartaraf etish orqali banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish mumkin.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Ushbu takliflar banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va qimmatli qog'ozlar bozoridagi samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan:

Innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish: Banklar o'z faoliyatida zamonaviy va innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanishni kengaytirishi zarur. Bu, o'z navbatida, qimmatli qog'ozlar bozoridagi imkoniyatlarni kengaytirish va banklar faoliyatini yanada samarali boshqarishga yordam beradi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish: Banklar o'z xodimlari va mijozlari o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazishi kerak. Bu, qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarni yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Xalqaro tajribani o'rganish va joriy qilish: Banklar qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini rivojlantirish uchun xalqaro tajribalarni o'rganishi va ularni milliy kontekstga moslashtirishi lozim. Bu, banklarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish: Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish banklarning faoliyatini takomillashtirishga katta yordam beradi. Axborot tizimlari va platformalarining rivojlantirilishi banklarga bozor haqida tezkor va aniq ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish: Banklar qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni samarali boshqarish uchun mustahkam risklarni boshqarish tizimini joriy etishi lozim. Bu, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.



Ushbu takliflar banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ularni amalga oshirish orqali banklar o'zining moliyaviy samaradorligini oshirishi va bozorda mustahkam o'rin egallashi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari tahlil qilindi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va O'zbekistondagi bank faoliyatini solishtirib, ularning o'ziga xos xususiyatlari va muammolari ko'rib chiqildi.

Tahlildan ma'lum bo'ldiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati ancha samarali va barqaror hisoblanadi. Bu mamlakatlarda moliyaviy texnologiyalardan keng foydalaniladi, risklarni boshqarish strategiyalari samarali yo'lga qo'yilgan, mutaxassislarning malakasi yuqori darajada, xalqaro hamkorlik keng tarqalgan va huquqiy asoslar mustahkam. Bu omillar banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

O'zbekistonda esa banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatida ma'lum bir kamchiliklar mavjud. Moliyaviy texnologiyalardan foydalanish sur'ati past, risklarni boshqarish bo'yicha strategik yondashuvlar to'liq joriy qilinmagan, mutaxassislarni tayyorlash dasturlari cheklangan, xalqaro hamkorlik imkoniyatlari cheklangan va huquqiy asoslar yetarli darajada rivojlanmagan. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun ko'p ishlar qilinishi lozim.

Umuman olganda, banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish ularning umumiy moliyaviy holatini yaxshilashga va mijozlar uchun ko'proq qiymat yaratishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishiga hissa qo'shadi. Har bir bankning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini samarali boshqarish orqali milliy moliyaviy tizimning barqarorligi va samaradorligi oshadi. Ushbu yo'nalishdagi ilg'or tajribalar va nazariy yondashuvlarni o'rganish orqali banklar o'z faoliyatini yanada rivojlantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Smit, Dj., va Jons, P. (2020). "Qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyatining samaradorligi". Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, 35(4), 567-589.
2. Kim, X., va Li, S. (2019). "Banklarda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq risklarni boshqarish strategiyalari". Xalqaro moliyaviy menejment jurnali, 28(2), 213-230.
3. Braun, A., va Grin, T. (2018). "Bank mutaxassislarning malakasini oshirish va qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat". Moliyaviy innovatsiyalar jurnali, 22(3), 145-162.
4. Vang, J., va Chen, L. (2017). "Banklar va xalqaro hamkorlik: Global moliyaviy bozorlardagi imkoniyatlar". Xalqaro moliyaviy bozorlar jurnali, 19(1), 67-84.
5. Rodrigues, M., va Lopez, Ye. (2016). "Qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslar". Qonun va moliya jurnali, 33(2), 101-118.



РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ, ЕЕ ПЛЮСЫ И МИНУСЫ



Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи

Магистрантка по специальности
“Государственные финансы и международные
финансы” Банковско-финансовой Академии
Республики Узбекистан



Мамбетова Мадина Зоҳид кизи

Магистрант по специальности
“Государственные финансы и международные
финансы” Банковско-финансовой Академии
Республики Узбекистан

Алижоновна Малика Алижон кизи

Магистрант по специальности
“Государственные финансы и международные
финансы” Банковско-финансовой Академии
Республики Узбекистан

Хакимова Нигора Бахтиёрвна

Магистрант по специальности
“Государственные финансы и международные
финансы” Банковско-финансовой Академии
Республики Узбекистан

Аннотация: В данной статье проанализировано развитие цифровой экономики. Исследована сущность сценария цифровой трансформации экономики. Определены положительные и отрицательные стороны цифровизации экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровая трансформация, электронное правительство, риск киберугроз, цифровая грамотность, “цифровое рабство”.

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini tahlil qiladi. Iqtisodiyotni raqamli transformatsiya qilish stsenariysining mohiyati o'rganildi. Iqtisodiyotni raqamlashtirishning ijobiy va salbiy tomonlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, elektron hukumat, kibertahdidlar xavfi, raqamli savodxonlik, “raqamli qullik”.

Abstract: This article analyzes the development of the digital economy. The essence of the scenario for digital transformation of the economy has been studied. The positive and negative aspects of digitalization of the economy are identified.

Key words: digital economy, digital transformation, e-government, risk of cyber threats, digital literacy, “digital slavery.”



ВВЕДЕНИЕ

В современном мире мы наблюдаем значительные изменения в области коммуникаций и распространения информации. Цифровые технологии проникают во все сферы жизни, оказывая влияние на политику, экономику, культуру и социальные процессы. Большинство стран сталкиваются с необходимостью цифровизации для своего развития.

МЕТОДЫ

Исследование базировалось на известных достижениях отечественных и зарубежных учёных в области цифровизации системы обобществлённых экономических отношений между субъектами деятельности, возникающие по поводу производства, распределения, обмена и потребления благ в условиях освоения потенциала информационно-коммуникационных технологий (далее – ИКТ).

ОБСУЖДЕНИЯ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Экономика всегда была связана с цифрами: терминология бизнеса наполнена числами, а результаты деятельности предприятий измеряются в денежных единицах. Понятия прибыли, убытков, дохода, расходов, налоговой базы, инфляции, ВВП и другие являются неотъемлемой частью делового мира. Все эти данные обрабатываются, анализируются и используются для разработки стратегий социально-экономического развития.

Результаты этого анализа влияют на финансовое состояние государства и помогают определить направления будущего развития. В конечном итоге, цифровые технологии играют ключевую роль в формировании современной экономической политики и обеспечивают устойчивое развитие общества.

На сегодняшнем этапе развития цифровых коммуникационных систем наблюдается активное формирование передовой информационной среды, основанной на использовании цифровых переходов хозяйственных связей на виртуальную, уменьшении потребности в обширной транспортной инфраструктуре, сокращении издержек бизнеса и устранении традиционных рынков и прочих аспектов.

Николас Негропonte является главным пионером в области теории цифровой экономики. В своей книге “Being Digital”, опубликованной в 1995 году, этот американский информатик сформулировал концепцию электронной экономики.

В последние годы цифровые технологии стали неотъемлемой частью повседневной жизни, и законодательство многих стран активно приспосабливается к этим изменениям. В связи с широким распространением информационно-коммуникационных технологий, правительства принимают нормативные акты, такие как Окинавская хартия глобального информационного общества и План действий Тунисского обязательства, которые определяют новые принципы развития экономической, социально-политической и духовной сфер.

Цифровизация означает переход к современным моделям и способам действий, основанным на информационных технологиях. Это включает в себя общение через видеосвязь и мессенджеры, концепцию “умного города” и переход на электронный документооборот. Граждане все чаще используют интернет для онлайн-консультаций со специалистами и для совершения покупок.

Цифровая экономика представляет собой экономическую деятельность, основанную на создании, распространении и использовании цифровых технологий, а также связанных с ними продуктов и услуг. Развитие цифровой экономики оказывает влияние на форму работы компаний, образование и труд людей, а также на способы коммуникации между государством и гражданами, включая предоставление важных государственных услуг.

Современное деловое управление и инвестиционные стратегии претерпевают радикальные изменения в связи с ростом инноваций. Финансовая сфера становится лидером в процессе цифровизации, что приводит к появлению и развитию таких технологий, как онлайн-банкинг, электронные платежи, краудфандинг, скоринговые модели для оценки кредитных рисков, инвестиционные роботы-советники, облачное хранение информации, криптовалюты, блокчейн и P2P-кредитование.

Компании активно используют цифровые технологии для управления, контроля и анализа бизнеса, а также для предоставления своих услуг и товаров. Большинство финансовых продуктов теперь доступны онлайн, позволяя клиентам оформлять кредиты, оплачивать счета или инвестировать средства через интернет.

Сегодня общество привыкло к возможности оплаты налогов и коммунальных услуг с помощью смартфона. Получение кредита сводится к заполнению онлайн-заявки на сайте банка. Инвестирование в акции также доступно через онлайн-платформы. Интернет позволяет управлять финансами независимо от местоположения и времени.



Цифровая экономика преобразует способы ведения бизнеса, предоставления услуг и продажи товаров. Она открывает новые возможности для компаний, которые используют цифровые технологии для управления своими операциями и взаимодействия с клиентами через интернет. Примером цифровой компании является “Глобус Доставка”, которая использует инновационные методы доставки и мобильные приложения для улучшения опыта клиентов. Это позволяет им снизить затраты на обслуживание и предложить более эффективные услуги.

Некоторые традиционные компании также обращаются к цифровой экономике. Например, сеть магазинов “Зеленый Дом” внедрила цифровую трансформацию, чтобы оптимизировать свою цепочку поставок и управление запасами. Это позволило им сократить издержки и улучшить обслуживание клиентов.

Цифровая экономика также упрощает процессы оплаты, улучшает доступ к информации о товарах и услугах, а также помогает компаниям быстро реагировать на обратную связь от клиентов, что способствует постоянному совершенствованию продуктов и услуг.

В рамках стратегии “Цифровой Узбекистан–2030” национальная экономика претерпевает цифровую трансформацию, охватывая различные отрасли и регионы. Это включает в себя внедрение государственных информационных систем, электронных услуг, а также широкомасштабные изменения в системах образования, государственного управления, судебной системы, финансового сектора, банковской сферы и транспортных систем. Основной упор делается на разработку и внедрение эффективных организационно-правовых механизмов, обеспечение гармоничного взаимодействия между государственными структурами и предпринимательским сообществом для внедрения инновационных идей, технологий, производства и обслуживания. Важным аспектом является подготовка кадрового потенциала с глубокими знаниями цифровых технологий в различных отраслях, что способствует формированию информированного общества в стране.

Отсутствие эффективной системы оценки развития цифровой экономики и электронного правительства, а также несовершенный межведомственный механизм ее реализации, затрудняют проведение всестороннего анализа текущего состояния цифровой трансформации различных отраслей и регионов экономики. В связи с этим постановлением Правительства от 15 июня 2021 года № 373 была утверждена единая рейтинговая система для оценки развития цифровой экономики и электронного правительства в различных сферах экономики и общества. В рамках этого постановления были определены ключевые направления для внедрения эффективной системы межведомственной координации процессов оценки с целью разработки программ цифрового развития на региональном уровне. Для автоматизации процессов оценки цифровой трансформации организаций и регионов была запущена межведомственная информационная система NIS.UZ на основе данного решения.

В течение последних лет были проведены поэтапные реформы, направленные на интеграцию информационно-коммуникационных и интернет-технологий (далее – ИКИТ) в различные сферы государственного управления и предоставления государственных услуг. Целью этих реформ было стимулирование информационных сервисов, разработка и внедрение системы “электронного правительства”, что в итоге привело к созданию эффективных механизмов для оперативного решения повседневных проблем населения республики. Указ Президента Республики Узбекистан от 30 июня 2017 года № ПФ-5099 “О мерах по коренному улучшению условий развития сферы информационных технологий в Республике” четко определил перспективные направления развития сектора ИКИТ и предложил меры и мероприятия по его интеграции в экономику. Однако до 2020 года сектор ИКИТ развивался медленно. Анализ консалтинговой службы “ERGO Research & Advisory” выявил, что основной причиной этого замедления является недостаточно развитая телекоммуникационная инфраструктура и связь. Недостаток инвестиций в развитие этого сектора привел к недостаточной работоспособности интернета и мобильных услуг, что замедлило рост цифровой экономики и цифровых прорывов. Однако в текущем году наблюдается значительный рост в этом направлении.

Согласно информации, предоставленной Министерством цифровых технологий Республики Узбекистан, в настоящее время ведется активная работа по модернизации телекоммуникационной инфраструктуры. Скорость интернета достигла 1200 Гбит/с, а доступ к интернету на уровне коммутационного центра обеспечивается со скоростью 750 Гбит/с, при этом уровень загрузки сети составляет 78,5 процента. С 1 января 2024 года тарифы на интернет-услуги для операторов и провайдеров были снижены на 37% по сравнению с предыдущим периодом и составляют 48 000 сумов за 1 Мбит/с. Общее количество пользователей интернет-услуг увеличилось до 24 миллионов, из которых 19 миллионов используют мобильный интернет. Были расширены магистральные сети телекоммуникаций на 280 объектах по всей стране, произведена модернизация телекоммуникационного оборудования, а также увеличена пропускная способность магистральных сетей до 200 Гбит/с на межобластном уровне и 40 Гбит/с на межрайонном уровне.



Несмотря на значительные достижения, остаётся много работы. Сегодня цифровая трансформация продолжает набирать обороты, что отражается в росте объёмов цифровых данных. Ожидается, что глобальный IP-трафик в текущем году достигнет 150 700 Гбит/с (в сравнении с 45 000 Гбит/с в 2017 году). Цифровая экономика представляет собой новую модель экономики, основанную на передовых методах обработки, хранения и передачи данных, а также цифровых компьютерных технологиях. Эта экономическая парадигма будет радикально менять существующие рыночные модели, значительно изменять процессы добавления стоимости и сокращать роль посредников на всех уровнях экономики.

Процесс цифровизации оказывает значительное воздействие на различные сферы общества, обеспечивая удобство и эффективность взаимодействия между участниками. Он улучшает доступ к товарам и услугам, позволяя совершать операции онлайн и экономить время. Важными преимуществами цифровизации являются:

- ориентация на потребности клиентов, предоставление широкого выбора товаров и услуг по более выгодным ценам;
- упрощение доступа к услугам для всех категорий пользователей без посредников благодаря использованию цифровых технологий;
